


62137  
E 41

A.A.Tulyaganov, S.S.Parsiyev,  
V.A.Tulyaganova, U.M.Abdullayev

# ELEKTR ZANJIRLAR NAZARIYASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSİYALARINI  
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

A.A.TULYAGANOV, S.S.PARSIYEV,  
V.A.TULYAGANOVA, U.M.ABDULLAYEV

## ELEKTR ZANJIRLAR NAZARIYASI

Maxsus fakultet talabalari uchun

(O'quv qo'llanma)



TOSHKENT – 2018

UO'K: 621.3.011.7

KBK: 32.88-01

E 41

E 41. A.A.Tulyaganov, S.S.Parsiyev, V.A.Tulyaganova, U.M.Abdullayev.  
Elektr zanjirlar nazariyasi. (O'quv qo'llanma). T.: «Aloqachi», 2018,  
144 bet.

ISBN 978-9943-5145-2-2

O'quv qo'llanmada "Elektr zanjirlar nazariyasi" fani haqida umumiy tushunchalar; telekommunikatsiya tarmoqlarining texnik qurilmalarini yaratish, ularni ishlatalish uchun texnik vositalar orqali borayotgan jarayonni o'rganish; telekommunikatsiya tarmoqlarining texnik qurilmalarini tashkil etgan elektr zanjirlarini tahlil qilish, elektr toki oqayotgan jarayon qaysi qonunlar asosida amalga oshirilishini bilish; murakkab elektr zanjirlar orqali oqib o'tayotgan tok va kuchlanishning asosiy ko'rsatgichlarini hisoblash va tahlil qilish; texnik qurilmalarni tashkil etuvchilarini tahlil qilish uchun elektr zanjirlar nazariyasini o'rganishning nazariy va amaliy jihatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma TATU Maxsus fakultetining ishchi o'quv dasturi va o'quv rejalariga mos holda ishlab chiqilgan.

UO'K: 621.3.011.7

KBK: 32.88-01

**Taqrizchilar:**

Abdullayev B.A. – Islom Karimov nomidagi TDTU kafedrasи dotsenti, t.f.n;

Rahimov B.N. – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU kafedrasи mudiri, t.f.d.

978-9943-5145-2-2

© «Aloqachi» nashriyoti, 2018.

**Mundarija**

Kirish.....	6
I bob. Zaryadlangan zarrachalar. Zaryadlangan zarrachalarning o'zaro harakatlari. Elektr maydon.....	7
1.1. Elektr zaryad tushunchasi.....	7
1.2. Zaryadlarning o'zaro harakatlari.....	7
1.3. Elektr maydon.....	8
1.4. Elektr toki.....	10
1.5. Solishtirma qarshilik.....	11
1.6. O'tkazgichning resistor qarshiligi.....	11
1.7. Manbaning ichki qarshiligi.....	12
II bob. Kuchlanish. Elektr potensiali va potensiallar farqi. Elektr yurituvchi kuch.....	14
2.1. Kuchlanish.....	14
2.2. Potensial. Potensiallar farqi.....	16
2.3. Elektr yurituvchi kuch.....	17
III bob. Elektr zanjiri. Elektr zanjir elementlari. Elementlarni ketma-ket va parallel ulash.....	19
3.1. Elektr zanjiri.....	19
3.2. Elektr zanjir elementlari.....	19
3.3. Elektr yurituvchi kuch (EYuK).....	21
3.4. Tarmoqlangan va tarmoqlanmagan zanjirlar.....	22
3.5. Elektr zanjir elementlarining Volt-Amper xarakteristikalari...	23
3.6. Elektr zanjirlarning topologik xarakteristikalari.....	24
3.7. Zanjirlarni ketma-ket va parallel ulash.....	25
IV bob. Elektr zanjirlar nazariyasinining asosiy qonunlari. Kirxgof qonunlari. Om qonuni.....	28
4.1. Kirxgof qonunlari.....	28
4.2. Elektr zanjirlar uchun Om qonuni.....	31
V bob. Doimiy tok zanjirlarini hisoblash. Elektr sxemalarini ekvivalent usuli bilan almashtirish (ekvivalent almashtirish usuli).....	34
5.1. Ekvivalent almashtirish usuli.....	34
5.2. Kontur toklar usuli.....	36
5.3. Tugunlar potensiali usuli.....	37
5.4. O'zgarmas tok zanjirining potensial diagrammasi.....	39
VI bob. O'zgaruvchan tok. Sinusoidal tok. Sinusoidal tokni xarakterlovchi miqdorlar.....	42
6.1. O'zgaruvchan tok.....	42
6.2. Sinusoidal tok.....	42
6.3. Qarshilik orqali garmonik tok o'tishi.....	44

6.4. Induktivlik orqali garmonik tok o'tishi.....	45
6.5. Garmonik tokning sig'im orqali o'tishi.....	46
VII bob. Sinusoidal funksiyalarni vektor diagrammasi va kompleks sonlar orqali ifodalash.....	49
7.1. Sinusoidal funksiyalarni vektor diagrammasi.....	49
7.2. Vektorlar ustida simvolik usulda amallar bajarish.....	53
VIII bob. Kompleks ifodalar. Kompleks sonlar ustida amallar bajarish.....	56
8.1. Kompleks sonlarning haqiqiy va mavhum qismlari.....	57
8.2. Kompleks sonlar ustida amallar bajarish.....	58
8.3. Oddiy elektr zanjirlarini kompleks ifodalar orqali hisoblash...	60
IX bob. Kompleks qarshilik va o'tkazuvchanlik. Kirxgof va Om qonunlarini kompleks miqdorlar orqali ifodalash.....	63
9.1. Kompleks shakldagi Om va Kirxgof qonunları.....	65
X bob. Garmonik tok zanjirlarida quvvat.....	68
10.1. Aktiv quvvat.....	69
10.2. Reaktiv quvvat.....	70
10.3. To'liq quvvat.....	70
10.4. Kompleks quvvat.....	71
10.5. Quvvat muvozanati.....	72
XI bob. Parallel tebranish konturi. Tok rezonansi.....	74
XII bob. Davriy funksiyalarning garmonik tarkiblarga yoyilishi.....	80
12.1. Davriy nogarmonik signallarning simmetrik ko'rinishlari....	84
12.2. Gorizontal o'qqa nisbatan simmetrik signal shakli.....	85
12.3. Nogarmonik signallarning koordinata o'qi boshlanishiga nisbatan simmetrik shakli.....	85
XIII bob. Ikkiquilibli elektr zanjirlari. Ta'riflari va klassifikatsiyalari....	87
13.1. Bir elementli reaktiv ikki qutbli elektr zanjiri.....	88
13.2. Ikki elementli reaktiv ikki qutbli elektr zanjiri.....	89
XIV bob. Chiziqli elektr zanjirlarida o'tish jarayonlari.....	94
14.1. Tok va kuchlanishning erkin va majburiy tashkil etuvchilari..	95
14.2. O'tish jarayonlarini klassik usul orqali tahlil qilish.....	98
XV bob. O'tish jarayonlarini operator usulida hisoblash.....	102
XVI bob. Spektral (chastotaviy) usul yordami bilan CHEZlarni tahlil qilish.To'rtqutbliklar (TQ).....	110
16.1. To'rtqutbliklar (TQ).....	112
XVII bob. Battervord, ChebIshev va Zolotaryov filtrlari.....	116
17.1. Zolotaryov filtrlari.....	119
17.2. Filtrlarda o'tkinchi jarayon.....	120
XVIII bob. Nochiziqli elektr zanjirlari.....	123
18.1. Ketma-ket ulangan nochiziqli elementlar ulangan elektr	126

zanjirni grafik usulda hisoblash.....	127
18.2. Nochiziqli rezistiv elementi.....	127
18.3. Nochiziqli sig'im.....	128
18.4. Nochiziqli induktivlik.....	128
XIX bob. Magnitli zanjirlar.....	130
19.1. Magnit zanjirlari uchun Kirxgof qonunlari.....	132
XX bob. Teskari bog'langan elektr zanjirlari. Avtogeneratorlar.....	137
20.1. Avtogeneratorlar.....	139
Foydalanilgan adabiyotlar.....	143

## KIRISH

Respublikamizda TELEKOMMUNIKATSİYA tarmoqlarining shiddat bilan rivojlanib borishi, INTERNET tarmog‘ining hayotimizga kiring kelishi ilm-fan rivojiga katta ta’sir qildi.

Barcha axborotlar ushbu tarmoqlar orqali katta tezliklarda uzatiladi, internet tarmog‘i orqali barcha axborotlarni qabul qilish, uzatish va axborot almashtish imkoniyati yaratildi.

Ushbu telekommunikatsiya tarmoqlari murakkab qurilmalardan, uzatuvchilardan, qabul qiluvchi va axborotlarni qayta ishlash, boshqa turlarga aylantirish uskunalaridan tashkil topgan. Ushbu murakkab turdagi qurilmalar har hil turdagи elekrotexnik va elektron sxemalardan tashkil topgan bo‘ladi.

Telekommunikatsiya tarmoqlarining texnik qurilmalarini yaratish, ishlatalish uchun ushbu texnik vositalar orqali borayotgan jarayonni o‘rganish, ularni tashkil etgan elektr zanjirlarini tahlil qilish, elektr toki oqayotgan jarayon qaysi qonunlar asosida amalga oshirilishini bilish zarur bo‘ladi. Ushbu qonunlarning ko‘pchiligi “Elektr zanjirlar nazariyasi” (EZN) fani orqali o‘rganiladi. EZN fani o‘tgan asrning 60-yillarda alohida fan sifatida tashkil topgan. O‘sha yilgacha umumiylanfan sifatida “Elektrotexnika” fani o‘rganilib kelingan. Keyinchalik telekommunikatsiya tarmoqlarida faoliyat olib boruvchi injener texnik hodimlar uchun murakkab elektr zanjirlar orqali oqib o‘tayotgan tok va kuchlanishning asosiy parametrlarini hisoblash va tahlil qilish asosiy o‘rin egalladi. Shuning uchun ham hozirgi vaqtida ushbu fan orqali texnik qurilmalarda bo‘layotgan jarayon o‘rganib boriladi. Texnik qurilmalarni tashkil etuvchilarini tahlil qilish uchun elektr zanjirlar nazariyasini o‘rganish kerak bo‘ladi.

Ushbu o‘quv qo‘llanmadan TATU Maxsus fakulteti talabalari va universitetning boshqa mutaxassisliklari bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar foydalanishlari mumkin.

Mualliflar ushbu o‘quv qo‘llanma mazmuni va undagi kamchiliklar haqida fikr-mulohazalarini bildirganlarga avvaldan o‘z minnatdorchiliklarini bildiradilar.

## I bob. ZARYADLANGAN ZARRACHALAR. ZARYADLANGAN ZARRACHALARING O‘ZARO HARAKATLARI. ELEKTR MAYDON

### 1.1. Elektr zaryad tushunchasi

Fizika fanidan ma‘lumki bir bo‘lak oyna sinig‘ini shoyi matoga ishqalansa, oyna sinig‘i mayda qog‘oz bo‘lakchalarini o‘ziga tortadigan bo‘lib qoladi. Lekin shoyi matoga ishqalangan ikki oyna sinig‘i bir-birini itarish xususiyatiga ega bo‘ladi. Ebonit materiali mex materialiga ishqalansa ham xuddi shunday xususiyatga ega bo‘ladi, ikki ebonit materiali esa bir-birini itarish xususiyatiga ega bo‘ladi.

Jismalarning bir-birini tortishi va itarishi odam ko‘ziga ko‘rinmaydigan mayda **ZARYADLARNING** paydo bo‘lishi bilan tushuntirilishi mumkin. Keyinchalik bu mayda zaryadlar **ELEKTR ZARYADLARI** deb nomlandi.

Zaryadlangan jismlar bir-birlarini tortishlari va itarishlari orqali ularni ajratish xususiyati paydo bo‘ldi. Masalan, oyna sinig‘ida hosil bo‘lgan zaryadlar tortish, ebonitda esa bir-biridan qochish xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi. Shu orqali oyna sinig‘ida hosil bo‘lgan zaryadlar **MUSBAT**, ebonitda hosil bo‘lgan zaryadlar **MANFIY** deb nomlanadigan bo‘ldi.

Zaryadlangan zarrachalarni o‘rganish vaqtida shu narsa aniqlanadi, **bir xil zaryadlar bir-birlaridan qochishadi, har xil zaryadlar esa bir-birini tortishadi.**

Keyinchalik ma‘lum bo‘ldiki, har bir jism **ATOMLARDAN** tashkil topgan bo‘lib, har bir atom musbat zaryadlangan **YADRODAN** va manfiy zaryadlangan **ELEKTRONDAN** tashkil topganligi aniqlandi. Agar musbat zaryadlangan yadrolar, manfiy zaryadlangan elektronlarga teng bo‘lsa, atom **NEYTRAL** holatda bo‘ladi. Agar zaryadlangan elektronlar ko‘paysa, manfiy, agar kamaysa, musbat zaryadlar hosil bo‘ladi.

Demak,, elektron zaryadi – tabiatdagi eng kichik elektr zaryadi hisoblanadi. Zaryad birligi bir elektron zaryadi emas, balki **KULON** deb nomlanadi va quyidagi miqdorga teng deb belgilanadi, ya’ni (**Sh.O.KULON** elektrostatikaga asos solgan fransuz injener-fiziqiga nomiga)

**6 290 000 000 000 000**

**$6,29 \cdot 10^{18}$**  elektron zaryadlar.

Demak,,  **$1KI = 6,29 \cdot 10^{18}$**  elektron zaryad.

## 1.2. Zaryadlarning o'zaro harakatlari

Zaryadlarga o'zaro ta'sir etuvchi kuch zaryadlangan zaryadlar ko'paytmasiga to'g'ri proporsional, ular orasidagi masofa kvadratiga teskari proporsional.

$$F = \frac{q_1 q_2}{e_a R^2}. \quad (1.1)$$

Yuqoridagi formula zaryadlangan zarrachalarning o'zaro ta'sir kuchlarini hisoblash formulasi hisoblanadi.

Bu formulada:  $F$  – zaryadlarning o'zaro ta'sir kuchi, o'lchov birligi Nyuton (N), ingliz fiziki Isaak Nyuton (1643–1727) nomi bilan nomlangan;

$q_1, q_2$  – zaryadlar, KI;

$R$  – zaryadlangan zarrachalar orasidagi masofa, m;

$e_a$  – dielektrik singdruvchanlik;

$e_a = e_0 \cdot e_r$ ;

$e_0$  – vakuumning dielektrik singdruvchanlik doimiyligi;

$e_r$  – muhitning nisbiy dielektrik singdruvchanlik doimiyligi (miqdorlari jadval orqali beriladi).

Yuqoridagi ifodalarni inobatga oladigan bo'lsak, KULON qonuni quyidagicha yoziladi:

$$F = \frac{q_1 q_2}{e_0 e_r R^2}. \quad (1.2)$$

Tajriba yo'llari bilan aniqlanganki vakuumning dielektrik singdruvchanligi quyidagi miqdorga teng:  $8.85 \cdot 10^{-12}$ , F.

Vakuumning dielektrik singdruvchanligining o'lchov birligi Ingliz fiziki Maykl Faradey (1791 – 1867) nomi bilan nomlangan va "Farad" (F) deb belgilanadi.

## 1.3. Elektr maydon

Zaryadlangan jism atrofida bir-birini tortish va itarish kuchlarini namoyon etuvchi maydon bo'ladi. Bu maydon ELEKTRLANGAN MAYDON deb yuritiladi.

Elektrlangan maydon materianing bir turi bo'lib, shu maydon orqali zaryadlangan zarrachalarning o'zaro harakatlari amalga oshiriladi.

Zaryadlari o'zgarmaydigan maydon ELEKROSTATIK maydon deb yuritiladi.

Elektr maydonining har bir nuqtasi elektr maydonining KUCH-LANGANLIGI E bilan xarakterlanadi.

Kuchlanganlik  $E = \frac{F}{q}$  formula orqali ifodalanadi, bu yerda,  $F$  maydonda joylashgan q zaryadga ta'sir etuvchi kuch.


Zaryadlangan zarrachalarga ta'sir etuvchi kuch  $F$  NYUTONDA (N), zaryad q esa KULONDA (KI), elektr maydonining kuchlanganligi E esa (N/KI) da o'lchanadi.

Elektr maydon kuchlanganligi deb, elektr maydonining ko'riyotgan nuqtasiga kiritilgan zaryadlangan qo'zg'olmas jismga ta'sir etayotgan kuch miqdorini shu zaryad nolga intilgandagi miqdoriga nisbatining, jismga ta'sir etayotgan musbat kuch yo'nalishi bilan mos bo'lgan vektor miqdoriga aytildi:


Elektr maydonining kuchlanganligi vektor kattalik hisoblanadi va elektr maydonini va shu maydon orqali zaryadlangan zarrachalarga ta'sir etuvchi kuchni xarakterlaydi.

Elektr maydon maydonning kuchlanganlik chiziqlari bilan tasvirlanadi. Maydon kuchlanganligining vektori maydonning har bir nuqtasida bir hil bo'lgan maydon BIR TURDAGI MAYDON deb ataladi.

Elektr kuchlanganlik chiziqlari yopiq chiziqlar bo'lmashdan, musbat zaryadli jismlardan boshlanadi va manfiy zaryadlangan jismlarda tugaydi. Misol tariqasida 1.1 va 1.2-rasmardagi shakllarni keltirishimiz mumkin. 1.3-rasmda ikkita parallel joylashgan plastinalarning elektr maydon kuchlanganligi keltirilgan.



1.1- rasm. Musbat va manfiy zaryadlarning ko'rinishi.



1.2- rasm. Zaryadlarning o'zaro tortishishlari va qochishlari.

#### 1.4. Elektr toki

Har qanday metall o'tkazgichlarda erkin harakatlanuvchi ELEKTRONLAR mavjud bo'ladi. Agar metall o'tkazgich uchlariga (klemmalariga) hech qanday kuchlanganlik ulanmasa, elektronlar har xil yo'nalishlar bo'yicha tartibsiz harakatlanadi, elektronlarning hech qanday tartibli harakati kuzatilmaydi.

Agar metall o'tkazgich uchlariga har xil qiymatlarga ega bo'lgan kuchlanganlik ulansa, u holda elektronlarni tartibli harakatga keltiruvchi ELEKTR MAYDON hosil bo'ladi.

Shu holatda o'tkazgich kesimidan bir vaqtning o'zida bir xil miqdordagi elektr zaryadlari ko'chib o'tishi kuzatiladi. Elektronlarning tartibli harakati orqali zaryadli zarrachalarning o'tkazgichning bir nuqtasidan ikkinchi nuqtasiga ko'chib o'tishi ELEKTR TOKI deb ataladi, qisqacha TOK deyiladi.

Tokning o'chov birligi fransuz fiziki N.M. AMPER (1775–1836) nomiga atab AMPER (A) deb belgilanadi. Tok miqdorini aniqlash uchun ma'lum vaqt oralig'ida zaryad o'zgarishini bilish kerak bo'ladi.

Vaqt o'tishi bilan qiymatini o'zgartirmaydigan tok o'zgarmas tok deb ataladi. Vaqt o'tishi bilan sinusoidal (garmonik) qonun bo'yicha o'zgaradigan tok o'zgaruvchan tok deb ataladi.

Tok xuddi kuchlanish singari  $i$  – oniy, amplituda  $I_m$  va maksimal  $I_p$  qiymatlarga ega bo'ladi. Tok miqdori biror yuza s orqali vaqt birligida o'tayotgan zaryad miqdori  $q$  bilan o'chanadi. Vaqtning ixtiyoriy onida o'tkazuvchanlik toki ko'rilib yotgan  $s$  yuzadan zaryad tashuvchilar bilan ko'chilayotgan elektr zaryadining vaqt bo'yicha hosilasiga teng, ya'ni

$$i = \frac{dq}{dt}. \quad (1.3)$$

O'tkazgichning barcha nuqtalarida tartibli harakatlanayotgan zaryadlardan tashqari, tartibsiz harakatlanayotgan elektronlar ham

mavjud bo'ladi, oqibatda ular o'tkazgich orqali o'tayotgan tokning tartibli harakatiga xalaqt beradi.

Bu holat o'tkazgichning yoki materialning QARSHILIGI deb ataladi.

O'tkazgich qarshiliqi R harfi bilan, yoki r bilan belgilanadi. qarshilikning o'chov birligi nemis olimi Georg OM (1787–1854) sharafiga Om deb belgilanadi.

#### 1.5. Solishtirma qarshilik

O'tkazgichlarning qarshiliqi shu o'tkazgich tayyorlangan materialning xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Shu materiallarni bir-biri bilan taqqoslash, xususiyatlarini aniqlash maqsadida SOLISHTIRMA QARSHILIK tushunchasi kiritiladi va  $\rho$  ( $\Omega \cdot m$  deb o'qiladi) bilan belgilanadi.

Bir  $m^2$  kesimga ega bo'lgan 1 metr uzunlikdagi o'tkazgich qarshiliqi SOLISHTIRMA QARSHILIK deb ataladi va quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\text{Bu yerda, } \rho = \frac{RS}{L} \quad [\rho] = \Omega \cdot m \cdot \frac{m^2}{m} = \Omega \cdot m \cdot m. \quad (1.4)$$

R – o'tkazgich qarshiliqi,  $\Omega$ ;

S – o'tkazgichning kesim yuzasi,  $m^2$ ;

L – o'tkazgich uzunligi, m .


#### 1.6. O'tkazgichning resistor qarshligi

Biror o'tkazgich orqali o'tayotgan elektr toki bir qancha qarshilik-larga uchraydi, shu sababli energiya yo'qotiladi. Odatda, energiya yo'qotilmaydi, faqat bir turdan boshqa turga o'tadi, bu holatda elektr energiyasi issiqlik energiyasiga o'tadi. Elektr qarshilikka ega bo'lgan o'tkazgich orqali elektr toki o'tsa shu o'tkazgichda ISSIQLIK ajraladi.

Elektr energiyasini issiqlik energiyasiga aylantirish xususiyatiga ega bo'lgan o'tkazgich REZISTOR QARSHILIGI deyladi. Xuddi shunday xususiyatga ega bo'lgan radio element REZISTOR deb ataladi.

Elektr sxemalarda rezistorlar quyidagi Rasmda ko'rsatilgandek belgilanadi:

## NAZORAT SAVOLLARI



1.3- rasm. Rezistor elementini sxemada belgilanishi.

Qarshilikka teskari bo'lgan fizik kattalik **O'TKAZUVCHANLIK** deb ataladi.

Rezistorli zanjirlarda o'tkazuvchanlik quyidagi formula orqali  $G = \frac{1}{R}$  ifodalanadi. O'tkazuvchanlikning o'lchov birligi nemis elektrotexniki E.V.Simens (1816–1892) sharafiga Simens (Sm)da o'chanadi. Solishtirma qarshilikka teskari bo'lgan kattalik **SOLISH-TIRMA O'TKAZUVCHANLIK** deb ataladi va  $\gamma = \frac{1}{\rho}$  formula orqali ifodalanadi. Solishtirma o'tkazuvchanlikning o'lchov birligi quyidagi qiymat bilan aniqlanadi:


$$\frac{1}{Om} \cdot m \text{ yoki } \frac{mm^2}{Om \cdot m}$$

### 1.7. Manbaning ichki qarshiligi

Har qanday elektr energiyasi manbalari ichki qarshilikka ega bo'ladilar va elektr sxemalarida quyidagicha belgilanadi:

$R_i$  (yoki  $r$ ).

Elektr manbalarning ichki qarshiliklari juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kattalik hisoblanadi, chunki ichki qarshilik orqali manbaning ba'zi xususiyatlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Odatda, manbaning ichki qarshiligi manbaning ichida bo'ladi, faqat sxemalarda aloxida belgilar bilan ko'rsatiladi, masalan:




1.4- rasm.

1. Zaryadlangan zarrachalar.
2. Zaryadlangan zarrachalarning o'zaro harakatlari.
3. Elektr maydon.
4. Elektr maydon tushunchasi.
5. Elektr toki tushunchasi.
6. O'tkazgich qarshiligi.
7. Solishtirma qarshilik.
8. O'tkazgichning rezistor qarshiligi.
9. O'tkazuvchanlik tushunchasi.
10. Solishtirma o'tkazuvchanlik.
11. Manbaning ichki qarshiligi.

## II bob. KUCHLANISH. ELEKTR POTENSIALI VA POTENSIALLAR FARQI. ELEKTR YURITUVCHI KUCH

### 2.1. Kuchlanish

Elektr zanjirining biron bir uchastkasidagi **KUCHLANISH** deb shu uchastkaning chekka nuqtalaridagi potensiallar farqiga aytildi.



2.1-rasm.

Ushbu rasmda elektr zanjirining chekka nuqtalari **a** va **b** harflar bilan belgilangan. Faraz qilaylik, **I** tok **a** nuqtadan **b** nuqtaga, ya'ni potensiali yuqori bo'lgan nuqtadan, potensiali kichik bo'lgan nuqtaga qarab oqayapti.

Kuchlanish yo'nalishi potensiali yuqori bo'lgan nuqtadan potensiali kichik bo'lgan nuqta tomon yo'nalgan bo'ladi. Demak,, "**a**" nuqtaning potensiali "**b**" nuqtaning potensialidan formulada keltirilgan miqdorday katta hisoblanadi.

$$\varphi_a = \varphi_b + IR. \quad (2.1)$$

Demak,, "**a**" va "**b**" nuqtalar o'rtaidagi **KUCHLANISH** quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$U_{ab} = \varphi_a - \varphi_b. \quad (2.2)$$

Shundan kelib chiqadiki, **KUCHLANISH** elektr zanjirining qarshiliqi orqali oqib o'tayotgan tokning shu qarshilik miqdori ko'paytmasiga teng, ya'ni:

$$U_{ab} = IR. \quad (2.3)$$


Elektrotexnikada qarshilikning ikki chekka nuqtalaridagi potensiallar farqi kuchlanish **PASAYISHI** deb ataladi.

Zanjirning biron bir uchastkasida potensiallarning pasayish yo'nalishi strelka bilan ko'rsatiladi, odatda, tok yo'nalishi bilan mos keladi.


Endi elektr zanjirining qarshilik ulangan qismi emas, balki **ELEKTR YURITUVCHI KUCH (EYuK)** ulangan qismini ko'rib chiqamiz.

Rasmda ko'rsatilgan zanjirning "**a**" va "**c**" nuqtalari uchun potensiallar farqini aniqlaymiz:

$$U_{ac} = \varphi_a - \varphi_c. \quad (2.4)$$



*a)*



*b)*

2.2- rasm.

2.2-a rasmda "**c**" nuqtadan "**b**" nuqtaga qarab yurilsa EYuK yo'nalishiga teskari bo'ladi va "**b**" nuqtaning potensiali "**c**" nuqtaning potensialidan EYuK ning quyidagi miqdoricha kam bo'ladi, ya'ni:

$$\varphi_b = \varphi_c - E. \quad (2.5)$$

Agar "**b**" nuqtadan "**c**" nuqtaga qarab yurilsa, EYuK yo'nalishiga mos keladi va "**c**" nuqtaning potensiali "**b**" nuqtaning potensialidan EYuKning quyidagi miqdoricha katta bo'ladi, ya'ni:

$$\varphi_b = \varphi_c + E. \quad (2.6)$$

Yuqorida ko'rib chiqilgan elektr zanjirining qismlarida, EYuK bo'limgan uchastkalarida, elektr toki potensial yuqori bo'lgan nuqtadan potensiali past bo'lgan nuqtaga tomon oqayotganini ko'ramiz. 2.2-rasmning ikkalasida ham "**a**" nuqtaning potensiali "**b**" nuqtaning potensialidan qarshilikning quyidagi miqdoricha yuqori bo'ladi, ya'ni:

$$\varphi_a = \varphi_b + IR. \quad (2.7)$$

Shunday qilib 2.2-a rasm uchun quyidagi ifoda to'g'ri keladi:

$$\varphi_a = \varphi_c - E + IR, \quad U_{ac} = \varphi_a - \varphi_c = IR - E. \quad (2.8)$$

2.2-b rasm uchun esa quyidagi ifoda to'g'ri keladi:

$$\varphi_a = \varphi_c + E + IR, \quad U_{ac} = \varphi_a - \varphi_c = IR + E. \quad (2.9)$$

U<sub>ac</sub> kuchlanishning musbat tomonga yo‘nalishi “a” nuqtadan “c” nuqta tomon strelka orqali ko‘rsatilgan.

Qoidaga ko‘ra “a” va “c” nuqtalar kuchlanishi quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$U_{ca} = \varphi_c - \varphi_a. \quad (2.10)$$

Shuning uchun ham U<sub>ca</sub> = -U<sub>ac</sub>, ya’ni kuchlanish ham musbat, ham manfiy qiymatlarga ega bo‘lishi mumkin. Kuchlanishning o‘lchov birligi Italiya fiziki Aleksandro Volt (1745–1827) sharafiga Volt (V) deb belgilanadi. Elektrotexnikada kuchlanishning quyidagi o‘lchov birliklari ishlataladi:

$$\text{Kilovolt (kV)} = 1000 \text{ V}, 1 \text{kV} = 10^3 \text{ V};$$

$$\text{Millivolt (mV)} = 0,001 \text{ V}, 1 \text{V} = 1000 \text{ mV}, 1 \text{ mV} = 10^{-3} \text{ V};$$

$$\text{Mikrovolt (mkV)} = 0,000001 \text{ V} = 10^{-6} \text{ V}, 1 \text{V} = 10^6 \text{ mkV}.$$

## 2.2. Potensial. Potensiallar farqi

Musbat ishorali zaryad “Q” atrofida Elektr maydon hosil bo‘ladi, shu maydon nuqtasiga yana “q” bir musbat zaryad kiritamiz.

Bu ikki (Q va q) zaryad bir hil nomlangan zaryadga ega, ya’ni ikkalasi ham (+) musbat zaryadlanagan. Demak,, bu ikki zaryad bir-birini itarish “F” kuchiga ega bo‘ladi. Shu kuch zaryadlarni bir-biridan itarishi oqibatida biron “A” ish bajariladi.

Demak,, biron bir zaryadni elektr maydoniga olib kirish uchun “A” ish bajarilish hisobiga biron energiya sarf qilinadi. Elektr maydonining har bir nuqtasi elektr potensiali bilan xarakterlanadi, yoki **POTENSIAL** deb yuritiladi.

$$\varphi = \frac{W}{Q}. \quad (2.11)$$

Ushbu formula zaryadlangan zaryadni biron bir nuqtaga ko‘chirish uchun, bajarilgan “A” ish hisobiga, biron-bir energiya sarf qilinishini ko‘rsatadi. Potensialning o‘lchov birligi (**VOLT**, qisqacha **V**). **ENERGIYA** ish kabi ingliz fiziki **DJEYMS DJOUL** (1818 – 1889) sharafiga **DJOUL (Dj)** o‘lchov birligi bilan o‘lchanadi. Bir metr yo‘l uzunligida bir NYUTON kuch bajargan ish bir **DJOUL** deyiladi, ya’ni:

$$[Dj] = N \cdot m = kg \cdot m \cdot m/s^2 = kg \cdot m^2/s^2.$$

**1 Kl** zaryadni maydonning bir nuqtasidan ikkinchi bir nuqtasiga ko‘chirish uchun sarflanadigan **1 Dj** energiyaga **1 V POTENSIAL** deb ataladi. Maydon kuchlanganligini “E” potensial “φ” orqali ifodalaymiz, ya’ni:

$$E = \frac{F}{Q}, \quad (2.12)$$

$$Q = \frac{W}{\varphi}, \quad W = A = F L, \quad F - \text{kuch}, \quad L - \text{masofa. Unda:}$$

$$E = \frac{F}{Q} = \frac{F\varphi}{W} = \frac{F\varphi}{A} = \frac{F\varphi}{Fl} = \frac{\varphi}{l}. \quad (2.13)$$

Demak, elektr maydonning har bir nuqtasi **POTENSIAL** bilan xarakterlanadi.

Ikki nuqtaning potensiallar farqi **KUCHLANGANLIK** deyiladi va **U** bilan belgilanadi.

## 2.3. Elektr yurituvchi kuch

Oldingi bo‘limlarda ikki nuqtaning potensiallar farqi **KUCHLANGISH** deb atalgan edi.


Potensiallari har xil bo‘lgan ikkita maydonni olsak, ular o‘rtasida quyidagi miqdordagi kuchlanish hosil bo‘ladi:

$$U = \varphi_1 - \varphi_2. \quad (2.14)$$


bu yerda, ( $\varphi_1$  va  $\varphi_2$ ) maydonlardagi noelektrik energiya hisobiga hosil bo‘lgan potensiallar miqdori. Masalan, ximiyaviy elementlardan tashkil topgan (ko‘mir, sink, aglomerat va b.) elementni olamiz. Ximiyaviy reaksiya hisobiga energiya sarflanadi va maydonlarda ma‘lum bir sondagi elektronlar paydo bo‘ladi, shuning hisobiga ko‘mir va sink elementlarida har hil potensiallar paydo bo‘ladi. Shu ximiyaviy elementlar chiqishlarida **KUCHLANISH** hosil bo‘ladi.Ushbu kuchlanish manbaning ochiq klemmalarida **ELEKTR YURITUVCHI KUCH (EYuK)** deb yuritiladi.

Demak, EYuK ham har xil ko‘rinishdagi **KUCHLANISH** hisoblanadi. EYuK ham kuchlanish kabi **VOLT (V)** o‘lchov birligida o‘lchanadi. Demak, manbaning **ELEKTR YURITUVCHI KUCHI** shu manba ichidagi energiyaning sarflanishi hisobiga hosil bo‘ladigan potensiallar farqiga aytildi.

Ishlab chiqarishda, elektrostansiyalarda EYuK mexanik energiya hisobiga hosil bo‘ladi. EYuK ning yo‘nalishi tashqi maydon kuchlari



manba ichida musbat zaryadni musbat yo'nalishdagi ko'chirishga aytildi. Tashqi maydon yo'naliishi ham deyiladi.



2.3-rasm.

Yuqoridagi rasmlarda EYuKning sxemalarda belgilanishi, EYuKning elektr zanjiriga ularishi va Volt-Amper xarakteristikasi (VAX) keltirilgan.

VAXdan ko'rindiki EYuK (ye) zanjirning kuchlanishiga ( $U$ ) teng bo'ladi va zanjir orqali oqayotgan ( $I$ ) tokka bog'liq bo'lmaydi.

### NAZORAT SAVOLLARI


1. Kuchlanish ta'rifi. Kuchlanishni hosil qilish.
2. Kuchlanish o'lchov birligi.
3. Potensial, uning ta'rifi. Potensiallar farqi.
4. Elektr yurituvchi kuch, uning ta'rifi. EYuK o'lchov birligi.
5. EYuKning elektr sxemalarida belgilanishi.
6. DJOUL deb nimaga aytildi?

### III bob. ELEKTR ZANJIRI. ELEKTR ZANJIR ELEMENTLARI. ELEMENTLARNI KETMA-KET VA PARALEL ULAŞH

#### 3.1. Elektr zanjiri

Elektr toki uchun yo'l (yo'lak) hosil qiladigan elementlar va qurilmalar yig'indisiga **ELEKTR ZANJIRI** deb ataladi.

Elektr zanjirini shartli belgilar bilan tasvirlash **ELEKTR SXEMASI** deyiladi. Ushbu rasmida elektr sxemasining bir ko'rinishi keltirilgan.





3.1-rasm.

#### 3.2. Elektr zanjir elementlari

Elektr zanjirlar asosan QARSHILIK, INDUKTIVLIK, KONDENSATOR (SIG'IM), EYuK va TOK MANBALARIDAN tashkil topgan bo'ladi. Ularning xarakteristikalarini ko'rib chiqamiz.



QARSHILIK ELEMENTI elektr energiyasining issiqlik energiyasiga o'tishishini ifodalaydi va modda molekulasi harakatlanayotgan zaryadli zaryadchalar qarshiligidagi uchraydi.

Bu holatda elektr energiyasi issiqlik energiyasiga aylanadi, elementda saqlanib qolmaydi (3.2-rasm). Ushbu rasmlarda qarshilik elementining elektr zanjirlarda belgilanishi, chiziqli va nochiziqli elementlar hamda Volt-Amper xarakteristikalari (VAX) keltirilgan.



3.2-rasm. Qarshilik elementining elektr zanjirlarda belgilanishi (chiziqli va nochiziqli) hamda Volt-Amper xarakteristikalari.


**INDUKTIVLIK ELEMENTI** qurilmada magnit maydon borligini ifodalaydi va o‘zgarmas tok bo‘yicha qarshilik ko‘rsatadi. Induktiv elementida magnit maydon energiyasi saqlanib qoladi. Ushbu rasmlarda chiziqli va nochiziqli elementlar va Veber-Amper xarakteristikasi (VebAX) keltirilgan.



3.3-rasm. Chiziqli, nochiziqli induktivlik elementlar va ularning Veber-Amper xarakteristikasi.

$$\Phi = LI, \quad L = \frac{\Phi}{I} \rightarrow [L] = \frac{Vb}{A} = v \cdot \frac{c}{A} = c \cdot Om$$

**KONDENSATOR (SIG‘IM) ELEMENTI** qurilmada elektr maydon borligini ifodalaydi. Bunda zaryadlarning harakat energiyasi elektr maydonining potensial energiyasiga aylanadi. Keyinchalik bu potensial energiya elementda saqlanib qoladi (3.4-rasm). Ushbu rasmlarda chiziqli va nochiziqli elementlar hamda mos holda ularning xarakteristikalari keltirilgan.



3.4-rasm. Chiziqli va nochiziqli kondensator elementlar hamda mos holda ularning xarakteristikalari.


Yuqorida ko‘rib chiqilgan elektr zanjirining elementlari (qarshilik, induktivlik va sig‘im) PASSIV ELEMENTLAR deb ataladi, chunki zanjirning boshqa qismlaridan olgan energiyalari faqat musbat bo‘ladi, yoki nolga teng bo‘ladi, ya’ni o‘zida qoladi.

### 3.3. Elektr yurituvchi kuch (EYuK)

EYuK va TOK manbalari elektr zanjirining AKTIV ELEMENTLARI hisoblanadi, chunki ular elektr zanjiriga ulangan elementlarga energiyalarini beradi. Shuning uchun ham ular “ist’emol” qiladigan tashqi energiya manfiy hisoblanadi. Quyida EYuK va TOK manbalarining elektr zanjirlarda belgilanishi, VAX lari keltirilgan (3.5-rasm). VAXdan ko‘rinib turibdiki, EYuK zanjirda hosil bo‘ladigan kuchlanish miqdoriga teng bo‘ladi va tok miqdoriga bog‘liq bo‘lmaydi.

$$r_{iq} \rightarrow 0; \quad U \rightarrow U_{xx} = E;$$

$$r_{iq} = 0. \quad U = U_{xx} = E = \text{const.}$$




3.5- rasm. EYuK manbasining elektr zanjirlarda belgilanishi, VAX.

Tok manbasining ichki qarshiligi cheksizlikka intiladi, zanjirda qisqa tutashuv yuz beradi va qisqa tutashuv tok miqdori tok manbaiga teng bo'ladi, ushbu holat VAX da yaqqol ko'rinib turibdi.


$$r_{iq} \rightarrow \infty; \quad I \rightarrow I_{qt}=J;$$

$$r_{iq} = \infty. \quad I=I_{qt}=J=\text{const.}$$



3.6-rasm. Tok manbasining elektr zanjirlarda belgilanishi, VAX.

Misol tariqasida quyidagi elektr zanjirini ko'rib chiqamiz: Faraz qilaylik, elektromagnit energiyasi issiqlik energiyasiga faqat *a-b* sohadagi rezistordagina o'tayapti, ya'ni bu oraliqda zanjirning barcha qarshiligi *r* miqdorida mujassamlangan; elektr siljish toklari faqat *c-d* oraliqda kondensator qoplamlari orasida mavjud, ya'ni bu sohada zanjirning barcha *S* sig'imi mujassamlangan; nihoyat, o'zgaruvchan magnit maydon *EYuKni* faqat *h-j* oraliqda mujassamlangan g'altakda induktivlaydi, ya'ni ushbu sohada zanjirning barcha *L* induktivligi yig'ilgan.




3.7-rasm.

#### 3.4. Tarmoqlangan va tarmoqlanmagan zanjirlar


Barcha turdag'i elektr zanjirlari **TARMOQLANGAN** va **TARMOQLANMAGAN** zanjirlarga bo'linadi.

Elektr zanjir elementlaridan har xil miqdordagi toklar o'tsa bunday elektr zanjiri **TARMOQLANGAN** elektr zanjiri deb ataladi (3.8-rasm).



3.8-rasm.


Elektr zanjir elementlaridan bir xil miqdordagi toklar o'tsa bunday elektr zanjiri **TARMOQLANMAGAN** elektr zanjiri deb ataladi (3.9-rasm).



3.9-rasm.

#### 3.5. Elektr zanjir elementlarining Volt-Amper xarakteristikalari

Qarshilik orqali oqayotgan tokning shu qarshilik kuchlanishiga bog'liqlik grafigi **VOLT-AMPER XARAKTERISTIKALARI (VAX)** deyiladi. Odatda, grafikda absissa o'qiga **KUCHLANISH**, ordinata o'qiga esa **TOK** miqdori qo'yiladi.




3.10-rasm.

Chiziqli VAX ga ega bo'lgan qarshilik CHIZIQLI QARSHILIK deb ataladi (b Rasm), faqat chiziqli qarshilikka ega bo'lgan elektr zanjirlar CHIZIQLI ELEKTR ZANJIRLAR deyiladi.

Nochiziqli VAXga ega bo'lgan qarshilik NOCHIZIQLI QARSHILIK deb ataladi (v Rasm), faqat nochiziqli qarshilikka ega bo'lgan elektr zanjirlar NOCHIZIQLI ELEKTR ZANJIRLAR deyiladi.

TOK va KUCHLANISHGA nisbatan prametrлari o'zgaradigan ELEMENTLAR NOCHIZIQLI ELEMENTLAR deyiladi.

Quyidagi rasmlarda chiziqli qarshilik, chiziqli kondensator va chiziqli induktivlik xarakteristikalarini keltirilgan.




3.11-rasm.

### 3.6. Elektr zanjirlarning topologik xarakteristikaları

Elektr zanjirlari umumiyl holda SHOXOBCHALAR, TUGUNLAR VA KONTURLARDAN iborat bo'ladi.

Elektr zanjiri sxemasining SHOXOBCHASI deb zanjirning shunday qismiga aytildiği, uning ixtiyoriy bo'lagida tokning miqdori doimo bir xil bo'ladi.

SHOXOBCHA tarkibida ixtiyoriy miqdordagi ketma-ket ulangan qarshilik, kondensator, induktivlik elementlari, *EYuK* manbalari bo'lishi mumkin. Bunga quyidagi rasmida keltirilgan elektr zanjirini misol tariqasida keltirishimiz mumkin:



3.12-rasm.


Unda sxemaning *d* nuqtasidan *c* nuqtasiga *L1*, *r1*, *e* va *r2* elementlari bo'ylab yursak, shu elementlarning har biridan bir xil TOK oqishini ko'ramiz.

Demak,, sxemaning *d* - *L1* - *r1* - *e* - *r2* - *s* bo'lagi shoxobcha hisoblanadi. Shu *ds* oraliqni *s* - *C* - *r3* - *d* bo'ylab yursak, ya'ni bir shoxobchani ko'ramiz.

Ushbu sxemada yana *c* - *r4* - *f*, *f* - *r6* - *h*, *q* - *L2* - *r7* - *h* va *d* - *r5* - *h* shoxobchalar ham mavjud. Demak,, har bir shoxobchadagi elementlar o'zaro ketma-ket ulangan ekan.

Elektr zanjirining TUGUNLARI deb shoxobchalarning kamida uchtasi ulangan nuqtalariga aytildi. Tugun elektr sxemasida nuqta bilan belgilanadi. Misol sifatida yuqoridagi rasmni ko'rishimiz mumkin. Undagi *c*, *d*, *f*, va *h* nuqtalar tugun deyiladi.

Misol tariqasida ushbu rasmlarni keltirishimiz mumkin:




3.13-rasm.

Elektr zanjirining KONTURI deb, bir necha ketma-ket shoxobchalar orqali o'tgan ixtiyoriy berk yo'lga aytildi. Bunga misol qilib yuqoridagi rasmdagi *abdca*, *cdhfs* va *fqhfs* konturlarni olishimiz mumkin.


### 3.7. Zanjirlarni ketma-ket va parallel ulash

Elektr zanjiri qismlarining KETMA-KET ulangani deb shunday ulanishiga aytildadi, unda zanjir shu bo'lagining har bir qismidan oqayotgan tok bir-biriga teng bo'ladi.



3.14-rasm.

Ketma-ket ulangan elementlarga misol sifatida rasmida keltirilgan sxemalarni ko'rib chiqaylik. Unda  $a - b$  oraliqda  $r_1$ ,  $C$  va  $r_2$  elementlari ketma-ket ulangan ( $a$ -rasm); bunda uchchala elementning toklari  $i_{r1} = i_C = i_{r2}$  o'zaro teng. Ikkinchi shoxobchada esa  $c$  va  $d$  nuqtalari orasida  $r$  va  $L$  elementlari ketma-ket ulangan va  $i_r = i_L$  ( $b$ -rasm).




3.15-rasm.

$$i_{R1} = i_{R2} = i_L = i_C = i_e \quad (3.1)$$

Elektr zanjiri elementlarining PARALLEL ulanishi deb shunday ulanishga aytiladiki, unda barcha elementlar (shoxobchalar) zanjirning bir juft tugunlariga ulanadi va barcha elementlardagi (shoxobchalardagi) kuchlanishlar bir xil bo'лади.

Parallel ulangan shoxobchalarga 3.16-rasmida keltirilgan sxemalar misol bo'ла oladi.



3.16-rasm.

$$U_f = U_R = U_L = U_C \quad (3.2)$$

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Elektr zanjiri, ta'rifi.
2. Elektr zanjir elementlari.
3. Tarmoqlangan va tarmoqlanmagan elektr zanjirlari.
4. Elementlarni ketma-ket va paralel ulash.
5. Elektr zanjirining topologik strukturasi (shoxobcha, tugun, kontur) tushunchalari.
6. Aktiv va passiv elementlar, xarakteristikalari.
7. Chiziqli va nochiziqqli zanjir elementlari.
8. Elementlarning Volt-Amper xarakteristikalari.

#### IV bob. ELEKTR ZANJIRLAR NAZARIYASINING ASOSIY QONUNLARI. KIRXGOF VA OM QONUNLARI

Elektr zanjirlar nazariyasida Om qonuni bilan birga shoxobchalar-dagi TOKLAR va yopiq zanjirlardagi kuchlanishlar balanslarini ifoda-laydigan ASOSIY qonunlardan biri KIRXGOF qonunlari hisoblanadi.

Elektr zanjirlarida TOK va KUCHLANISHLARning zanjir bo'yicha taqsimlanishi KIRXGOF qonunlari orqali ifodalanadi.


##### 4.1. Kirxgof qonunlari

Elektr zanjirlar elementlarining asosiy parametrlarini hisoblash uchun KIRXGOF VA OM qonunlaridan foydalilanadi.

Nemis fiziki Gustav Robert Kirxgof elektr zanjirlar nazariyasida o'zining birinchi va ikkinchi qonunlarini yaratgan olimlardan hisoblanadi.

##### *Kirxgofning birinchi qonuni*

Tugundagi toklarning algebraik yig'indisi nolga teng




$$\Sigma \pm I = 0 \quad I_1 + I_2 + I_3 - I_4 = 0. \quad (4.1)$$

4.1-rasm.

Kirxgof qonuning boshqacha taliqini: Tugunga kirib kelayotgan toklar yig'indisi tugundan chiqayotgan toklar yig'indisiga teng.

$$I_1 + I_2 + I_3 = I_4$$



$$i_{pr1} + i_{pr2} + i_{pr3} - i_{ut1} - i_{ut2} = 0. \quad (4.2)$$


4.2-rasm.

Kirxgofning birinchi qonuni bo'yicha tenglamalar soni quyidagi aniqlanadi: ( $u-1$ ), bu yerda,  $u$  – zanjirdagi tugunlar soni.

Tugunlarga kelayotgan va tugunlardan chiqayotgan TOKLAR YIG'INDISI ko'rib chiqilayotgan TUGUNDAGI barcha shoxob-chalardagi TOKLARGA tegishli bo'ladi. Tugunlarga kelayotgan va chiqayotgan toklarga BIR XIL ishoralar qo'yiladi, ya'ni musbat va manfiy. Misol tariqasida yuqoridagi rasmlarda ko'rsatilgan.

Kirxgofning birinchi qonuning ma'nosi shundan iboratki, tugunlarda elektr zaryadlari yig'ilmaydi ham, sarf ham qilinmaydi, faqat ma'lum bir vaqt oralig'ida tugunga kelayotgan zaryadlar yig'indisi, tugundan chiqayotgan zaryadlar yig'indisiga teng bo'ladi.

Kirxgofning birinchi qonuni faqat tugun uchun emas, balki biron bir kontur uchun ham qo'llanishi mumkin, misol uchun:



4.3-rasm.


$$-i_1 + i_2 + i_3 = 0. \quad (4.3)$$

##### *Kirxgofning ikkinchi qonuni*

Zanjir konturidagi elementlar kuchlanishlarining algebraik yig'indisi shu konturdagi EYuK larning algebraik yig'indisiga teng bo'ladi.

$$\Sigma \pm U = \Sigma \pm E, \quad \Sigma (u - e) = 0. \quad (4.4)$$


Kontur ichidagi tok yo'nalishi ixtiyoriy yo'nalishda olinadi, misol uchun soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha olinishi mumkin. Bu holatda EYuK va KUCHLANISHLAR uchun quyidagi qoidaga rioya qilinadi, ya'ni konturdagi tok yo'nalishi bilan EYuK va KUCHLANISH yo'nalishlari mos kelsa BIR XIL ishora bilan olinadi.



4.4-rasm.

$$e_1 - e_2 = u_1 + u_2 + u_3 - u_4. \quad (4.5)$$

Kirxgofning IKKINCHI qonunini formula orqali ifodalash uchun quyidagi elektr zanjirdan foydalanamiz:



4.5-rasm.

Misol tariqasida: a tugun uchun 1 shoxobcha, b tugun uchun 3 shoxobcha, c tugun uchun 5 shoxobcha, d tugun uchun esa 4 shoxobchalarga quyidagi tenglama mos keladi:

$$I_3 r_3 - I_5 r_5 - I_4 r_4 = E_1 - E_3 + E_4. \quad (4.6)$$


Kirxgofning ikkinchi qonuni bo'yicha tuziladigan tenglamalar soni quyidagicha aniqlanadi:  $\{v - (u-I)\}$ , bu yerda,  $v$  – shoxobchalar soni.

### Kirxgof qonunlari asosida zanjirlarni hisoblash tartibi

1. Barcha shoxobchalarda toklar yo'nalishi aniqlanadi.
2. Sxemadagi tugunlar uchun Kirxgofning birinchi qonuni uchun tenglama tuziladi.
3. Mustaqil konturlar aniqlanadi (tanlanadi).
4. Kirxgofning ikkinchi qonuni uchun tenglama tuziladi.
5. Tuzilgan tenglamalar mustaqil toklar uchun yechiladi.
6. Agar quyidagi elementlarning miqdorlari aniq bo'lsa:

$$E_1, E_3, E_6, r_1, r_2, r_3, r_4, r_5, r_6.$$

U holda, quyida keltirilgan elektr zanjiri uchun KIRXGOF qonunlari bo'yicha tenglamalar tuzamiz.



4.6-rasm.

$$I_6 - I_4 - I_1 = 0,$$

$$I_1 - I_2 - I_3 = 0,$$

$$I_3 + I_5 - I_6 = 0,$$


$$I_1 r_1 + I_2 r_2 - I_4 r_4 = E_1,$$

$$I_3 r_3 - I_5 r_5 - I_2 r_2 = -E_3,$$

$$I_4 r_4 + I_5 r_5 + I_6 r_6 = -E_6.$$

### 4.2. Elektr zanjirlar uchun Om qonuni

Zanjirning EYUK bo'limgan qismi uchun OM QONUNI zanjirning shu qismi uchun tok va kuchlanish o'rtasidagi bog'lanishni ifodalarydi va quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:




4.7-rasm.

$$U_{ab} = IR, \quad I = \frac{U_{ab}}{R} = \frac{\varphi_a - \varphi_b}{R}. \quad (4.7.)$$

Zanjirda TOK va KUCHLANISH vaqt bo'yicha o'zgarmasligi mumkin (doimiy tok rejimi) u holda tok va kuchlanishning oniy qiymatlari ham o'zgarmas qiymatga ega bo'ladi. Shu holat uchun Om qonuni quyidagicha ifodalanadi va ta'riflanadi: zanjirdan o'tayotgan TOK kuchlanishga to'g'ri proporsional, qarshilikka teskari proporsional.

$$I = \frac{U}{R} \quad yoki \quad U = RI. \quad (4.8.)$$

Zanjirning EYuK bo'lgan qismi uchun OM qonuni quyidagicha ifodalanadi:




4.7-rasm.

$$I = \varphi_a - \varphi_b + \frac{E}{R} = U_{ac} + \frac{E}{R}, \quad I = \varphi_a - \varphi_b - \frac{E}{R} = U_{ac} - \frac{E}{R}. \quad (4.9)$$

Umumiy holatda esa quyidagicha ifodalanadi:


$$I = (\varphi_a - \varphi_c) \pm \frac{E}{R} = U_{ac} \pm \frac{E}{R}. \quad (4.10)$$

Elektr zanjirining EYuK ulangan qismi uchun OM qonuni quyidagicha ifodalanadi.



4.8-rasm.

$$I = \frac{U_{12} \pm \sum E_i}{\sum r_q} = \frac{\varphi_1 - \varphi_2 + E_1 - E_2}{r_1 + r_2}. \quad (4.11)$$



4.9-rasm.

$$I_1 = I \frac{r_2}{r_1 + r_2}; \quad I_2 = I \frac{r_1}{r_1 + r_2}; \quad (4.12)$$

$$U_{ab} = I \frac{r_1 r_2}{r_1 + r_2}; \quad I_1 = \frac{U_{ab}}{r_1}; \quad I_2 = \frac{U_{ab}}{r_2}. \quad (4.13)$$

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Kirxgofning birinchi qonuni, ta'rifi.
2. Kirxgofning ikkinchi qonuni, ta'rifi.
3. Zanjirning EYuK bo'lmagan qismi uchun OM qonuni.
4. Zanjirning EYuK mavjud bo'lgan qismi uchun OM qonuni.
5. Kirxgof va Om qonunlarini tatbiq etuvchi misollar yechish.

## V bob. TOK ZANJIRLARINI HISOBISH. ELEKTR SXEMALARINI EKVIVALENT USULI BILAN ALMASHTIRISH (EKVIVALENT ALMASHTIRISH USULI)


### 5.1. Ekvivalent almashtirish usuli

Ekvivalent almashtirish usulining ma'nosi: zanjirning bir nechta elementlarini bir element bilan, yoki elektr sxemasini bir boshqa sxema bilan almashtirish, ya'ni soddalashtirish tushuniladi.

Sxemaning kirishidagi tok va kuchlanishlar miqdori o'zgarmay qolsa almashtirish ekvivalent hisoblanadi.

Ekvivalent almashtirishning maqsadi, elektr sxemalarini sodalashtirish va tenglamalar sonini kamaytirish hisoblanadi. Ekvivalent almashtirishlar uchun quyidagi misollarni keltiramiz:

Qarshiliklarni ketma-ket ulash.



5.1-rasm.

Bu sxemada ekvivalent almashtirishning negizi UMUMIY TOK hisoblanadi. Kirxgofning ikkinchi qonuniga asosan quyidagi formula hosil bo'ladi:


$$U = IR_1 + IR_2 + IR_3 = I(R_1 + R_2 + R_3) = IR_3. \quad (5.1)$$

Yoki umumiy holda quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$U = \sum_{k=1}^n U_k = \sum_{k=1}^n IR_k = I \sum_{k=1}^n R_k = IR_3. \quad (5.2)$$

Bu yerda,  $R_e = \sum_{k=1}^n R_k$  almashtirilgan sxemaning ekvivalent qarshiligi hisoblanadi.

Qarshiliklarning paralel ulangan holda, bu yerda almashtirish negizi hamma elementlarda kuchlanishning bir xil bo'lishi, ya'ni:



5.2-rasm.

$$I = I_1 + I_2 + I_3 = \frac{U}{R_1} + \frac{U}{R_2} + \frac{U}{R_3} = U\left(\frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} + \frac{1}{R_3}\right) = U(g_1 + g_2 + g_3) = Ug,$$


Yoki umumiy holda quyidagicha yoziladi:

$$I = \sum_{k=1}^n I_k = \sum_{k=1}^n Ug_k = U \sum_{k=1}^n g_k = Ug_e, \quad (5.3)$$

Bu yerda,  $g_e = \sum_{k=1}^n g_k$  ekvivalent o'tkazuvchanlik deyiladi.


$$R_e = \frac{1}{g_e} - \text{elektr sxemaning ekvivalent qarshiligi hisoblanadi.}$$

### AYRIM HOLATLAR UCHUN:



5.3-rasm.

$$R_e = \frac{R_1 R_2}{R_1 + R_2}; \quad R_1 = R_2 = R; \quad R_e = \frac{R}{2}. \quad (5.4)$$



5.4-rasm.

$$R_1 = \frac{R_{12}R_{31}}{R_{12} + R_{23} + R_{31}}; \quad 5.1.5$$

$$R_2 = \frac{R_{12}R_{23}}{R_{12} + R_{23} + R_{31}};$$


$$R_3 = \frac{R_{23}R_{31}}{R_{12} + R_{23} + R_{31}};$$

$$\begin{aligned} R_{12} &= R_1 + R_2 + \frac{R_1 R_2}{R_3}; \\ R_{23} &= R_2 + R_3 + \frac{R_2 R_3}{R_1}; \\ R_{31} &= R_1 + R_3 + \frac{R_1 R_3}{R_2}. \end{aligned} \quad (5.5)$$

## 5.2. Kontur toklar usuli

Kontur toklar usuli Kirxgofning 2 qonuni asosida kontur uchun tuzilgan tenglamalarni yechishga qaratilgan bo'ladi. Bu usul orqali sxemadagi tenglamalar soni Kirxgofning 2 qonuni tenglamalarigacha qisqartirish imkoniyatini beradi.

Kirxgofning birinchi va ikkinchi qonunlaridan foydalangan holda quyidagi elektr zanjirini ko'rib chiqamiz:



5.5-rasm.

Kirxgofning birinchi va ikkinchi qonunlari bo'yicha tenglamalar tuzamiz:

$$I_6 - I_4 - I_1 = 0$$

$$I_1 - I_2 - I_3 = 0$$

$$I_3 + I_5 - I_6 = 0$$

$$\left\{ \begin{array}{l} I_1 r_1 + I_2 r_2 - I_4 r_4 = E_1 \\ I_3 r_3 - I_5 r_5 - I_2 r_2 = -E_3 \\ I_4 r_4 + I_5 r_5 + I_6 r_6 = -E_6 \end{array} \right. \quad (5.6)$$

Yuqoridagi formulalardan quyidagi toklar ifodalarini topamiz va (2) tenglamaga qo'yamiz:

$$I_4 = I_6 - I_1,$$

$$I_2 = I_1 - I_3,$$

$$I_5 = -I_3 + I_6$$

$$\left\{ \begin{array}{l} I_1 r_1 + I_2 r_2 - I_3 r_2 - I_6 r_4 + I_1 r_4 = E_1 \\ I_3 r_3 + I_3 r_5 - I_6 r_5 - I_1 r_2 + I_3 r_2 = -E_3 \\ I_6 r_4 - I_1 r_4 - I_3 r_5 + I_6 r_5 + I_6 r_6 = -E_6 \end{array} \right. \quad (5.7)$$

$$\left\{ \begin{array}{l} I_1(r_1 + r_2 + r_3) - I_3 r_2 - I_6 r_4 = E_1 \\ I_3(r_2 + r_3 + r_5) - I_1 r_2 - I_6 r_5 = -E_3 \\ I_6(r_4 + r_5 + r_6) - I_1 r_4 - I_3 r_5 = -E_6 \end{array} \right. \quad (5.8)$$

Tenglama kontur toklar uchun Kirxgofning 2 qonuni hisoblanadi. Tenglamaning chap tomoni sxemadagi elementlar orqali oqib o'tgan kontur tokidan hosil bo'lgan kuchlanishlar va aralash (qo'shni) konturlarning kontur toklarini hisobga oladi. Tenglamaning o'ng tomoni esa konturdagi EYuK larni hisobga oladi.

## KTU bo'yicha hisoblash tartibi


1. Mustaqil konturlar tanlab olinadi.
2. Kontur toklar kiritiladi va ular yo'nalishi belgilanadi.
3. Noma'lum kontur toklar uchun tenglamalar tuziladi (agar konturda tok manbasi bo'lsa, u kontur uchun tenglama tuzilmaydi).
4. Kontur tenglamalar tizimi yechiladi va kontur toklar topiladi.
5. Shoxobchalardagi toklar yo'nalishlari aniqlanadi va ular qiymati hisoblanadi (shoxobchalardagi toklar kontur toklarga teng bo'ladi).

## 5.3. Tugunlar potensialli usuli

Ushbu usul tugunlar potensiallarini Kirxgofning 1 qonuni asosida aniqlashga va shoxobchalardagi toklar qiymati esa Om qonuni asosida aniqlashga bag'ishlanadi. Bu usulda tenglamalar soni Kirxgofning 1 qonuni tenglamalari sonigacha kamaytirish imkonini beradi.

Shoxobchalardagi toklar zanjirdagi potensiallar ayirmasiga bog'liq bo'ladi, agar zanjirdagi bitta tugunni yerga ulasak, u holda, uning potensiali NOLGA teng bo'ladi, lekin sxemada toklar o'zgarmaydi.

Rasmdagi sxemani ko'rib chiqamiz va d tugun potensialini NOLGA teng deb olamiz:



5.6-rasm.

Noma'lum bo'lgan (a. b. c) tugunlar uchun Kirxgofning 1 qonuni bo'yicha tenglamalar tuzamiz:

$$\begin{aligned} \text{Tugun } <>a & \quad I_1 - I_2 - I_3 = 0 \\ \text{Tugun } <>b & \quad I_4 + I_2 - I_3 = 0 \\ \text{Tugun } <>c & \quad I_3 + I_6 - I_1 = 0 \end{aligned} \quad (5.9)$$

Toklar yo'nalishlarini aniqlagan holda Om qonuni asosida shoxobchalardagi toklar uchun tenglamalar tuzamiz.

$$\begin{aligned} I_1 &= ((\varphi_a - \varphi_b) + E_1) \frac{1}{r_1}; \quad I_2 = J; \quad I_3 = (\varphi_c - \varphi_b) \frac{1}{r_3}; \\ I_4 &= (\varphi_b - \varphi_d) \frac{1}{r_4}; \quad I_5 = (\varphi_d - \varphi_a) \frac{1}{r_5}; \quad I_6 = ((\varphi_c - \varphi_d) - E_6) \frac{1}{r_6}. \end{aligned} \quad (5.10)$$

5.10 tenglamani 5.9 tenglamaga qo'yamiz:

$$(\varphi_a - \varphi_b) \frac{1}{r_4} + J - (\varphi_c - \varphi_b) \frac{1}{r_3} = 0 \quad (\varphi_a - \varphi_b) \frac{1}{r_4} + J - (\varphi_c - \varphi_b) \frac{1}{r_3} = 0$$

$$\left\{ \begin{array}{l} \varphi_a \left( \frac{1}{r_1} + \frac{1}{r_2} + \frac{1}{r_5} \right) - \varphi_b \frac{1}{r_2} - \varphi_c \frac{1}{r_1} = -E_1 \frac{1}{r_1} + J \\ \varphi_b \left( \frac{1}{r_2} + \frac{1}{r_3} + \frac{1}{r_4} \right) - \varphi_a \frac{1}{r_2} - \varphi_c \frac{1}{r_3} = -J \\ \varphi_c \left( \frac{1}{r_1} + \frac{1}{r_3} + \frac{1}{r_6} \right) - \varphi_a \frac{1}{r_1} - \varphi_b \frac{1}{r_3} = E_1 \frac{1}{r_1} + E_6 \frac{1}{r_6} \end{array} \right. \quad (5.11)$$

Boshqa shaklda quyidagicha ifodalanadi:

$$\left\{ \begin{array}{l} \varphi_a (g_1 + g_2 + g_5) - \varphi_b g_2 - \varphi_c g_1 = -E_1 g_1 + J \\ \varphi_b (g_2 + g_3 + g_4) - \varphi_a g_2 - \varphi_c g_3 = -J \\ \varphi_c (g_1 + g_3 + g_6) - \varphi_a g_1 - \varphi_b g_3 = E_1 g_1 + E_6 g_6 \end{array} \right. \quad (5.12)$$

Ushbu tenglama tugunlar tenglamasi deyiladi.

### Tugunlar potensiali usuli bo'yicha hisoblash tartibi

- Sxemadagi biron bir tugun potensiali NOLGA teng deb olinadi.
- Noma'lum bo'lgan tugunlar uchun tugunlar tenglamalari yozib chiqiladi.
- Tenglamalar tizimi yechiladi va noma'lum tugunlar potensiali aniqlanadi.
- Shoxobchalarda toklar yo'nalishi aniqlanadi va Om qonuniga asosan ular qiymatlari aniqlanadi.
- Agar sxemada qarshiliksiz EYUk manbasi bo'lsa, u holda, shu manba ulangan boshqa shoxobcha tugunini NOLGA teng deb olinadi va boshqa shoxobcha tugunlari hisoblanadi, lekin bu shoxobcha uchun **tenglama tuzilmaydi**.


### 5.4. O'zgarmas tok zanjirining potensial diagrammasi

Har qanday O'ZGARMAS tok zanjiri uchun potensiallar diagrammasini tuzish mumkin.

Yopiq kontur yoki elektr zanjiring biron bir uchastkasi bo'ylab potensialarning grafik taqsimotiga potensiallar diagrammasi deyiladi. Grafikning absissa o'qiga zanjirning qarshiligi, ordinata o'qiga esa potensial joylashtiriladi.

Elektr zanjirining potensialini aniqlash uchun zanjirning biron bir tugunini (nuqtasini) NOLGA teng deb olamiz.


Zanjirning ushbu qismi uchun Om qonuni, ya'ni "a" nuqtaning potensiali "b" nuqtaning potensialidan  $U_{ab}$  miqdorgacha katta. Demak, tok potensial katta bo'lgan nuqtadan potensial kichik bo'lgan nuqta tomonga oqadi. Potensial diagramma tuzish vaqtida aynan shu holat e'tiborga olinadi.



5.7-rasm.


$$I = \frac{U_{ab}}{R} = \frac{\varphi_a - \varphi_b}{R}; \quad IR = \varphi_a - \varphi_b; \quad \varphi_a = \varphi_b + IR. \quad (5.13)$$

Agar elektr zanjir qismida EYuK bo'lsa, tok yo'nalishi EYuK yo'nalishiga mos kelsa "a" "b" nuqtalar potensiali EYuK miqdoricha oshadi, agar mos kelmasa shu miqdorchcha kamayadi.



5.8-rasm.

5.10 Rasmda ko'rsatilgan bir konturli elektr sxemasi uchun potensial diagrammasini tuzamiz.




5.9-rasm.

Potensial diagrammada ordinata o'qi bo'yicha konturning potensial nuqtalari joylashadi, absissa o'qi bo'yicha nuqtalar o'rtaidagi qarshilik joylashadi. "a" nuqta potensialini NOLga teng deb olamiz, ya'ni  $\varphi_a = 0$ . U holda qolgan nuqtalar potensiali quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned} \varphi_k &= \varphi_a + E_3 = E_3 \\ \varphi_d &= \varphi_f - E_2 \quad \text{yoki} \quad \varphi_f = \varphi_k + IR_3 \\ \varphi_b &= \varphi_c + IR_1 \quad \varphi_c = \varphi_d + IR_2 \\ &\varphi_b = \varphi_a + E_1 = E_1 \end{aligned} \quad (5.14)$$

Yuqorida keltirilgan bir konturli sxema uchun potensial diagrammasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:



5.10-rasm.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Elektr sxemalarini ekvivalent usuli bilan almashtirish.
2. Ekvivalent usulini misollar bilan tuguntirish.
3. Kontur toklar usuli, ma'nosi.
4. Kontur toklar usulini bajarish tartibi.
5. Tugun potensiali usuli, ma'nosi.
6. Tugun potensiali usulini bajarish tartibi.
7. Elektr konturi uchun potensial diagrammasini tuzish.

## VI bob. O'ZGARUVCHAN TOK. SINUSOIDAL TOK. SINUSOIDAL TOKNI XARAKTERLOVCHI MIQDORLAR

### 6.1. O'zgaruvchan tok

Vaqt bo'yicha o'zgaruvchan tok miqdoriga O'zgaruvchan tok deb ataladi.

Har qanday vaqt oralig'idagi tok miqdori ONIY TOK deb ataladi va i harfi bilan belgilanadi. Oniy qiymatlari aniq vaqt birligida va bir xil ketma-ketlikda qaytariladigan toklar DAVRIY deb ataladi.

Elektr zanjirlarining davriy jarayonlarida sinusoidal rejim asosiy o'rinni tutadi. Bu rejimda tok va kuchlanishlar bir xil chastotali sinusoidal funksiyalar hisoblanadi.

### 6.2. Sinusoidal tok


Qiymatlari Sinusoidal qonun asosida o'zgaruvchan tok (kuchlanish) GARMONIK TOK (KUCHLANISH) deb ataladi.

Garmonik signalning asosiy xususiyatlaridan biri garmonik signalning shakli faqat bitta (bir xil)  $f=1/T$  chastotadan tashkil topgan bo'ladi.

Garmonik signallardan shakli boshqa bo'lgan signallar har xil chastotalardan tashkil topgan bo'ladi. Garmonik signallar yordamida energiyani uzatish ancha qulay, lekin garmonik signallar yordamida axborotlarni uzatib bo'lmaydi.

SINUSOIDAL TOK quyidagicha ifodalanadi (6.1-rasm):

$$i = I_m \sin\left(\frac{2\pi}{T}t + \varphi\right) = I_m \sin(\omega t + \varphi) \quad (6.1)$$



6.1-rasm.

Har qanday sinusoidal TOK AMPLITUDA, BURCHAK CHASTOTASI va BOSHLANG'ICH FAZA orqali xarakterlanadi.

Sinusoidal toklar chastotasining ishlatalishi juda keng (Gs dan to milliard Gs gacha).

Masalan, barcha MDH davlatlarida va Yevropaning ba'zi mamlakatlarida sinusoidal tok chastotasi 50 Gs deb olinadi. AQSH esa 60 Gs deb olingan.

Funksiyaning maksimal qiymatiga AMPLITUDA deb ataladi. TOK Amplitudasi  $I_m$  belgilanadi.

Vaqt oralig'ida bitta to'liq tebranish DAVR deb ataladi va T bilan belgilanadi.

1 sekunda tebranishlar soniga CHASTOTA deb ataladi (chastotuning o'lchov birligi Gs (Gers) yoki Elektr tarmog'i kuchlanishning standart chastotasi 50 Gs.ga shu kuchlanishning har  $T=0,02s$ .da bir marta o'zgarishi mos keladi.

$\frac{2\pi}{T}$  miqdor fazaning o'zgarish tezligini ifodalaydi va bilan belgilanadi va u burchak chastotasi deyiladi:

$$\omega = 2\pi f = \frac{2\pi}{T}. \quad (6.2)$$

Burchak chastotasining o'lchov birligi: rad/s yoki  $s^{-1}$ .

Sinus argumenti  $(\omega t + \varphi)$  FAZA deb yuritiladi. Vaqt t birligida tebranishlar holati FAZA deb ataladi.

Faza vaqt oralig'ida o'sib boradi. Faza  $2\pi$  miqdorgacha o'zgarganda tokning o'zgarish sikli yana qaytariladi.

Bir davr T mobaynida faza  $2\pi$  miqdorga oshadi.

Sinusoidal o'zgaruchan kattaliklarning o'rtacha qiymati deb ularning yarim davr ichidagi o'rtacha qiymatlariga aytildi.

Elektr tokining o'rtacha qiymati quyidagi formula orqali ifodalanadi, ya'ni sinusoidal tokning o'rtacha qiymati tok amplitudasining Qiymatiga teng bo'ladi.

$$I_{sr} = \frac{1}{T/2} \int_0^{T/2} I_m \sin \omega t dt = \frac{2}{\pi} I_m. \quad (6.3)$$


Xuddi shunday EYuK va kuchlanishlarning o'rtacha qiymatlari:

$$E_{sr} = 2E_m / \pi; \quad (6.4)$$

$$U_{sr} = 2U_m / \pi. \quad (6.5)$$


### 6.3. Qarshilik orqali garmonik tok o'tishi

Agar qarshilikka kuchlanishni ulasak, qarshilik orqali quyidagi miqdordagi garmonik tok o'tadi:




6.2-rasm.

$$I = \frac{U}{r} = U_m / r \cos(\omega t + \psi_u) = I_m \cos(\omega t + \psi_i). \quad (6.6)$$



6.3-rasm.



6.4-rasm.

Keltirilgan grafikdan shunday xulosa qilish mumkinki, qarshilik orqali o'tayotgan tok va kuchlanishlarning fazalari bir-biriga mos keladi va bir paytda maksimum qiymatga erishadi. Fazalar bo'yicha mos kelgan TOK va KUCHLANISH bir xil ishoraga ega bo'ladi (musbat yoki manfiy).

Bu holatda fazalar bo'yicha siljish nolga teng, ya'ni:

$$\varphi = \psi_u - \psi_i = 0. \quad (6.7)$$

Qarshilik orqali tok va kuchlanish o'tar ekan Om qonuni quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$U_m = rI_m; \quad U = Ri. \quad (6.8)$$

O'tkazuvchanlik  $g = 1/r$  orqali ifodalasak quyidagi ifodani olamiz:

$$I_m = gU_m; \quad I = gU. \quad (6.9)$$

Quvvatning bir davr ichidagi o'rtacha qiymati AKTIV QUVVAT deb ataladi.

$$P = \frac{1}{T} \int_0^T p_r dt, \quad (6.10)$$

$$P = UI = RI^2. \quad (6.11)$$

O'tkazgichning qarshiligi o'zgaruvchan tokda doimiy tokdagiga qaraganda ko'proq bo'ladi (tashqi ta'sirlar oqibatida). O'zgaruvchan tokdagi o'tkazgichning qarshiligi AKTIV qarshilik deb ataladi.

### 6.4. Induktivlik orqali garmonik tok o'tishi

Induktivlik orqali quyidagi garmonik tok o'tayotgan bo'lsin:

$$i = I_m \cos(\omega t + \psi) . \quad (6.12)$$

Elektr yurituvchi kuch quyidagicha ifodalanadi:


$$e_L = -L \frac{di}{dt} = \omega L I_m \sin(\omega t + \psi) = -U_m \cos(\omega t + \psi + \frac{\pi}{2}) . \quad (6.13)$$

Induktivlikdagi kuchlanish quyidagicha ifodalanadi:

$$u_L = -e_L = U_m \cos(\omega t + \psi + \frac{\pi}{2}) . \quad (6.14)$$

Olingan formuladan shunday xulosa qilish mumkin: induktivlikdagi kuchlanish  $\frac{\pi}{2}$  burchak miqdorida tokdan ilgarilab ketmoqda.

$$\varphi = \varphi_u - \varphi_i = \frac{\pi}{2} \quad (6.15)$$



6.5-rasm.

Ushbu holat uchun Om qonuni quyidagicha aniqlanadi:

$$U_m = \omega L I_m = x_L I_m; \quad U = x_L I. \quad (6.16)$$

$x_L = \omega L$  ushbu miqdor INDUKTIV QARSHILIK deb ataladi. Unga teskari bo'lgan miqdor esa induktiv o'tkazuvchanlik deyiladi.

$$b_L = \frac{1}{\omega L}. \quad (6.17)$$

Induktivlikdagi quvvat miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$p_L = ui = -UI \sin 2(\omega t + \psi). \quad (6.18)$$

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, induktivlik orqali garmonik tok o'tganda, energiyaning manba bilan induktivlik o'rtaida tebranishi hosil bo'ladi, natijada, QUVVAT NOLGA TENG BO'LADI.


### 6.5. Garmonik tokning sig'im orqali o'tishi

Sig'im orqali kuchlanish miqdori quyidagicha bo'ladi:

$$u = U_m \cos(\omega t + \varphi). \quad (6.19)$$

Garmonik tok esa:

$$i = C \frac{du}{dt} = -\omega C U_m (\omega t + \varphi) = I_m \cos(\omega t + \varphi + \frac{\pi}{2}). \quad (6.20)$$



6.6-rasm.

Kondensator plastinkalarida elektr zaryadlarning o'zgarishi kosinusoidal qoidaga asoslanadi. Musbat va manfiy zaryadlarning plastinkalarda yig'ilishi garmonik tok miqdorining o'tishiga sabab bo'ladi.

Garmonik tokning miqdori kondensatordagi zaryadlarning o'zgarish tezligi orqali aniqlanadi, ya'ni:  $\frac{dq}{dt}$  6.20 ifoda shuni ko'ssatadiki, garmonik tok kuchlanishdan  $\frac{\pi}{2}$  burchakka ilgarilab ketgan, demak, tokning NOL qiymatiga kuchlanishning MAKSIMAL qiymati MOS keladi. Fazalar farqi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\varphi = \varphi_u - \varphi_i = -\frac{\pi}{2}. \quad (6.21)$$

Om qonuniga asosan:

$$U_m = \frac{1}{\omega C}; \quad I_m = x_C I_m; \quad U = x_C I; \quad (6.22)$$

$$x_C = \frac{1}{\omega C} \text{ sig'im qarshiligi.}$$

Bunga teskari bo'lgan  $b_C = \omega C$  qiymat sig'im o'tkazuvchanligi deyiladi. Sig'im quvvati:

$$p_c = ui = -U \sin 2(\omega t + \varphi).$$

(6.23)

6.1-jadval

Element	Umumiyo ko'rinishi	Garmonik holatda	
		Oniy qiymatlar	Aniq qiymatlar
Qarshilik 	$u = ri$ $i = gu$	$u = rI_m \cos(\omega t + \varphi)$ $i = gU_m \cos(\omega t + \varphi)$	$U = rI$ $I = gU$
Induktivlik 	$u = L \frac{di}{dt}$ $i = \frac{1}{L} \int_{-\infty}^t u dt$	$u = \omega LI_m \cos(\omega t + \varphi)$ $i = \frac{1}{\omega L} U_m \cos(\omega t + \varphi - \frac{\pi}{2})$	$U = \omega LI$ $I = \frac{1}{\omega L} U$
Sig'im 	$u = \frac{1}{C} \int_{-\infty}^t i dt$ $i = C \frac{du}{dt}$	$u = \frac{1}{\omega C} I_m \cos(\omega t + \varphi)$ $i = \omega CU_m \cos(\omega t + \varphi + \frac{\pi}{2})$	$U = \frac{1}{\omega C} I$ $I = \omega CU$

### NAZORAT SAVOLLARI

- O'zgaruvchan tok, ta'rifi.
- Sinusoidal tok, ta'rifi.
- Garmonik (tok), kuchlanish, ta'rifi.
- Sinusoidal tok amplitudasi, burchak chastotasi.
- Sinusoidal tok grafigi, boshlang'ich faza.
- Sinusoidal o'zgaruvchan kattaliklar, o'rtacha qiyatlari.
- Qarshilik orqali garmonik tok o'tishi.
- Induktivlik orqali garmonik tok o'tishi.
- Sig'im orqali garmonik tok o'tishi.

## VII bob. SINUSOIDAL FUNKSIYALARINI VEKTOR DIAGRAMMASI VA KOMPLEKS SONLAR ORQALI IFODALASH


### 7.1. Sinusoidal funksiyalarni vektor diagrammasi

Har qanday chiziqli elektr zanjirlarida, elementlar qanday bo'lishidan qat'iy nazar ular orqali o'tayotgan garmonik KUCHLANISH garmonik shakldagi TOKNI hosil qiladi. Har qanday holatlarda chiziqli elektr zanjirlariga garmonik signallar ta'sir etsa ular hosil qilgan signallar garmonik shaklida bo'ladi.

Shunday ekan, TOK va KUCHLANISHLARning ONIY qiyatlari ham garmonik shaklda bo'ladi. Agar chiziqli elektr zanjiri bir nechta elementlardan tashkil topgan bo'lsa sinusoidal grafiklar soni ko'payib ketadi va ularni tahlil qilish murakkablashadi.

Shuning uchun murakkablashgan elektr zanjirlaridagi garmonik signallar ta'sirlarini sinusoidal grafiklar orqali emas, balki VEKTOR DIAGRAMMALAR orqali tahlil qilish osonroq bo'ladi.

Vektor diagrammasida vektor uzunliklari, burchak va fazalar miqdorlari proporsional ravishda olinadi. Bizga ma'lumki, rompleks tekislikda har bir nuqta radius, ya'ni vektor orqali aniqlanadi.



7.1-rasm.

Vektoring boshlanishi koordinata o'qining boshlanish nuqtasiga to'g'ri kelsa, uning oxiri esa koordinata uchiga, ya'ni kompleks miqdorga to'g'ri keladi. Demak, bir nechta chizilgan sinusoidal grafiklar o'rniga VEKTORLAR yig'indisi garmonik signallarning elektr zanjirlar elementlariga ta'sirini ifodalaydi.


Vektor diagrammasida biron bir burchak boshlang'ich nuqtadan biron bir burchakka orqada qolayotgan bo'lsa, u holda, vektor soat strelkasi yo'nalishiga MOS HOLDA buraladi, agar ilgarilab ketayotgan bo'lsa soat strelkasiga TESKARI yo'nalishda buraladi.

**VEKTOR DIAGRAMMASI DEB** – sinusoidal o'zgaruvchan, fazalar bo'yicha bir-biriga nisbatan to'g'ri joylashgan, chastotalari bir xil qiymatga ega bo'lgan kompleks tekislikdagi vektorlar yig'indisiga atyiladi.

Yuqorida keltirilgan rasmida uchta har xil fazadagi, lekin bir xil amplitudaga ega bo'lgan diagramma ko'rsatilgan.

Ushbu grafikda birinchi kuchlanishning vektor qiymati koordinataning gorizontal o'qiga mos keladi, ikkinchi kuchlanishning vektori  $U_2$  burchakka soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha buriladi, uchinchi kuchlanishning vektor qiymati esa  $U_3$  burchakka soat strelkasi yo'nalishiga teskari tomonga burilgan bo'ladi (7.1-rasm).

Vaqt bo'yicha diagramma garmonik funksiya qiymatlarini har qanday  $u = U_m \sin \omega t$  vaqtida quyidagi tenglama orqali ko'rsatadi.




7.2-rasm.

Vektor diagrammasi orqali esa garmonik funksiya qiymatlarini ifodalash uchun garmonik funksiyani soat strelkasiga qarama qarshi yo'nalishda  $\omega$  burchak chastotasi bilan aylanayotgan vektor orqali ifodalanadi. Bunda aylanayotgan vektor proeksiyasini koordinataning vertikal o'qiga nisbatan olamiz.

Hosil bo'lgan proyeksiya xuddi yaqt diagrammasi kabi sinusoidal funksiya orqali ifodalanadi, ya'ni:

$$u = U_m \sin \omega t . \quad (7.1)$$

Bu holatda vektoring soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha aylanishi MUSBAT, soat srelkasiga qarama qarshi yo'nalishi MANFIY deb yuritiladi. Misol tariqasida vektor diagrammasi orqali kuchlanishning oniy qiymatini aniqlaymiz. Grafikning chap tomonida vektor diagramma, o'ng tomonida vaqt diagrammasi keltirilgan.



7.3-rasm.

Boshlang'ich faza burchagi NOLGA teng bo'lsin.

Bu holatda  $t = 0$  bo'lganda kuchlanishning ONIY qiymati ham NOLGA teng bo'ladi, vaqt diagrammasiga mos bo'lgan VEKTOR esa musbat yo'nalishga ega bo'lgan absissa o'qi yo'nalishiga MOS TUSHADI. Shu vektoring proeksiyasi koordinataning VERTIKAL o'qida ham NOLGA TENG bo'ladi, ya'ni vektor proeksiyasining uzunligi sinusoidaning ONIY qiymati bilan MOS TUSHADI.

$t = \frac{T}{8}$  vaqt o'tgandan keyin burchak **FAZASI 45 GRADUSGA** teng bo'ladi, kuchlanishning ONIY qiymati esa quyidagi qiymatga teng bo'ladi:

$$U_m \sin \omega t = U_m \sin 45^\circ = 0.707U_m . \quad (7.2)$$




Shu vaqt oralig'ida VEKTOR HAM  $0.707U_m$  qiymatga teng bo'ladi. Endi

$t = \frac{T}{4}$  vaqt o'tgandan keyin kuchlanishning ONIY qiymati  $U_m$  ga teng bo'ladi, vektor esa **90 gradusga BURILADI**.

Vektoring vertikal o'qqa nisbatan PROEKSIYASI vektoring o'ziga teng bo'lib qoladi, uzunligi esa kuchlanishning ONIY qiymatining MAKSIMUM qiymatiga teng bo'ladi. Xuddi shunday asosda har qanday vaqt oralig'ida kuchlanishning ONIY qiymatlarini aniqlash mumkin bo'ladi.


Xulosha qilib shuni ta'kidlash lozimki, Sinusoidal funksiyalar qiymatlarini aniqlash vaqtida ularning grafiklari orqali emas, balki ularning tasvirlari, ya'ni VEKTORLARI orqali ANIQLANADI.

Misol tariqasida quyida keltirilgan elektr zanjiri va unga mos bo'lgan vektor diagrammasi keltirilgan (7.4-rasm).




7.4-rasm.

Misol uchun: bir xil yo'nalishga ega bo'lgan vektorlarning natijaviy vektori ularning arifmetik yig'indisiga teng bo'ladi. Agar bitta koordinata o'qida joylashib teskari yo'nalishga ega bo'lsa, ular yig'indisi musbat va manfiy ishoralar bilan olinadi. Bu holatlar koordinata burchaklari 0 yoki 180 gradus bo'lgan holatlar uchun to'g'ri bo'ladi (7.5-rasm).



7.5-rasm.

Boshqa holatlar uchun quyidagi vektor diagrammasi to'g'ri bo'ladi.



7.6-rasm.

Yugoridagi jarayonni ko'rib chiqadigan bo'lsak quyidagi XULOSA QILINADI: Garmonik funksiyaning vaqt diagrammasi vektor diagrammasi bilan almashtiriladi va ularning har biri gorizontall va vertikal o'qlar bo'yicha joylashtiriladi.

Vektoring gorizontall va vertikal o'qlardagi qiymatlari hisoblab chiqiladi va NATIJAVAIV vektor va uning boshlang'ich fazasi aniqlanadi. Garmonik funksiyalar qiymatini hisoblashning bunday yo'li grafik usulga qaraganda oson tuyuladi, lekin gorizontall va vertikal o'qlardagi vektorlar qiymatini matematik ifodalalarini hisoblash ancha murakkab jarayon hisoblanadi.

## 7.2. Vektorlar ustida simvolik usulda amallar bajarish

Vektor birliklar ustida simvolik usulda amallar bajarish quyida gicha amalga oshiriladi: har bir vektor ikkita tarkibda: biri absissa o'qi bo'yicha gorizontal, ikkinchisi esa, ordinata o'qi bo'yicha vertikal o'qlariga joylashtiriladi. Bu holatda barcha vektorlar qiymatlarini gorizontall va vertikal o'qlar bo'yicha algebraik usulda qo'shishi mumkin bo'ladi. Bunday holatda bir-biri bilan 90 gradusli burchak bilan farq qiluvchi ikkita tashkil etuvchi paydo bo'ladi GORIZONTAL va VERTIKAL tashkil etuvchilar.

Demak, tashkil etuvchilar katetlar hisoblanib ularning geometrik yig'indisi gipotenuza hisoblanadi, ya'ni:

$$A = \sqrt{A_f^2 + A_B^2} \quad (7.3)$$

Elektr sxemasi murakkablashganda, ya'ni shoxobchalar va konturlar soni ko'p bo'lganda trigonometrik va vektor diagramma usullari orqali garmonik funksiya parametrlarini hisoblash ancha murakkablashadi.


Shuning uchun ham doimiy tok zanjirlarini hisoblash uchun odiyy usul kerak bo'ladi, shunday usulni amerikalik olimlar (1893-1894 yillari A. ye. Kenneli va P. Ch. Shteynmetsoqlar) tomonidan KOMPLEKS AMPLITUDA USULI yaratildi.

Ushbu usul garmonik funksiya o'z o'qi atrofida aylanayotgan vektoring proeksiyasiga asoslangan bo'lib, aylanayotgan vektor analitik ifoda bo'lib KOMPLEKS SHAKLDA ifodalanadi. Kompleks sonlarni tasvirlovchi kompleks tekislikda Kompleks sonlar HAQIQIY va MAVHUM qismlarga bo'linadi. Absissa o'qiga HAQIQIY miqdorlar, ordinata o'qiga esa MAVHUM miqdorlar joylashtiriladi.

MAVHUM va HAQIQIY qismlardan tashkil topgan sonlar KOMPLEKS SONLAR, ular ustida bajariladigan hisoblash USULLARI SIMVOLIK USULI deb ataladi.

Haqiqiy miqdorlar o'qiga +1, mavhum miqdorlar o'qiga esa  $+j(j = \sqrt{-1})$  kattaliklar qo'yiladi.

Kompleks sonlarni ifodalovchi Vektor diagramma quyidagi ko'rinishda bo'ladi:



7.7-rasm.

Matematika kursidan bizga ma'lumki LEONARDO EYLER (1707 – 1783) formulasi quyidagicha ifodalanadi.

$$e^{j\alpha} = \cos \alpha + j \sin \alpha . \quad (7.4)$$

Bu formuladagi  $e^{j\alpha}$  ifoda kompleks tekislikdagi vektor hisoblanib son jihatdan birga teng bo'ladi va HAQIQIY miqdorlar o'qi bilan  $\alpha$  burchak hosil qiladi.

$\alpha$  burchak HAQIQIY miqdorlar o'qidan soat strelkasi yo'naliishiga teskari yo'naliish bo'yicha hisoblanadi.

U holda funksiyaning MODULI quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$|e^{j\alpha}| = \sqrt{\cos^2 \alpha + \sin^2 \alpha} = 1 . \quad (7.5)$$

$e^{j\alpha}$  - funksiyaning HAQIQIY miqdorlar o'qidagi proeksiyasi  $\cos \alpha$  ga teng bo'lsa, MAVHUM miqdorlar  $\sin \alpha$  o'qidagi proeksiyasiga teng bo'ladi.

Agar o'mniga qo'yilsa, u holda quyidagi ifoda hosil bo'ladi:

$$I_m e^{j\alpha} = I_m \cos \alpha + j I_m \sin \alpha \quad (7.6)$$

$$I_m e^{j(\omega t + \psi)} = I_m \cos(\omega t + \psi) + j I_m \sin(\omega t + \psi) \quad (7.7)$$

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Garmonik funksiyalarni vaqt diagrammasi orqali ifodalash (tasvirlash).
2. Garmonik funksiyalarni vektor diagrammasi orqali tasvirlash.
3. Garmonik funksiyalar ustida simvolik usulda amallar bajarish.
4. Kompleks sonlar.

## VIII bob. KOMPLEKS IFODALAR. KOMPLEKS SONLAR USTIDA AMALLAR BAJARISH

Agar quyida keltirilgan formulada:

$$\alpha = \omega t + \psi \quad (8.1)$$

teng bo'lsa, u holda:

$$I_m e^{j(\omega t + \psi)} = I_m \cos(\omega t + \psi) + j I_m \sin(\omega t + \psi). \quad (8.2)$$

Ushbu formulada birinchi qo'shiluvchi funksiyaning HAQIQIY qismi hisoblanadi va  $R_e$  koeffitsyent bilan belgilanadi.

$$I_m \cos(\omega t + \psi) \quad (8.3)$$

U holda quyidagi formulani olamiz:

$$I_m \cos(\omega t + \psi) = R_e I_m e^{j(\omega t + \psi)}. \quad (8.4)$$


Ikkinci qo'shiluvchi esa funksiyaning MAVHUM qismi hisoblanadi va  $I_m$  ifoda bilan belgilanadi.

$$j I_m \sin(\omega t + \psi). \quad (8.5)$$

U holda quyidagi ifodani olamiz:


$$i = I_m \sin(\omega t + \psi) = \text{Im } I_m e^{j(\omega t + \psi)}. \quad (8.6)$$

Demak, sinusoidal qonun asosida o'zgaradigan i tokni  $\text{Im } I_m e^{j(\omega t + \psi)}$  ko'rinishda, yoki 3.3-rasmida ko'rsatilgan aylanma vektorning MAVHUM koordinata o'qiga tushgan proeksiyasi ko'rinishida ifodalash mumkin, ya'ni  $I_m e^{j(\omega t + \psi)}$ .



8.1-rasm.

### 8.1. Kompleks sonlarning haqiqiy va mavhum qismlari



8.2-rasm.

Kompleks tekislikda  $\omega t = 0$  holat uchun sinusoidal qonun bo'yicha o'zgaradigan miqdorlar uchun vektor quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$I_m e^{j(\omega t + \psi)} = I_m e^{j\psi} = I_m \quad (8.7)$$

Bu formulada,  $i_m$  – modul jihatdan  $I_m$  ga teng bo'lgan kompleks miqdor;  $\psi$  – kompleks tekislikdagi HAQIQIY miqdorlar o'qiga o'tkazilgan  $I_m$  vektor burchagi deyiladi.  $I_m$  tok miqdori  $i$  ning KOMPLEKS AMPLITUDASI deb ataladi. KOMPLEKS AMPLITUDA  $\omega t = 0$  holat uchun tokning  $i$  miqdorini kompleks tekislikdagi tasviri hisoblanadi.

Kuchlanish va tok miqdorlari ustiga NUQTA qo'yilishi ularning vaqt bo'yicha SINUSOIDAL ravishda o'zgarishlarini bildiradi. Demak,, KOMPLEKS AMPLITUDA – bu, vaqtga bog'liq bo'limgan, modul va argumenti garmonik funksiyaning amplitudasiga va boshlang'ich

fazasiga teng bo'lgan kompleks miqdor hisoblanadi. MISOL TARIQASIDA QUYIDAGILARNI KO'RIB CHIQAMIZ:

Agar KOMPLEKS AMPLITUDADAN ONIY QIYMATGA o'tish kerak bo'lsa, u holda:

$$I_m = 25e^{-j30^0} A$$

$$i = I_m 25e^{-j30^0} e^{j\omega t} = I_m 25e^{j(\omega t - 30^0)} = 25 \sin(\omega t - 30^0) \quad (8.8)$$

Agar KOMPLEKS AMPLITUDA holati uchun tok miqdorini topish kerak bo'lsa:

$$i = 8 \sin(\omega t + 20^0) A \quad I_m = 8e^{j20^0} A$$

$$I_m = 8A, \quad \psi = 20^0 \quad (8.9)$$

KOMPLEKS TOK DEB KOMPLEKS TOKNING AMPLITUDA MIQDORINI  $\sqrt{2}$  ga BO'LINGANLIK IFODASIGA AYTILADI, YA'NI:

$$I = \frac{I_m}{\sqrt{2}} = \frac{I_m e^{j\psi}}{\sqrt{2}} = I e^{j\psi} \quad (8.10a)$$

## 8.2. Kompleks sonlar ustida amallar bajarish

Kompleks sonlarni qo'shish:

Misol uchun quyidagi ikki kompleks sonlarni qo'shish kerak bo'lsin: A va B.

$$D = A + B = (A' + jA'') + (B' + jB'') = (A' + B') + j(A'' + B'') = D' + jD''$$

$$D' = A' + B', D'' = A'' + B'' \quad (8.10b)$$

MAVHUM va HAQIQIY qismlarni e'tiborga olsak:

$$D = A + B = (\operatorname{Re} A + jI_m A) + (\operatorname{Re} B + jI_m B) = (\operatorname{Re} A + \operatorname{Re} B) + j(I_m A + I_m B) = \operatorname{Re} D + jI_m D \quad (8.11)$$

Kompleks sonlarni ayirish

$$A = 5 + j3 \quad B = -9 + j13 \quad D = A - jB$$

$$D = (5 + j3) - (-9 + j13) = 5 + j3 + 9 - j13 = (5 + 9) + j(3 - 13) = 14 - j10$$

Kompleks sonlarni ko'paytirish va bo'lish

Modullar ko'paytiriladi, argumentlar esa qo'shiladi

$$A = Ae^{j\psi_A} \quad B = Be^{j\psi_B}$$

$$D = AB = Ae^{j\psi_A} \cdot Be^{j\psi_B} = ABe^{j(\psi_A + \psi_B)}$$

$$D = AB \psi_D = \psi_A + \psi_B \quad (8.12)$$

$$A = Ae^{j\psi_A} \quad B = Be^{j\psi_B}$$

$$D = AB = Ae^{j\psi_A} \cdot Be^{j\psi_B} = ABe^{j(\psi_A + \psi_B)}$$

$$D = AB \quad \psi_D = \psi_A + \psi_B \quad (8.13)$$

Bo'lishda modullar bo'linadi, argumentlar esa ayiriladi:

$$M = Me^{j\psi_M} \quad N = Ne^{j\psi_N}$$

$$P = \frac{M}{N} = \frac{Me^{j\psi_M}}{Ne^{j\psi_N}} = \frac{M}{N} e^{j(\psi_M - \psi_N)} = Pe^{j\psi_P} \quad P = \frac{M}{N}$$

$$\psi_P = \psi_M - \psi_N \quad (8.14)$$

Misol uchun, ikki kompleks sonlarni ko'paytiramiz:

$$A=1 \quad B=j1$$

$$A = A' + jA'' = A \cos\psi + jA \sin\psi = Ae^{j\psi} = \sqrt{(A')^2 + (A'')^2} \cdot e^{j \operatorname{arctg}(\frac{A''}{A'})}$$

$$A = 1 + j0 = \sqrt{1^2 + 0^2} e^{j \operatorname{arctg}(\frac{0}{1})} = 1e^{j0^0} = 1$$

$$B = 0 + j1 = \sqrt{0^2 + 1^2} e^{j \operatorname{arctg}(\frac{1}{0})} = 1e^{j \operatorname{arctg}(\infty)} = 1e^{j90^0}$$

$$A \cdot B = (1)(j1) = 1j = 1e^{j90^0} \quad (8.15)$$

Agar j va -j miqdorlarni  $A = Ae^{j\psi_A}$  Vektorga ko'paytiradigan bo'lsak, u holda quyidagi ifodalarni olamiz:

$$j = 1e^{j90^0} = e^{j90^0}; \quad -j = 1e^{-j90^0} = e^{-j90^0}$$


$$a + jb = ce^{j\psi}$$

$$c = \sqrt{a^2 + b^2} \quad \operatorname{tg} \psi = \frac{b}{a} \quad a = c \cos \psi \quad b = c \sin \psi$$

$$\text{d)} -0,2 + 0,4j \quad \text{e)} 10 - j0,8$$

$$\text{d)} = 0,448e^{j116^035'} \quad \text{e)} 10 - 0,8j = 10e^{-j4^040'} \quad (8.16)$$

## VEKTOR DIAGRAMMASI



Maksimal tok va kuchlanish qiyatlari:

$$I_m = I\sqrt{2}; \quad U_m = U\sqrt{2}; \quad I\sqrt{2} = \frac{U\sqrt{2}}{R}. \quad (8.21)$$


Rezistor orqali o'tayotgan garmonik tokning kompleks ko'rinishdagi ifodasi:

$$I = \frac{U}{R}. \quad (8.22)$$

I, U – tok va kuchlanishlarning kompleks miqdorlari.

### L – zanjirni hisoblash

Zanjir orqali o'tayotgan TOK KUCHLANISHDAN 90 GRADUSGA ORQADA QOLADI.



$$i = I_m \sin \omega t. \quad (8.23)$$

Induktiv g'altakda tok va kuchlanishning ONIY qiyatlari quyidagicha bog'langan:

$$u_L = L \frac{di}{dt} = L \frac{d}{dt} [I_m \sin \omega t]. \quad (8.24)$$

Tokning kompleks shakldagi ifodasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$I_m = I_m e^{j0^\circ} = I_m. \quad (8.25)$$

Kuchlanishning kompleks shakldagi ifodasi esa quyidagi ko'rinishda bo'ladi:


$$U_L = j\omega L I = \omega L I e^{j90^\circ}. \quad (8.26)$$

Induktiv elementning kompleks qarshiligi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$Z_L = j\omega L = \omega L e^{j90^\circ}; \quad Z_L = jX_L = j\omega L = X_L e^{j90^\circ} = \omega L e^{j90^\circ}. \quad (8.27)$$

## 8.3. Oddiy elektr zanjirlarini kompleks ifodalar orqali hisoblash

### R – zanjirni hisoblash



$$u = U_m \sin \omega t. \quad (8.17)$$

Kompleks tok qiyati:

$$I_m = \frac{U_m}{R}. \quad (8.18)$$

Tokning ONIY qiyati:

$$i = I_m \sin \omega t = \left(\frac{U_m}{R}\right) \sin \omega t. \quad (8.19)$$

Kompleks tokning maksimal qiyati:

$$I_m = \frac{U_m}{R}. \quad (8.20)$$


Tok va kuchlanishning kompleks shakldagi ifodalari quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$U_{mL} = U_{mL} e^{j0^\circ} = U_{mL};$$

$$I_{mL} = I_{mL} e^{-j90^\circ} = \frac{U_m}{X_L} e^{-j90^\circ} = \frac{U_m}{\omega L} e^{-j90^\circ} = j \frac{U_m}{X} = j \frac{U_m}{\omega L}. \quad (8.28)$$

### C – zanjirni hisoblash

ZANJIR ORQALI O'TAYOTGAN TOK KUCHLANISHDAN 90 GRADUSGA ILGARILAB KETADI



8.6-rasm.

$$u = U_m \sin \omega t$$

$$U_m = U_m e^{j0^\circ}$$

$$i = C \frac{du}{dt}$$

$$I_m = j\omega C U_m$$

$$Z_C = \frac{U_m}{I_m} = \frac{1}{j\omega C} = -j \frac{1}{\omega C} = \frac{1}{\omega C} e^{-j90^\circ} = -j X_C = X_C e^{-j90^\circ} \quad X_C = \frac{1}{\omega C}$$


$$I_m = j\omega C U_m \quad i = U_m \omega C \sin(\omega t + 90^\circ) = I_m \sin(\omega t + 90^\circ) \quad (8.29)$$

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Kompleks sonlarning haqiqiy va mavhum qismlari.
2. Kompleks amplituda, ta'rifi.
3. Kompleks qiymatdan rnos qiymatga o'tish.
4. Kompleks TOK, ta'rifi.
5. Kompleks sonlarni qo'shish.
6. Kompleks sonlarni ayirish.
7. Kompleks sonlarni bo'lish va darajaga ko'tarish.
8. Oddiy elektr zanjirlarini kompleks sonlar orqali hisoblash.

## IX bob. KOMPLEKS QARSHILIK VA O'TKAZUVCHANLIK, KIRXGOF VA OM QONUNLARINI KOMPLEKS MIQDORLAR ORQALI IFODALASH

Garmonik signal ta'sir etayotgan oddiy chiziqli elektr zanjirini ko'rib chiqamiz.



9.1-rasm.

Sxemaning kirish qismidagi garmonik TOK va KUCHLANISH garmonik funksiyalar hisoblanadi

$$i = \sqrt{2} I \cos(\omega t + \psi_i); \quad u = \sqrt{2} U \cos(\omega t + \psi_u). \quad (9.1)$$

Passiv elektr uchastkasining KOMPLEKS QARSHILIGI (KIRISH QARSHILIGI) deb kompleks amplituda kuchlanishining zanjir uchlaridagi kompleks tok amplitudasi NISBATIGA AYTILADI.

$$Z = \frac{U_m}{I_m}, \quad (9.2)$$

Bu formulada:

$$I_m = \sqrt{2} I; \quad U_m = \sqrt{2} U. \quad (9.3)$$

Kompleks QARSHILIK TOK va KUCHLANISHNING haqiqiy qiymatlarining nisbati orqali ham ifodalanadi:

$$Z = \frac{U}{I}. \quad (9.4)$$

Kompleks QARSHILIK ko'rsatkichli funksiya orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$Z = ze^{j\varphi}. \quad (9.5)$$

Algebraik shaklda esa quyidagicha ifodalanadi:

$$Z = r + jx. \quad (9.6)$$

Ushbu ifoda  $z = |Z|$  va  $\varphi$  kompleks qarshilikning, mos holda, MODULI va ARGUMENTI hisoblanadi. Kompleks amplituda va tok va kuchlanishning haqiqiy qiymatlari orqali ifodalanishi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$Z = \frac{U_m e^{j\psi_u}}{I_m e^{j\psi_i}} = \frac{U_m}{I_m} e^j (\psi_u - \psi_i) = \frac{U}{I} e^j (\psi_u - \psi_i). \quad (9.7)$$


Yuqorida keltirilgan formulalarni e'tiborga oladigan bo'lsak TO'LIQ KIRISH QARSHILIK quyidagicha ifodalanadi:

$$z = \frac{U_m}{I_m} = \frac{U}{I}. \quad (9.8)$$

Argument esa tok va kuchlanish fazalarining ayirmasiga teng bo'ladi:

$$\varphi = \psi_u - \psi_i. \quad (9.9)$$

KOMPLEKS KIRISH QARSHILIGI kompleks tekislikda joylashgan VEKTOR ko'rinishida ham tasvirlanadi:



9.2-rasm.

MAVHUM va HAQIQIY qismlarini e'tiborga olsak:

$$r = \text{Re}[Z] = z \cos \varphi; \quad x = \text{Im}[Z] = z \sin \varphi. \quad (9.10)$$

Kompleks kirish qarshiligiga teskari bo'lgan miqdor KOMPLEKS KIRISH O'TKAZUVCHANLIK deb ataladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = \frac{1}{Z}. \quad (9.11)$$

Kompleks kirish o'tkazuvchanligi ko'rsatkichli funksiya orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = \frac{1}{Z} = e^{-j\frac{\varphi}{z}} = ye^{j\nu}. \quad (9.12)$$

Ushbu ifoda  $y = |Y|$  - kompleks kirish o'tkazuvchanligining moduli hisoblanadi va KOMPLEKS TO'LIQ O'TKAZUVCHANLIK deb ataladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$y = \frac{1}{z} = \frac{I_m}{U_m} = \frac{I}{U}. \quad (9.13)$$

Kirish o'tkazuvchanligining argumenti

$$\nu = -\varphi. \quad (9.14)$$

Zanjirning kompleks o'tkazuvchanligi algebraik ko'rinishda quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = g + jb. \quad (9.15)$$

Bu yerda yuqoridagi rasmga asosan:

$$g = y \cos \nu; \quad b = y \sin \nu. \quad (9.16)$$

### 9.1. Kompleks shakldagi Om va Kirxgof qonunlari

Zanjir uchastkasining kompleks qarshiliqi va o'tkazuvchanligi zanjir uchlaridagi kompleks TOK va KUCHLANISHLARning o'zarobog'langanlik ifodalari orqali aniqlanadi. O'z o'rnida kompleks QARSHILIK va O'TKAZUVCHANLIK amplitudaga, tok va kuchlanishning boshlang'ich fazalariga bog'liq emas va ularning miqdorlari zanjir elementlari orqali aniqlanadi.

Kompleks qarshilikni va kompleks o'tkazuvchanlikni bilgan holda, hamda zanjir uchlariga quyidagi  $i = I_m$  va  $u = U_m$  Miqdordagi TOK va KUCHLANISHlar yuklatilgan bo'lsa, yuqoridagi formulalardan foyda-

langan holda shu zanjir uchastkasining noma'lum bo'lgan TOK va KUCHLANISHlarini topish mumkin:

$$U_m = ZI_m; \quad I_m = YU_m. \quad (9.17)$$

Xuddi shunday TOK va KUCHLANISHning kompleks miqdorlarini topamiz:

$$U = ZI; \quad I = YU. \quad (9.18)$$

### Kompleks shakldagi Kirxgofning birinchi qonuni.

Kompleks shakldagi KIRXGOFning birinchi qonuni ko'rيلayotgan zanjir tugunlardagi kompleks shakldagi TOKLAR o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi.

**TA'RIF:** ELEKTR ZANJIRDAGI TUGUNLARGA ULANGAN BARCHA SHOXOBCHALARDAKI TOKLARNING KOMPLEKS AMPLITUDALARINING ALGEBRAIK YIG'INDISI NOLGA TENG.

$$\sum_k I_{mk} = 0; \quad \sum_k I_k = 0. \quad (9.19)$$

k – ko'rيلayotgan shoxobchadagi tugun raqami.

### Kompleks shakldagi Kirxgofning ikkinchi qonuni.

Kompleks shakldagi KIRXGOFning ikkinchi qonuni elektr zanjir konturidagi SHOXOBCHALAR KUCHLANISHLARI o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi.

**TA'RIF:** ELEKTR KONTURIGA KIRUVCHI BARCHA SHOXOBCHALARDAKI KUCHLANISHLAR KOMPLEKS AMPLITUDALARINING ALGEBRAIK YIG'INDISI NOLGA TENG.

$$\sum_v U_{mv} = 0; \quad \sum_v U_v = 0. \quad (9.20)$$

v – ko'rيلayotgan konturga kiruvchi shoxobcha raqami.

### Kompleks shakldagi Kirxgofning ikkinchi qonuning boshqa shakldagi ta'rifi

**TA'RIF:** KONTURGA KIRUVCHI SHOXOBCHALARDAKI KOMPLEKS KUCHLANISHLARNING ALGEBRAIK YIG'INDISI SHU KONTURDAGI KOMPLEKS EYUKLARNING ALGEBRAIK YIG'INDISIGA TENG BO'LADI:

$$\sum_i U_{mi} = \sum_j E_{mj}; \quad \sum_i U_i = \sum_j E_j, \quad (9.21)$$

$U_{mi}$ ,  $U_i$  – konturga kiruvchi barcha elementlarning kompleks miqdorlari.  
 $E_{mj}$ ,  $E_j$  – ko'rيلayotgan konturdagi manbaning kompleks EYU $K$  lar miqdorlari.

Yuqorida keltirilgan kompleks shakldagi OM va KIRXGOF qonunlari yordamida har qanday elektr zanjiri parametrlarini kompleks ifodalarini hisoblash mumkin va olingan ifodalar algebraik ifodalar hisoblanadi.

TOK va KUCHLANISHNING ONIY qiymatlarini ushbu qonunlar orqali hisoblash, differensial tenglamalarga qaraganda, ancha qulay va oson hisoblanadi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Kompleks qarshilik, ta'rifi, formulasi.
2. To'liq kirish qarshiligi, formulasi.
3. Kompleks kirish qarshiligining vektor ko'rinishi.
4. Kompleks kirish o'tkazuvchpning, ta'rifi, formulasi.
5. Kompleks to'liq o'tkazuvchanlik.
6. Kompleks shakldagi Om qonuni, ta'rifi, formulasi.
7. Kompleks shakldagi Kirxgofning BIRINCHI qonuni.
8. Kompleks shakldagi Kirxgofning IKKINCHI qonuni.

## X bob. GARMONIK TOK ZANJIRLARIDA QUVVAT

VAQT BIRLIGIDA BAJARILGAN ISHGA QUVVAT DEB ATALADI.

O'zgarmas tok zanjirlarida QUVVAT quyidagi ifoda orqali aniqlanar edi:

$$P = \frac{A}{t} = UI = I^2 R = \frac{U^2}{R} = U^2 G. \quad (10.1)$$

QUVVAT o'lchov birligi sifatida ingliz kashfiyotchisi D. Watt sharafiga vatt (Vt) deb qabul qilingan.

Quvvat o'lchov birliklari

mVt (millivatt =  $10^{-3}$  Vt)

kVt (kilovatt =  $10^3$  Vt)

MVt (megavatt =  $10^6$  Vt)

**Har sekunda 1 Dj ish bajariladigan QUVVAT Vatt deb ataladi.**

Elektr zanjir qismiga o'zgaruvchan garmonik signal ta'sir etganda quyidagi QUVVAT turlari hosil bo'ladi:

- ONIY QUVVAT
- AKTIV QUVVAT (QUVVAT)
- REAKTIV QUVVAT
- TO'LIQ QUVVAT
- KOMPLEKS QUVVAT
- Endi har bir QUVVAT turlarini alohida ko'rib chiqamiz:
- Oniy QUVVAT o'zgaruvchan miqdor bo'lib quyidagi ifodaga teng bo'ladi:

$$p=ui. \quad (10.2)$$

Misol uchun, REZISTOR ulangan zanjir orqali o'tayotgan garmonik TOK va KUCHLANISH quyidagi ifodalarga teng bo'lsa

$$u = U_m \sin \omega t, \quad i = I_m \sin \omega t, \quad (10.3)$$

u holda, ONIY QUVVAT quyidagi ifodaga teng bo'ladi:

$$p = U_m I_m \cos \omega t \cos(\omega t - \varphi) = UI [\cos \varphi + \cos(2\omega t - \varphi)]. \quad (10.4)$$

Agar elektr zanjiriga faqat REAKTIV element ulangan bo'lsa (masalan, induktivlik L) va zanjir orqali quyidagi miqdordagi garmonik TOK va KUCHLANISH o'tayotgan bo'lsa, u holda ONIY QUVVAT quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{aligned} u &= U_m \sin \omega t, \quad i = I_m \sin(\omega t - 90^\circ) \\ p &= U_m I_m \frac{1}{2} [\cos(\omega t - \omega t + 90^\circ) - \cos(\omega t + \omega t - 90^\circ)] = \\ &= \frac{1}{2} U_m I_m [\cos 90^\circ - \cos(2\omega t - 90^\circ)] = \\ &= \frac{1}{2} U \sqrt{2} I \sqrt{2} [\cos(2\omega t + 90^\circ)] = UI \cos(2\omega t + 90^\circ) \end{aligned} \quad (10.5)$$

Agar elektr zanjiri qarshilik va induktivliklardan tashkil topgan bo'lsa (ya'ni R, L) va zanjir orqali quyidagi miqdordagi garmonik TOK va KUCHLANISH o'tayotgan bo'lsa:

$$\begin{aligned} u &= U_m \sin \omega t, \quad i = I_m \sin(\omega t - \varphi) \\ p &= U_m I_m \frac{1}{2} [\cos(\omega t - \omega t + \varphi) - \cos(\omega t + \omega t - 90^\circ)] = \\ &= U \sqrt{2} I \sqrt{2} [\cos \varphi - \cos(2\omega t - 90^\circ)] = UI \cos \varphi + UI \cos(2\omega t + 90^\circ). \end{aligned} \quad (10.6)$$

### 10.1. Aktiv quvvat

Aktiv quvvat deb bir davr T mobaynidagi oniy P quvvatning o'rtacha qiymatiga aytildi va quyidagicha ifodalanadi:

$$P = \frac{1}{T} \int_0^T p dt = \frac{1}{T} \int_0^T uidt. \quad (10.7)$$

Agar zanjir qismidan quyidagi miqdordagi tok va kuchlanishlar o'tsa  
 $i = I_m \sin \omega t;$        $u = U_m \sin(\omega t + \varphi).$       (10.8)

u holda, aktiv quvvat:

$$P = \frac{1}{T} \int_0^T I_m U_m \sin \omega t \sin(\omega t + \varphi) dt = \frac{U_m I_m}{2} \cos \varphi = UI \cos \varphi. \quad (10.9)$$

Aktiv quvvat deganda bir vaqt birligida qarshilik ulangan elektr zanjirida uzatiladigan issiqliq energiyasini ifodalaydi. Agar quyidagi ko'paytmani e'tiborga olsak:

$$U \cos \varphi = IR. \quad (10.10)$$

U holda,

$$P = UI \cos \varphi = I^2 R. \quad (10.11)$$

Aktiv quvvatning o'lchov birligi  $V_t$  hisoblanadi.

## 10.2. Reaktiv quvvat

REAKTIV QUVVAT TOK va KUCHLANISHLAR hamda ular o'rtaqidagi sinus burchagi ko'paytmasiga teng bo'ladi:

$$Q = UI \sin \varphi. \quad (10.12)$$

Reaktiv quvvat o'lchov birligi ( $V_Ar$ ) hisoblanadi va quyidagi shart bajariladi:

$$\sin \varphi > 0 \text{ unda } Q > 0 \quad \text{agar} \quad \sin \varphi < 0 \text{ unda } Q < 0.$$

## 10.3. To'liq quvvat


To'liq quvvat TOK va KUCHLANISHLARNING haqiqiy qiymatlari ko'paytmasiga teng bo'ladi:

$$S = UI \quad (10.13)$$

o'lchov birligi ( $B \cdot A$ ) hisoblanadi. AKTIV, TO'LIQ va REKATIV QUVVAT birliklari o'zaro quyidagi ifoda orqali boylanadi:

$$P^2 + Q^2 = S^2. \quad (10.14)$$

Grafik orqali boshlanishi esa quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi. Bu rasmida AKTIV va TO'LIQ quvvatlar uchburchakning katetlari hisoblanasa, REAKTIV quvvat uchburchakning gipotenuzasiga to'g'ri keladi.



10.1-rasm.

## 10.4. Kompleks quvvat

Zanjirning kompleks quvvati quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$P_S = P_S e^{j\varphi}. \quad (10.15)$$

Trigonometrik shaklda quyidagicha ifodalanadi:

$$P_S = P_S \cos \varphi + j P_S \sin \varphi. \quad (10.16)$$

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, uning HAQIQIY qismi AKTIV QUVVAT, MAVHUM qismi esa REAKTIV quvvatdan tashkil topgan.

$$\operatorname{Re}[P_S] = P_S \cos \varphi = P_A, \quad \operatorname{Im}[P_S] = P_S \sin \varphi = P_Q. \quad (10.17)$$

**Demak, KOMPLEKS QUVVAT:**

$$P_S = P_A + j P_Q. \quad (10.18)$$

Endi yuqoridagi formulalarni hisobga olgan holda AKTIV, REAKTIV, TO'LIQ va KOMPLEKS quvvatlarni misollar orqali hisoblaymiz. Misol uchun quyidagi miqdordagi TOK va KUCHLANISH elektr zanjiridan o'tayotgan bo'lsa:

$$u = \sqrt{2} \cdot 120 \cos(314t + 20^\circ), B \quad (10.19)$$

$$i = \sqrt{2} \cdot 6,8 \cos(314t - 51^\circ), mA \quad (10.20)$$

TOK, KUCHLANISH va FAZALAR miqdorlari berilgan bo'lsa:

$$I = I e^{j\psi_i} = 6,8 \cdot 10^{-3} e^{-j51^\circ}, A; \quad (10.21)$$

$$U = U e^{j\psi_u} = 120 e^{j20^\circ}, B; \quad (10.22)$$

$$\varphi = \psi_u - \psi_i = 71^\circ. \quad (10.23)$$

$$P_S = UI = 120 \cdot 6,8 \cdot 10^{-3} = 0,816B \cdot A \quad (10.24)$$

$$P_A = UI \cos \varphi = 0,816 \cos 71^0 = 0,266Bm \quad (10.25)$$

$$P_Q = UI \sin \varphi = 0,816 \sin 71^0 = 0,772sap \quad (10.26)$$

$$P_S = UI = 120e^{j20^0} 6,8 \cdot 10^{-3} e^{j51^0} = 0,816e^{j71^0} B \cdot A \quad (10.27)$$

### 10.5. Quvvat muvozanati

N ta kuchlanish manbasidan va M ta tok manbasidan, hamda H ta passiv elementlardan tashkil topgan elektr zanjirida QUVVAT muvozanatini ko'rib chiqamiz.

$i_k$ ,  $u_k$  - k elementli zanjirdagi TOK va KUCHLANISH hisoblanadi. Energiyaning saqlanish qonuniga asosan vaqt oralig'ida barcha elementlarning oniy quvvatlari yig'indisi NOLGA TENG.

$$\sum_{k=1}^{N+M+H} p_k = \sum_{k=1}^{N+M+H} u_k i_k = 0. \quad (10.28)$$

Bir nechta o'zgartirishlardan keyin quyidagi ifodani olamiz:

$$-\sum_{k=1}^{N+M} p_k_{ucm} = \sum_{k=1}^H p_k_{nopm}. \quad (10.29)$$

Ushbu formula ONIY QUVVATNING MUVOZANAT TENG-LAMASI deb ataladi. Ushbu formulada MINUS ishorasi energiyaning boshqa elementlarga uzatilish tezligini bildiradi. Demak, BARCHA MANBALARDAN uzatilayotgan oniy QUVVATLAR yig'indisi boshqa MANFALAR qabul qilayotgan ONIY QUVVATLAR yig'indisiga TENG. Xuddi shunday KOMPLEKS quvvat muvozanati ifodalanadi:

$$-\sum_{k=1}^{N+M} P_{S_k}_{ucm} = \sum_{k=1}^H P_{S_k}_{nopm}. \quad (10.30)$$

Ushbu ifoda kompleks quvvatlar muvozanat TENGLAMASI deb ataladi.

AKTIV ELEMENTLAR UZATA YOTGAN KOMPLEKS QUVVATLAR YIG'INDISI, PASSIV ELEMENTLAR KOMPLEKS QUVVATLAR YIG'INDISIGA TENG.

### NÄZÖRÄT SAVOLLARI

1. Quvvat ta'rifi, o'lcov birligi.
2. Quvvat turlari.
3. Oniy va aktiv quvvat, formulasi.
4. To'liq va reaktiv quvvat, formulasi.
5. Kompleks quvvat, formulasi.
6. Quvvat muvozanati, formulasi, ta'rifi.
7. Kompleks quvvat muvozanati, ta'rifi, formulasi.

## XI bob. PARALLEL TEBRANISH KONTURI. TOK REZONANSI


Energiya manbasiga elementlarning ulanish turiga qarab tebranish konturlari KETMA-KET (energiya manbasi induktivlik va sig‘imga ketma ket ulagan) va PARALLEL tebranish konturlariga bo‘linadi (energiya manbasi reaktiv elementlarga paralel ulagan).

O‘z o‘rnida TOK REZONANSI induktivlik va sig‘imlar paralel ulagan elektr zanjirlarida kuzatiladi.

Radiotexnikada bunday konturlar PARALLEL TEBRANISH KONTURLARI deb ataladi.

TOK rezonansi holati elektr zanjirining bir qismidagi induktiv o‘tkazuvchanlik zanjirining boshqa qismidagi paralel ulagan sig‘im o‘kazuvchanligi bilan qoplanadi (kompensiruetsha).

Natijada, zanjirning uchlaridagi REAKTIV o‘tkazuvchanlik va REAKTIV quvvat NOLGA teng bo‘ladi. TOK rezonansi hodisasini Parallel ulagan oddiy tebranish konturi orqali tahlil qilinadi:



11.1-rasm.

Bunday sxemada KOMPLEKS QARSHILIK quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = g - jb = g - j\left(\frac{1}{\omega L} - \omega C\right). \quad (11.1)$$

REZONANS chastota esa quyidagicha ifodalanadi:

$$\omega_0 = \frac{1}{\sqrt{LC}}. \quad (11.2)$$


Ko‘rilayotgan konturning ASLLILIGI ketma ket tebranish konturining miqdoriga teskari bo‘lgan miqdor orqali ifodalanadi:

$$Q = \omega_0 \frac{CU_m^2}{2 \frac{U^2}{r}}. \quad (11.3)$$

REZONANS holatida manbadan kelayotgan TOK quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{I}{I_0} = \frac{YE}{gY} = \frac{Y}{g} = \frac{I}{I_0} e^{-j\varphi}. \quad (11.4)$$

TOK rezonansida parallel tebranish konturida konturning TO‘LIQ O‘TKAZUVCHANLIGI MINIMUM qiymatga teng bo‘ladi, ya’ni KIRISH QARSHILIGI MAKSIMAL qiymatga teng bo‘ladi.



Bu holatda manbadan kelayotgan TOK kam miqdorga teng bo‘ladi, ya’ni:

$$I_0 = gE. \quad (11.5)$$

Induktiv va sig‘im elementlaridagi TOKlar miqdor jihatdan TENG, lekin ishoralari bir-biriga qarama qarshi ifodalanadi.

$$I_{C_0} = -I_{L_0} = j\omega_0 CE = jI_0 Q. \quad (11.6)$$

Olingan oxirgi formuladan ko‘rinadaki parallel tebranish konturining ASLLILIGI induktivlik va sig‘im elementlaridagi toklarga va umumiy (yig‘indi) tok miqdorlariga nisbatan KARRALI (butun sonlarga bo‘linuvchi) qiymatga teng bo‘ladi.

Konturning aslliligi birdan katta bo‘lsa, ya’ni  $Q > 1$  konturdagi toklar miqdor jihatdan umumiy tok miqdoridan oshib ketadi, shuning uchun ham parallel tebranish konturlaridagi rezonans holati TOK REZONANSI deb yuritiladi.

TOK rezonansi holatida konturda induktiv va sig' im elementlari o'rtasida energiyaning uzlusiz almashinuvi sodir bo'ladi. Agar paralel tebranish konturi bir-biriga parallel ulangan induktiv va sig' im elementlaridan tashkil topgan bo'lsa edi uning kirish qarshiligi juda katta miqdorga ega bo'lar edi va manbadan TOK konturga kelmay qolar edi.


Konturdagi birlamchi energiya miqdori sarflanmas edi va magnit va elektr maydonlari o'rtasida navbat bilan taqsimlanib borar edi. Manbani tokdan uzib qo'yilsa konturdagi tebranish holati cheksiz davom etib borgan bo'lar edi.

**BUNDAY KONTUR IDEAL KONTUR** deb ataladi, chunki parallel ulangan induktivlik va sig' im elementdaridagi energiya yo'qotilishini e'tiborga olmaydi.

### Parallel tebranish konturi turlari

Faraz qilaylik, paralel tebranish kontur shoxobchasi parallel ulangan ikkita KOMPLEKS qarshiliklardan tashkil topgan bo'lsin:

$$Z_1 = r_1 + jx_1 \quad \text{ba} \quad Z_2 = r_2 + jx_2 . \quad (11.7)$$




11.3-rasm.

Reaktiv qarshiliklarning  $x_1$  va  $x_2$  o'zgarishlariga qarab 3(UCh) xil TURDAGI parallel TEBRANISH konturlari bo'ladi:

**Birinchi turdag'i tebranish konturi:**

Konturning bir shoxobchasida induktivlik, ikkinchi shoxobchasida esa sig' im elementlari ulangan tebranish konturi.




11.4-rasm.

Bunday holatda induktivlik va sig' im elementlarida reaktiv qarshiliklar quyidagi formulalar orqali ifodalanadi:

$$x_1 = \omega L ; \quad x_2 = -\frac{1}{\omega C} . \quad (11.8)$$

**Ikkinci turdag'i parallel konturda bir shoxobchada induktivlik, ikkinchi shoxobchada esa induktivlik va sig' im elementlari ulangan bo'ladi:**



11.5-rasm.

Bu holatda reaktiv qarshiliklar quyidagicha ifodalanadi:

$$x_1 = \omega L_1 \quad x_2 = \omega L_2 = -\frac{1}{\omega C} . \quad (11.9)$$

**Uchinchi turdag'i parallel tebranish konturida esa, bir shoxobchada sig' im elementi ulangan bo'lsa, ikkinchi shoxobchada induktivlik va sig' im elementlari ulangan bo'ladi.**



11.6-rasm.

Bunday holatda konturning reaktiv qarshiliklari quyidagicha ifodalanadi:

$$x_1 = \omega L - \frac{1}{\omega C_1}; \quad x_2 = -\frac{1}{\omega C_2}. \quad (11.10)$$

Parallel konturlarda KIRISH O'TKAZUVCHANLIGI quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$Y = \frac{1}{Z_1} + \frac{1}{Z_2} = \frac{1}{r_1 + jx_1} + \frac{1}{r_2 + jx_2} = \frac{r_1 - jx_1}{r_1^2 + x_1^2} + \frac{r_2 - jx_2}{r_2^2 + x_2^2} = g - jb. \quad (11.11)$$

Aktiv o'tkazuvchanlik esa quyidagicha ifodalanadi:

$$g = \frac{r_1}{r_1^2 + x_1^2} + \frac{r_2}{r_2^2 + x_2^2}. \quad (11.12)$$

Reaktiv o'tkazuvchanlik esa quyidagicha ifodalanadi:

$$b = \frac{x_1}{r_1^2 + x_1^2} + \frac{x_2}{r_2^2 + x_2^2}. \quad (11.13)$$

Rezonans shartiga ko'ra:  $b=0$  bo'lsa u holda:

$$x_1(r_2^2 + x_2^2) + x_2(r_1^2 + x_1^2) = 0. \quad (11.14)$$

Yuqoridagi ifodalarni inobatga olgan holda konturning rezonans O'TKAZUVCHANLIGI:

$$Y_0 = g_0 = \frac{r_1}{r_1^2 + x_1^2} + \frac{r_2}{r_2^2 + x_2^2}. \quad (11.15)$$

Yuqoridagi formulaga asosan:

$$\frac{1}{r_2^2 + x_2^2} + \frac{x_1}{x_2(r_1^2 + x_1^2)} \quad (11.16)$$

Shunga asosan:

$$g_0 = \frac{r_1 - \frac{r_2 x_1}{x_2}}{r_1^2 + x_1^2}. \quad (11.17)$$

Rezonansga yaqin bo'lgan holatda:

$$r_1 \ll |x_1| \quad \text{ba} \quad r_2 \ll |x_2|. \quad (11.18)$$

REZONANS SHARTIGA ASOSAN:

$$x_1 x_2^2 + x_2 x_1^2 \approx 0, \quad (11.19)$$

yoki:

$$x_1 \approx -x_2. \quad (11.20)$$

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Parallel tebranish konturlari.
2. Tok rezonansi.
3. Parallel tebranish konturlarida konturning aslliligi.
4. Kompleks qarshilik va rezonans chastota formulalari.
5. Induktiv va sig'im toklari, formulalari.
6. Parallel tebranish konturi aslliligi, formulasi.
7. Parallel tebranish konturi turlari.
8. Rezonans holati sodir bo'lish sharti.


## XII bob. DAVRIY FUNKSIYALARING GARMONIK TARKIBLARGA YOYILISHI

Garmonik signallardan farq qiluvchi barcha davriy signallar (tok va kuchlanish) NOGARMONIK SIGNALLAR deb ataladi. Har qanday nogarmonik signallar o'zlarining davri  $T$ , tok va kuchlanishlarning shakli va amplitudalar qiyatlari ( $U_a$ ,  $I_a$ ) bilan farq qiladi.

Nogarmonik signallarning bir nechta turlari mayjud, ularni tahlil qilish uchun bir qancha usullar ishlab chiqilgan.

Nogarmonik signallarning shaklidan qatiy nazar garmonik signallarning (sinusoidal va kosinusoidal) shunday shakllari olinadiki, ularning chastotalari, boshlang'ich fazalari, amplitudalarining ordinata o'qidagi qiyatlarning algebraik yig'indilari, har qanday vaqtida, chiqishdagi nosinsuoidal signalning ordinata o'qidagi qiyatiga teng bo'ladi.

Masalan, 10.1-rasmdagi 1 kuchlanishni 2 va 3 kuchlanishlar bilan almashtirish mumkin, chunki  $U_1$  va  $U_2$  kuchlanishlarning oniy qiyatlari yig'indisi  $U$  kuchlanishga teng.



12.1-rasm.

Endi garmonik signalning boshlang'ich fazasini, amplitudasini va chastotasini, qanday qilib NOGARMONIK signalga almashtirish orqali aniqlashni ko'rib chiqamiz.

Rasmda ko'rsatilgan NOGARMONIK signal tarkibini aniqlash uchun har qanday ko'rinishdagi sinusoidal signallar olinmaydi, faqat CHASTOTALARI quyidagi ko'rinishdagi qiyatlarga teng bo'lgan signallar olinadi, ya'ni KARRALI bo'lgan qiyatlari:

$$\frac{1}{T} = \frac{1}{10^3} = 10^3 \Gamma_u = 1k\Gamma_u \quad (12.1)$$

Garmonik signal davri  $T$  nogarmonik signal davriga teng bo'lsa, shu nogarmonik signalning BIRINCHI yoki ASOSIY garmonik tarkibi deb ataladi.

Qolgan hamma garmonik tarkiblar signallarning OLIY GARMONIKALARI deb yuritiladi.

Chastotasi asosiy garmonikadan IKKI marta katta bo'lgan garmonik signallar "IKKINCHI" garmonika, UCH marta katta bo'lsa "UCHINCHI" garmonika deb yuritiladi.

Har qaysi garmonika boshlang'ich fazasi NOLGA teng bo'imagan chastotalali garmonikadan, yoki boshlang'ich fazasi NOLGA teng bo'lgan sinusoidal garmonikalardan tashkil topgan bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar quyidagi formulalar orqali ifodalanadi:

$$A_m \sin(\omega t + \psi) = A_m \cos \psi \sin \omega t + A_m \sin \psi \cos \omega t = A'_m \sin \omega t + A''_m \cos \omega t$$

Bu ifodada:

$$A'_m = A_m \cos \psi; \quad A''_m = A_m \sin \psi. \quad (12.2)$$

Amaliyotda birinchi navbatda har qaysi garmonik signalning sinusoidal amplitudasini  $A'_m$  va kosinusoidal amplitudasini  $A''_m$  aniqlab olinadi.

Keyin esa asosiy garmonik signalning UMUMIY signal amplitudasini va boshlang'ich fazalari aniqlanadi, ya'ni

$$A_{mk} = \sqrt{(A'_m k)^2 + (A''_m k)^2}; \quad \psi_k = \arctg \frac{A''_m k}{A'_m k}. \quad (12.3)$$

Sinusoidal va kosinusoidal signallarning amplitudalari tarkibiy qismlarini:

$$A'_m; \quad A''_m. \quad (12.4)$$

Matematikadan aniq bo'lgan FURE qatorlari koeffitsentlarini aniqlash formulasi orqali aniqlanadi.

SINUSOIDAL va KOSINUSOIDAL garmonik signallar FURE qatorlari orqali quyidagicha ifodalanishi:

$$A'_{mk} = \frac{2}{T} \int_0^T f(t) \sin k\omega_1 t dt; \quad A''_{mk} = \frac{2}{T} \int_0^T f(t) \cos k\omega_1 t dt. \quad (12.5)$$

Bu ifodada:

$k$  – garmonik qator raqami;

$f(t)$  – garmonik qator aniqlanadigan matematik ifoda;

$T$  – nogarmonik signal davri;

$\omega_1$  – nogarmonik signalning birnchi garmonikasining burchak chastotasi

$$\omega_1 = \frac{2\pi}{T}. \quad (12.6)$$


Shunday qilib, har qanday davriy nogarmonik signalning oniy qiyamatlarini garmonikani tashkil etuvchi doimiy qiyatlar yig'indilarini FURE QATORLARI ORQALI MATEMATIK ifodalash mumkin.

Agar nogarmonik signalning oniy kuchlanishi quyidagi qiyamatga teng bo'lsa:  $u(t)$  u holda bunday nogarmonik kuchlanishni FURE qatorlari orqali quyidagicha ifodalaymiz:

$$\begin{aligned} u(t) = & U_0 + U_{m_1} \sin(\omega_1 t + \psi_1) + U_{m_2} \sin(2\omega_1 t + \psi_2) + \\ & + U_{m_3} \sin(3\omega_1 t + \psi_3) + \dots + U_{m_k} \sin(k\omega_1 t + \psi_k) = U_0 + U_{m_1} \sin \omega_1 t + \\ & + U_{m_2} \sin 2\omega_1 t + \dots + U_{m_k} \sin k\omega_1 t + U_{m_1} \cos \omega_1 t + \\ & + U_{m_2} \cos 2\omega_1 t + \dots + U_{m_k} \cos k\omega_1 t. \end{aligned} \quad (12.7)$$

Endi bir nechta signallarning FURE qatoriga yoyilganda xosil bo'lgan chizmalarini ko'ramiz:


**SINUSOIDAL chizma**, qatorga yoyilganda "OLIY GARMONIK" signal amplitudasi NOLGA TENG BO'LADI:



12.2-rasm.

$$u = U_m \sin \omega_1 t. \quad (12.8)$$


**Signalning Uchburchak Shaklidagi Chizmasi:**



12.3-rasm.

$$u = \left[ \frac{8U_m}{\pi^2} \right] \left( \sin \omega_1 t - \frac{1}{9} \sin 3\omega_1 t + \frac{1}{25} \sin 5\omega_1 t + \dots + \frac{1}{k^2} \cdot \sin k\omega_1 t \right) \quad (12.9)$$


**Signalning To'Rtburchak Shaklidagi Chizmasi:** bu ifodada  $k$  – butun juft son.



12.4-rasm.

$$u = \left[ \frac{4U_m}{\pi} \right] \left( \sin \omega_1 t + \frac{1}{3} \sin 3\omega_1 t + \frac{1}{5} \sin 5\omega_1 t + \dots + \frac{1}{k} \cdot \sin k\omega_1 t \right) \quad (12.10)$$


**Signalning Bir Yarim Davr Shakldagi Chizmasi:**



12.5-rasm.

$$u = \left[ \frac{U_m}{\pi} \right] \left( 1 + \frac{\pi}{2} \cos \omega_1 t + \frac{2}{3} \cos 2\omega_1 t - \frac{2}{15} \cdot \cos 4\omega_1 t + \frac{2}{35} \cdot \cos 6\omega_1 t + \dots \right) \quad (12.11)$$

### Signalning Ikki Yarim Davr Shakldagi Chizmasi:



$$u = \left[ \frac{2U_m}{\pi} \right] \left( 1 + \frac{2}{3} \cos 2\omega_1 t - \frac{2}{15} \cos 4\omega_1 t + \frac{2}{35} \cos 6\omega_1 t + \dots \right) \quad (12.12)$$


### 12.1. Davriy nogarmonik signallarning simmetrik ko'rinishlari

#### SIGNALLARNING GORIZONTAL O'QQA NISBATAN SIMMETRIYA KO'RINISHI.

Har qanday signal shakli uchun quyidagi shart bajarilsa, u signal gorizontal o'qqa nisbatan **SIMMETRIK** deb ataladi.

$$f(t) = -f(t + \frac{T}{2}) \quad (12.13)$$

Agar signalning gorizontal o'qdagi yarim davr shaklini o'qning yarim qismiga o'tkazilsa, u holda signal shakli simmetrik ravishda oldingi holatini takrorlaydi, ya'ni gorizontal o'qqa nisbatan simmetrik shakl hosil bo'ladi. Bunday signallar juft garmonikalar koeffitsentlari NOLGA TENG bo'ladi.




Demak, gorizontal o'qqa nisbatan simmetrik bo'lgan har qanday nogarmonik signalning oniy qiymatlarini ifodalovchi matematik qatorlar faqat TOQ garmonikalardan tashkil topgan bo'ladi.

### 12.2. Gorizontal o'qqa nisbatan simmetrik signal shakli

Quyidagi ifodaga to'g'ri keladigan nogarmonik signal gorizontal o'qqa nisbatan **SIMMETRIK** deb yuritiladi:


$$f(t) = f(-t) \quad (12.14)$$



Bunday signallarda boshlang'ich faza qiymati NOLGA teng bo'ladi.

### 12.3. Nogarmonik signallarning koordinata o'qi boshlanishiga nisbatan simmetrik shakli

Har qanday nogarmonik signal quyidagi shartga  $f(t) = -f(-t)$  to'g'ri kelsa u koordinata o'qi boshlanishiga nisbatan **SIMMETRIK** hisoblanadi.



Bunday signallar faqat NOLGA teng bo'lgan boshlang'ich fazalardan iborat bo'lgan signallardan tashkil topgan bo'ladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Nogarmonik signallar, ta'rifi.
2. Nogarmonik signallarning qanday shakllari olinadi?
3. Ikkinci va uchinchi garmonikalar deb nimaga aytildi?
4. Davriy nogarmonik signal amplitudalari qanday formula orqali ifodalanadi?
5. Fure qatorlari qaysi formula orqali ifodalanadi?
6. Davriy nogarmonik signallarning simmetrik turlari (gorizontal o'qqa, vertikal o'qqa, koordinata o'qining boshlanishiga nisbatan).

## XIII bob. IKKI QUTBLI ELEKTR ZANJIRLARI. TA'RIFLARI, VA KLASSIFIKATSIVALARI

Ikki uchli har qanday elektr zanjirlari **IKKI QUTBLI** elektr zanjirlari deb ataladi. Ikki qutbli elektr zanjirlari murakkab va har xil tuzilishlarga ega bo'ladi.

Eng oddiy ikki qutbli elektr zanjirining tuzilishi quyidagicha belgilanadi:




13.1-rasm.

**IKKI qutbli elektr zanjirlari:**

- chiziqli va nochiziqli;
- bir, ikki va ko'p elementli;
- reaktiv (induktivlik va sig'im ulangan);
- energiya yo'qotuvchi (aktiv qarshilik ulangan);
- aktiv va passiv turlariga bo'linadi.

Elektr energiyasi o'zaro qoplanmaydigan elektr manbasi ulangan ikki qutbli elektr zanjirlari **AKTIV** ikki qutbli elektr zanjirlari deb ataladi, ya'ni elektr energiyasi faqat sarflanadi, lekin o'zaro qoplanmaydi. Elektr manbasi ulanmagan elektr zanjiri **PASSIV** IKKI qutbli elektr zanjiri deb ataladi.

Misol uchun, quyidagi elektr zanjiri **PASSIV** ikki qutbli elektr zanjiri deb yuritiladi.




13.2-rasm.

Ikki qutbli elektr zanjirlarning **QARSHILIGI** va **O'TKAZUV-CHANLIGI** chastotaga bog'liqligi **CHASTOTALI XARAKTERISTIKALAR** deb ataladi.

Bunday bog'liqlik ikki qutbli elektr zanjirining TOK va KUCH-LANISHlar amplitudasi va fazasi chastotaga bog'liqligini ko'rsatadi.


### 13.1. Bir elementli reaktiv ikki qutbli elektr zanjiri

Induktivlik va sig'im elementlari REAKTIV ikki qutbli elektr zanjirlari hisoblanadi, masalan:



13.3-rasm.

Ushbu grafikda induktiv va sig'im elementlarining kompleks qarshiligining chastotaga bog'liqlik grafigi ko'rsatilgan. Grafikda kompleks qarshilik butun chastota spektri bo'yicha MUSBAT qiymatga, kompleks o'tkazuvchanlik esa MANFIY qiymatga teng bo'lib turibdi.




13.4-rasm.

$$Z_L = jx_L = j\omega L; \quad (13.1)$$

$$Y_L = -jb_L = -j\frac{1}{\omega L}. \quad (13.2)$$

Sig'im elementida esa, kompleks qarshilik MANFIY ishoraga, kompleks o'tkazuvchanlik esa MUSBAT ishoraga teng bo'lib turibdi.



13.5-rasm.

$$Z_C = -jx_C = -j\frac{1}{\omega C}; \quad (13.3)$$

$$Y_C = jb_C = j\omega C. \quad (13.4)$$


Xulosa qilib quyidagi fikrlarni keltirishimiz mumkin: bir elementli reaktiv ikki qutbli elektr zanjirlarida induktiv elementning kompleks qarshiligi va sig'im elementining o'tkazuvchanligi TO'G'RI CHIZIQQLI xarakteristikaga, sig'im elementining kompleks qarshiligi va induktiv elementining o'tkazuvchanligi GIPERBOLA turidagi CHASTOTALI xarakteristikalarga ega bo'ladi.

Demak, bir elementli ikki qutbli REAKTIV elektr zanjirlarida chastota oshgan sari kompleks qarshilik va o'tkazuvchanlik o'sib boradi, ya'ni ushbu ifoda o'rinni bo'ladi:

$$\frac{dZ}{d\omega} > 0; \quad \frac{dY}{d\omega} > 0. \quad (13.5)$$


### 13.2. Ikki elementli reaktiv ikki qutbli elektr zanjiri

Ikki elementli ikki qutbli reaktiv elektr zanjiri induktiv va sig'im elementlarining ketma ket va paralel ularishlari orqali hosil bo'ladi, misol uchun:



13.6-rasm.

Ushbu grafikdan ko'rinib turibdiki, ketma ket ulangan ikki elementlarning reaktiv qarshiliklarining algebraik yig'indisiga teng bo'ladi, ya'ni qalin chiziq bilan ularning chastotali xarakteristikalarini ko'rsatilgan.



13.7-rasm.


Bu qalin chiziq koordinataning absissa o'qini rezonans chastotaning quyidagi qiymatiga teng bo'lgan qiymatida, ya'ni:

$$\omega_1 = \frac{1}{\sqrt{LC}} \quad (13.6)$$

**REZONANS KUCHLANISHI** holatida kesib o'tadi (grafikka qarang).

O'tkazuvchanlikning chastota xarakteristikasi quyidagi grafikda ko'rinib turibdi. Reaktiv elementning o'tkazuvchanligi qarshilikka teskari qiymatga teng bo'ladi, ya'ni:

$$Y = \frac{1}{Z} \quad (13.7)$$



13.8-rasm.

Reaktiv qarshilik va o'tkazuvchanliklarning chastota xarakteristikalarining grafiklari quyidagi formulalarga mos keladi, ya'ni:

$$Z = jx = j(x_L - x_C) = j(\omega L - \frac{1}{\omega C}) = jL(\omega - \frac{1}{\omega LC}) \quad (13.8)$$

$$Y = -jb = -j \frac{1}{L(\omega - \frac{1}{\omega LC})} \quad (13.9)$$

Agar quyidagi ifodani e'tiborga olsak,

$$\omega_1 = \frac{1}{\sqrt{LC}} \quad (13.10)$$

u holda:


$$x = L \frac{\omega^2 - \omega_1^2}{\omega} \quad b = \frac{\omega}{L(\omega^2 - \omega_1^2)} \quad (13.11)$$

Shunday qilib, keltirilgan grafikdan xulosa qilib quyidagilarni keltiramiz:

Rezonans chastotasidan kichik bo'lган qiymatda, ya'ni ( $\omega < \omega_1$ ) sig'im elementi qarshiliqi absolют miqdor sifatida induktiv element qarshiligidan katta bo'ladi, shuning uchun ham ikki qutbli elektr zanjirining natijaviy qarshiliqi SIG'IM elementiga yaqin xarakteristikaga teng bo'ladi.

Agar chastota rezonans chastotasidan katta bo'lsa, ya'ni ( $\omega > \omega_1$ ) u holda, sig'im elementi qarshiliqi induktiv elementi qarshiligidan absolют miqdor jihatdan kichik bo'ladi, shuning uchun ham ikki qutbli elektr zanjirining natijaviy qarshiliqi INDUKTIV elementiga yaqin bo'lgan xarakteristikaga teng bo'ladi.

Sig'im va induktiv elementlar parallel ulangan ikki qutbli reaktiv elektr zanjirlarida elementlarning KOMPLEKS O'TKAZUVCHANLIKLARINING algebraik yig'indisiga teng bo'ladi (grafikda qalin chiziq).



13.9-rasm.


Rezonans chastotasi quyidagi miqdorga teng bo'lgan vaqtida natijaviy o'tkazuvchanlik abssissa o'qini kesib o'tadi, ya'ni TOK REZONANSI hosil bo'ladi.

$$\omega_2 = \frac{1}{\sqrt{LC}}. \quad (13.12)$$

Xuddi shu ikki qutbli elektr zanjirining reaktiv qarshilik xarakteristikasi o'tkazuvchanlikka teskari qiymatga teng bo'ladi, ya'ni:

$$Z = \frac{1}{Y}. \quad (13.13)$$

Kompleks qarshilikning chastotaviy xarakteristikasi ushbu grafikda ko'rsatilgan:



13.10-rasm.

Endi yuqorida keltirilgan chastotaviy grafiklar hosil bo'lgan formulalarni keltiramiz, ya'ni:

$$Y = -jb = -j(b_L - b_C) = -j\left(\frac{1}{\omega L} - \omega C\right) = -jC\left(\frac{1}{\omega LC} - \omega\right) \quad (13.14)$$

$$Z = jx = j \frac{1}{C\left(\frac{1}{\omega LC} - \omega\right)} \quad (13.15)$$

Agar quyidagi ifodani e'tiborga olsak, u holda:

$$\begin{aligned} \omega_2 &= \frac{1}{\sqrt{LC}} \\ b &= C \frac{\omega_2^2 - \omega^2}{\omega} \end{aligned} \quad (13.16)$$

$$x = \frac{\omega}{C(\omega_2^2 - \omega^2)} \quad (13.17)$$

Yuqoridagi formulalar orqali quyidagicha xulosalar qilamiz:

Chastota qiymati rezonans chastotasi qiymatidan kichik bo'lgan vaqtida, induktiv elementning o'tkazuvchanligi, sig'im elementi o'tkazuvchanligining absolyut miqdoridan katta bo'ladi, shuning uchun ikki qutbli elektr zanjirining **QARSHILIGI** induktiv xarakteriga ega bo'ladi.

Agar chastota rezonans chastotasidan KATTA bo'lganda, ikki qutbli elektr zanjirining qarshiligi SIG'IM elementi xarakteriga ega bo'ladi.

DEMAK, IKKI ELEMENTLI REAKTIV IKKI QUTBLI ELEKTR ZANJIRI CHASTOTAGA BOG'LIQ HOLDA INDUKTIV YOKI SIG'IM QARSHILIKLARIIGA EGA BO'LADI.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Ikki qutbli elektr zanjirlar.
2. Ikki qutbli elektr zanjirlarining turlari.
3. Aktiv va passiv ikki qutbli elektr zanjirlari.
4. Chastota xarakteristikalari.
5. Bir elementli reaktiv ikki qutbli elektr zanjirlari.
6. Reaktiv qarshilik va o'tkazuvchanlik grafiklari, formulalari.
7. Ketma ket ulangan ikki elementli ikki qutbli reaktiv elektr zanjirlari, grafiklari va formulalari.
8. Parallel ulangan ikki qutbli reaktiv elektr zanjirlari, grafiklari va formulalari.


#### XIV bob. CHIZIQLI ELEKTR ZANJIRLARIDA O'TISH JARAYONLARI.

Elektr zanjirining bir turg'un holatidan boshqa bir turg'un holatiga o'tishini ifodalovchi jarayon **O'TISH JARAYONI** deb ataladi.

Elektr zanjirining asosiy ish holati quyidagi jarayonlar orqali ifodalanadi: manbag'a ulanish va undan ajralish, ishlayotgan zanjirga qo'shimcha manbalarning ulanishi, zanjir tarkibiy qismlarining qisqa tutashuvi, zanjirda yuklamaning keskin ortishi va kamayishi va h.k.

Yuqoridagi omillar orqali zanjir parametrlari o'zgarishi mumkin.

Elektr zanjirining ish holatlarining o'zgarishiga olib keluvchi barcha sabablar oddiy ravishda KOMMUTATSIYA yoki KOMMUTATSION jarayon orqali sodir bo'ladi. Misol uchun, ushu rasmida kommutatsiya jarayoni ko'rsatilgan:



14.1-rasm.

Elektr zanjiri elementlarining va manbalarning ulanishi, zanjirdan uzilishi yoki qayta ulanishi – KOMMUTATSIYA deb ataladi. Elektr zanjirlarida kommutatsiya quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

Muhandislik hisoblarida, elektr zanjiridagi o'matilgan holat KOMMUTATSIYA sodir bo'lgan ondan (zanjirga yuklama ulangandan yoki uzilgandan) keyin boshlanadi deb taxmin qilinadi. Bu taxmin faqat zanjirda faqat aktiv qarshilik ulangan bo'lsagina to'g'ri bo'ladi. Agar zanjirda induktivlik yoki sig'im elementlari ulangan bo'lsa, u holda bu taxmin noto'g'ri bo'ladi.

Induktivlik yoki sig'im elementlari ulangan zanjirda turg'un holatdan boshqa holatga o'tishi shu elementlarning magnit va elektr maydonlarida elektromagnit energiyaning miqdor jihatdan o'zgarishiga bog'liq bo'ladi.

$$\omega_L = \frac{Li_L^2}{2}; \quad \omega_C = \frac{Cu_C^2}{2}. \quad (14.1)$$

Energiyaning son jihatdan ma'lum bir miqdorga o'zgarishi bir zumda sodir bo'lmaydi, ya'ni zanjirning turg'un holatdan boshqa holatga o'tishi ma'lum bir vaqt ni talab qiladi.

Fizik nuqtai nazardan qaralganda O'TKINCHI jarayon elektr zanjirining kommutatsiyagacha bo'lgan energetik holatidan kommutatsiyadan keyingi energetik holatiga o'tish jarayoni tushuniladi.

Shuning uchun ham elektr zanjirlarining O'TKINCHI holati reaktiv elementlarning (L va C).

Xususiyatlardan kelib chiqqan holda quyidagi KOMMUTATSIYA qonunlari orqali ifodalanadi:

##### *Kommutatsiyaning Birinchi Qonuni:*

Har qanday induktivlikka ega tarmoqdagi tok va magnit oqim KOMMUTATSIYA paytida ( $t = 0$ ) o'zining kommutatsiyaga qadar bo'lgan qiymatini saqlaydi va bundan keyin ana shu qiymatlaridan boshlab o'zgaradi.

##### *Kommutatsiyaning Ikkinchisi Qonuni:*

Har qanday tarmoqda sig'imdag'i kuchlanish va zaryad KOMMUTATSIYA paytida ( $t = 0$ ) o'zining kommutatsiyaga qadar bo'lgan qiymatini saqlaydi va bundan so'ng ana shu qiymatlaridan boshlab o'zgaradi.

Elektr zanjirlarida o'tish jarayonlarini tahlil qilish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- 1. Klassik usuli.
- 2. Operator usuli.
- 3. Vaqt usuli.
- 4. Chastotaviy usul.

Yuqorida keltirilgan usullarni tahlil qilishdan oldin elektr zanjirlaridagi o'tish jarayonlarini ifodalovchi bir nechta holatlarni ko'rib chiqamiz.


##### **14.1. Tok va kuchlanishning erkin va majburiy tashkil etuvchilarini**

Yuqorida ko'rsatib o'tilgandek elektr zanjirining bir turg'unlashgan holatidan boshqa holatga o'tishi bir zumda sodir bo'lmaydi, balki energiya manbai bilan zanjirning energiya to'plovchi elementlari

orasidagi energiyaning taqsimlanish jarayoniga ketgan vaqt qadar davom etadi.

Shundan kelib chiqqan holda elektr zanjirlari uchun differential tenglamalarning bir jinsli va bir jinsli bo'lgan ifodalari tuziladi.

Bir jinsli differential tenglamani yechishda xususiy yechimi va umumiylarini topish kerak bo'ladi. Misol uchun, ushu elektr zanjirini ko'rib chiqamiz:



14.2-rasm.

Yuqorida keltirilgan elektr zanjiri uchun quyidagi tenglama o'rini bo'ladi:

$$U_L + U_R = U$$

Bunda,  $i$  – o'tkinchi jarayon toki, ya'ni O'TKINCHI TOK.

O'tkinchi tokni ikkita toklar yig'indisi deb qarash mumkin: majburiy tok  $i_{majb}$ , u o'tkinchi jarayon tugugandan so'ng namoyon bo'ladi va erkin tok  $i_{erk}$ , o'tkinchi jarayon davom etayotgan vaqtida sodir bo'ladi, u induktiv g'altakda to'plangan magnit maydon energiyasi evaziga hosil bo'ladi:

$$i = i_{majb} + i_{erk} \quad u = u_{majb} + u_{erk}$$

Majburiy tok (kuchlanish) deganda zanjirdagi EYuK orqali hosil bo'ladigan tokni (kuchlanishni) tushunish kerak bo'ladi.

Erkin tok (kuchlanish) ko'rsatgichli funksiya orqali ifodalanadi, ular eksponentsiyal qonun asosida so'nadi va vaqt t oshgan sari ko'rsatgichli funksiya kamayib boradi.

O'tkinchi jarayonlarda elektr zanjirini uchastka va elementlarida tok va kuchlanishlarni hisoblash elektr holat tenglamalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Bu tenglamalar tok va kuchlanishlarni oniy qiymatlari uchun tuziladi.  $R$ ,  $L$  va  $S$  parametrlari o'zgarmas bo'lgan chiziqli elektr zanjirlari uchun tenglamalar o'zgarmas koefitsiyentlar orqali ifodalanadi.

Bu tenglamalarni yechilishi o'tkinchi jarayonlardagi tok yoki kuchlanishlarni o'zgarish qonuniyatini belgilaydi (kommutatsiya qonunlari orqali).

Majburiy rejim uchun elektr holat tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\cdot Ri_{majb} = U.$$

Erkin rejim uchun elektr holat tenglamasi o'tkinchi jarayon tenglamasidan majburiy rejim tenglamasini ayirmasi (yig'indisi) orqali topiladi:

$$L \frac{di_{erk}}{dt} + Ri_{erk} = u \quad (14.2)$$

Matematikadan ma'lumki, bu tenglamani yechimi quyidagicha bo'ladi:

$$i_{erk} = Ae^{-t/\tau}.$$

bunda,  $A$  – o'zgarmas kattalik;  $\tau = \frac{L}{R}$  – vaqt doimiysi.

O'zgarmas A boshlang'ich shartlardan topiladi: ( $t=0$ ) qachonki  $i(0) = i_{majb}(0) + i_{erk}(0)$ .

Induktivlik zanjiri uchun kommutatsiya vaqtida o'tkinchi tok kommutatsiyagacha bo'lgan tokka teng, ya'ni  $i(0) = 0$ .

Majburiy rejim uchun:  $i_{majb}(0) = \tau_{majb} = U/R$

Erkin rejim uchun  $i_{erk}(0) = A$  va, undan kelib chiqib

$$A = \frac{U}{R}.$$

(14.3)

### O'tkinchi jarayondagi tok

$$I = I_{majb} + I_{erk} = \frac{U}{R} - \frac{U}{R}e^{-\frac{t}{\tau}} \quad (14.4)$$

$$\frac{U}{R} - \frac{U}{R}e^{-\frac{t}{\tau}} = \frac{U}{R}(1 - e^{-\frac{t}{\tau}}) \quad (14.5)$$

### O'tkinchi jarayonda induktivlikdagi kuchlanish

$$u_L = L \frac{di}{dt} = ue^{-\frac{t}{\tau}} \quad (14.6)$$

O'tish jarayonlarida tok va kuchlanishlarning erkin tashkil etuvchilari tashqi ta'sir etuvchilarga bog'liq bo'lmasdan, faqat zanjirning passiv elementlari parametrlari orqali aniqlanadi. Aniqlanadigan parametrlar kommutatsiyadan keyingi holat uchun aniqlanadi.

O'tish jarayonlarini tahlil qilishda to'liq, majburiy va erkin TOK va KUCHLANISHlari tahlil qilindi.

Amalda TO'LIQ TOK va KUCHLANISHlardan foydalaniлади.

#### 14.2. O'tish jarayonlarini klassik usul orqali tahlil qilish

1. Elektr zanjirining kommutatsiyagacha bo'lgan holati  $t=0$  tahlil qilinadi, ya'ni zanjirdagi kalit holatiga qarab uning induktiv va sig'im elementlari orqali o'tayotgan tok va kuchlanishlar aniqlanadi.

2. Zanjirning kommutatsiyadan keyingi holati uchun, ya'ni  $t \rightarrow \infty$  holat uchun, o'tish jarayoni tugagandan keyingi holat. Induktiv va sig'im, qarshilik elementlaridan o'tgan tok va kuchlanishlar miqdori aniqlanadi.

Shu holatda zanjirning xarakteristik tenglamasi tuziladi, ya'ni zanjirdagi manba uziladi va induktiv, sig'im elementlarini ifodalovchi kompleks qarshiliklar orqali tenglama tuziladi.

Ildizi ikkiga teng bo'lgan tenglama yechiladi. Bunda, P - kattalikning ildizi topiladi. Bu kattalik ko'rsatgichli funksiyaning birligi bo'lib, o'tish jarayonida tok va kuchlanishlar qiymatlarining o'zgarish tezligini aniqlaydi.

Bundan tashqari o'tish jarayoning doimiy vaqtini ifodalovchi kattalik, hamda o'tish jarayoning vaqtini aniqlanadi.

3. Kommutatsiya qonunlariga asosan tok va kuchlanishlarning MAJBURIY va ERKIN tashkil etuvchilari topiladi. Bu holatda A – doimiy integral kattalagi aniqlanadi. Shu bosqichda elektr zanjir elementlarining TOK va KUCHLANISHlarining barcha qiymatlari aniqlanadi.


4. TOK va KUCHLANISHlarning barcha qiymatlari uchun vaqtga bog'liq boshlgan grafiklari chiziladi.

O'tish jarayonini ifodalovchi grafik 4 (TO'RT) bosqichdan iborat bo'ladi:

1. Kommutatsiyagacha bo'lgan holat.
2. Kommutatsiyadan keyingi holat.
3. Kommutatsiya vaqtidagi holat.
4. O'tish jarayonini ifodalovchi holat.

Klassik usul uchun misol:

Kommutatsiyagacha elektr zanjiri turg'unlashgan holatda edi. Quyidagi qiymatlar berilgan bo'lsin.



14.3-rasm.

$$R_1 = R_2 = R_3 = 50\Omega \quad C = 100 \text{ m}\mu\text{F} \quad E = 150 \text{ V}$$

1. Kommutatsiyagacha va kommutatsiyadan keyingi holatlar uchun  $i_1$ ,  $i_2$ ,  $i_3$  qiymatlarini topish talab etiladi.

2. Vaqt funksiyasi bo'yicha tok va kuchlanishlar qiymatlarini topish kerak.

Misolning birinchi qismi: Kommutatsiyagacha:

$$i_1(0) = i_3(0) = \frac{E}{(R_1 + R_2 + R_3)} = \frac{150}{150} = 1A.$$

Kondensatordagagi kuchlanish:

$$u_C(0) = i_3(0)R_3 = 1 \cdot 50 = 50V.$$

Kommutatsiyadan keyingi TOK va KUCHLANISHLAR qiymatini topamiz:

$$i_{1np} = i_{3np} = \frac{E}{R_1 + R_3} = \frac{150}{100} = 1,5A \quad u_{Cnp}(0) = i_{3np}(0)R_3 = 1,5 \cdot 50 = 75V$$

Kirxgofning ikkinchi qonuni bo'yicha tenglama tuzamiz:  $t=0$  holat uchun:

$$i_1(0_+)R_1 + u_C(0_+) = E \quad u_C(0_+) = u_C(0_-)$$

$$i(0_+) = \frac{E - u_C(0_-)}{R_1} = \frac{150 - 50}{50} = 2A$$

$$i_3(0_+) = \frac{u_C(0_+)}{R_3} = 1A$$

Kirxgofning BIRINCHI qonuni bo'yicha:

$$i_1(0_+) = i_2(0_+) + i_3(0_+)$$

$$i_2(0_+) = i_1(0_+) - i_3(0_+) = 2 - 1 = 1A$$

$t = 0_+$  holat uchun tok va kuchlanishlarning erkin va majburiy qiymatlarini topamiz:

$$u_{C_{ce}}(0_+) = u_C(0_+) - u_{C_{nn}}(0_+) = 50 - 75 = -25B$$

$$i_{C_{ce}}(0_+) = i_1(0_+) - i_{1np}(0_+) = 2 - 1,5 = 0,5A$$

$$i_{2_{ce}}(0_+) = i_2(0_+) - i_{2np}(0_+) = 1 - 0 = 1A$$

$$i_{3_{ce}}(0_+) = i_3(0_+) - i_{3np}(0_+) = 1 - 1,5 = -0,5A$$

Kondensatorda erkin TOK

$$i_{ce} = C \frac{du_{C_{cc}}}{dt}; \quad \frac{du_{C_{cc}}}{dt} = \frac{i_{ce}}{C};$$

$$\left( \frac{du_{C_{cc}}}{dt} \right)_{t=0_+} = \frac{i_{2ce}(0_+)}{C} = \frac{1}{100 \cdot 10^{-6}} = 10^4 \frac{B}{c}.$$

Misolning 2-qismi:


Kommutatsiyadan keyingi holat uchun tenglama quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$pR_1R_3C + R_1 + R_3 = 0 \quad p = -\frac{R_1 + R_3}{R_1R_3C} = -400c^{-1}$$

Elektr zanjiridagi har bir tok majburiy va erkin tashkil etuvchilarning yig'indisiga teng bo'ladi:

$$i_1 = 1,5 + 0,5e^{-400t} A; \quad i_2 = e^{-400t} A;$$

$$i_3 = 1,5 - 0,5e^{-400t} A; \quad u_C = 75 - 25e^{-400t} B.$$



14.4-rasm.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Elektr zanjirlarida o'tish jarayonlari.
2. Elektr zanjirlarida kommutatsiya deb nimaga aytildi?
3. Kommutatsiya qonunlari.
4. Tok va kuchlanishning erkin va majburiy tashkil etuvchilari.
5. O'tish jarayonlarida to'liq tok va kuchlanishlar ifodalari.
6. Elektr zanjirining klassik usulda tahlil qilish tartibi.
7. Kompleks qarshiliklar orqali differensial tenglamalar tuzish.

## XV bob. O'TISH JARAYONLARINI OPERATOR USULIDA HISOBBLASH

O'tkinchi jarayonlarda elektr zanjirining tok va kuchlanishlar ONIY qiymatlarini hisoblashda matematik usul ancha murakkab hisoblanadi. Chunki o'tish jarayonlarini yozishda differensial va integrallardan foydalaniladi. Shu bilan bir qatorda, elektr zanjirdagi induktiv va sig' im elementlar orqali o'tayotgan tok va kuchlanishlarning oniy qiymatlari quyidagi formulalar orqali ifodalanadi: L va C zanjirlarda TOK va KUCHLANISH:

$$u_L = L \frac{di}{dt}; \quad i = \frac{1}{L} \int u_L dt. \quad (15.1)$$

$$i = C \frac{du_C}{dt}; \quad u_C = \frac{1}{C} \int idt. \quad (15.2)$$

O'tish jarayonlarida elektr zanjirning tok va kuchlanish qiymatlarini operator usulida hisoblashda ular ifodalarining TAS-VIRLARI orqali ifodalanadi. TOK va KUCHLANISHlarning integral orqali ifodalari algebraik ifodalarga aylanadi va ularning oniy qiymatlarini hisoblash mumkin bo'ladi.

O'tish jarayonlarining OPRERATOR usuli LAPLAS formulasiga asoslanadi, ya'ni:

Fransuz matematigi, fizigi Per Simon LAPLAS nomi bilan ataladigan FORMULA ORQALI hisoblanadi (LAPLAS INTEGRALI)

$$F(p) = \int_0^\infty f(t)e^{-pt} dt. \quad (15.3)$$

Bu formulada funksiya  $f(t)$  – funksiyaning originali,  $F(p)$  – funksiyaning tasviri hisoblanadi.

Agar,

$$f(t) = U, \quad F(p) = \frac{U}{p} \quad (15.4)$$

teng bo'lsa, u holda, LAPLAS INTEGRALI:

$$F(p) = \int_0^\infty f(t)e^{-pt} dt = \int_0^\infty U e^{-pt} dt = U \frac{1}{(-p)} e^{-pt} \Big|_0^\infty = \frac{U}{(-p)} (0 - 1) = \frac{U}{p}. \quad (15.5)$$

Agar,  $f(t) = e^{at}$  teng bo'lsa, u holda LAPLAS INTEGRALI:

$$F(p) = \int_0^\infty e^{at} \cdot e^{-pt} dt = \int_0^\infty e^{-(p-a)t} dt = \frac{1}{-(p-a)} e^{-(p-a)t} \Big|_0^\infty = \frac{1}{-(p-a)} (0 - 1) = \frac{1}{p-a}, \quad (15.6)$$

Demak,, funksiya  $e^{at} = \frac{1}{p-a}$  ifodaga almashtirildi.

Yuqoridagi LAPLAS formulasi orqali har qanday funksiyaning uning tasviri va originali orqali bo'linmalar bilan ifodalash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval

	Operator ko'rinishi
$\delta_l(t) = l(t)$	$\frac{1}{p}$
$A\delta_l(t)$	$\frac{A}{p}$
$\delta(t) = \frac{d\delta_l}{dt}$	1
$\frac{t^n}{n!}$	$\frac{1}{p^{(n+1)}}$
$e^{-at}$	$\frac{1}{p+a}$
$(1 - e^{-at})$	$\frac{a}{p(p+a)}$
$\sin(\omega t + \psi)$	$\frac{p \sin \psi + \omega \cos \psi}{p^2 + \omega^2}$
$e^{-at} \sin \omega t$	$\frac{\omega}{(p+a)^2 + \omega^2}$
$te^{-at}$	$\frac{1}{(p+a)^2}$
$f(t)$	$F(p)$
$\frac{df(t)}{dt}$	$pF(p) - f(0)$
$\int_0^t f(t) dt$	$\frac{F(p)}{p}$

Bu ifodalarda p – LAPLAS OPERATORI deb yuritiladi.

Oprerator usulida R. L. C zanjirlarida xosila  $d/dt$  p – LAPLAS operatori bilan, integral esa  $1/p$  ifoda bilan ALMASHTIRILADI.


Har bir elementning tok va kuchlanishlarini bog'lovchi Laplas formulasidan foydalangan holda elektr zanjirlarining oddiy sxemalaridan OPERATOR holatlariiga o'tish usulini keltirish mumkin.

2-jadval

Boshlang'ich elektr zanjir	Operator hisoblash zanjiri
$i(t), u(t), \theta(t), J(t)$	$I(p), U(p), E(p), J(p)$
$L, i_L(0)$	$Z_L = pL, Li_L(0)$
$C, u_C(0)$	$Z_C = 1/pC, \frac{u_C(0)}{p}$


### OPERATOR USULIGA MISOLLAR

Keltirilgan elektr zanjiri uchun OPERATOR usulida chiqish KUCHLANISHINI hisoblash talab qilinsa, u holda:



15.1-rasm.

Keltirilgan elektr zanjirini kommutatsiyadan keyingi holat uchun boshqatdan chizib olamiz:



15.2-rasm.

Ushbu sxema uchun OPERATOR TOKINI ANIQLAYMIZ:

$$I(p) = \frac{U(p)}{Z_{BX}(p)} = \frac{U}{p(R + \frac{1}{pC})} = \frac{UpC}{p(pRC + 1)} = \frac{UC}{RC(p + \frac{1}{RC})} = \frac{U}{R(p + \frac{1}{RC})} \quad (15.7)$$


CHIQISH KUCHLANISHIESA quyidagi ifodalanadi:

$$U_2(p) = R \cdot I(p) = \frac{UR}{R(p + \frac{1}{RC})} = U \cdot \frac{1}{(p + \frac{1}{RC})} \quad (15.8)$$

Yuqoridagi keltirilgan tablitsadan foydalangan holda


$$F(p) = \frac{U}{(p + \frac{1}{RC})} \quad (15.9)$$

Elektr zanjirlarida OPERATOR usulida hisoblash uchun EKVIVALENT quyidagi sxemalar orqali ifodalanadi.




15.3-rasm.

Quyidagi elektr zanjir uchun OPERATOR sxemasini chizing va operator tokini yozing.



15.4-rasm.

Yuqoridagi elektr zanjiri uchun kommutatsiyadan keyingi OPERATOR sxemasini chizamiz:



15.5-rasm.

Kommutatsiyadan keyin TOK quyidagi qiymatga teng bo'ladi:

$$i(0) = \frac{U}{R} = \frac{100}{100} = 1A. \quad (15.10)$$

Operator TOKINI hisoblaymiz:

$$I(p) = \frac{U(p) + Li(0)}{R_1 + R + pL} = \frac{\frac{100}{p} + 10 \cdot 1}{900 + 100 + 10p} = \frac{10p + 100}{p(10p + 1000)}. \quad (15.11)$$

Ba'zi qisqartirishlardan keyin

$$I(p) = \frac{10(p+10)}{10p(p+100)} = \frac{p+10}{p(p+100)}. \quad (15.12)$$

#### YOYILISH TEOREMASI

Operator umulida funksiya originalini  $f(t)$  va tasvirini  $F(p) = \frac{F_1(p)}{F_2(p)}$  jadval orqali emas, balki matematik ifoda orqali ham aniqlash mumkin, bunday matematik ifodaga YOYILISH TEOREMASI deb ataladi:

$$f(t) = \sum_{n=1}^n \frac{F_1(p=p_k)}{F_2(p=p_k)} e^{p_k t} \quad (15.13)$$

Bu ifodada  $\sum_{n=1}^n$  yig'indi, quyidagi

ifodani  $\frac{F_1(p=p_k)}{F_2(p=p_k)} e^{p_k t}$  (15.14)

$F_2(p) = 0$  nechta ildizga ega bo'lsa, shuncha marta qo'shadi.

TOK va KUCHLANISHLARNING OPERATOR SHAKLIDAGI BALANSI, operator qarshiligi va operator o'tkazuvchanliklar ifodalari quyidagi ko'rinishda bo'ladi:


$$\sum_i U_i(p) = \sum_j E_j(p)$$

$$Z(p) = \frac{U(p)}{I(p)} \quad (15.15)$$

$$Y(p) = \frac{1}{Z(p)} = \frac{I(p)}{U(p)}$$

PASSIV IKKI QUTBLI ELEKTR ZANJIRLARINING OPERATOR TENGLAMALARI VA EKVIVALENT SXEMALARINI KO'RIB CHIQAMIZ.

#### 1. Qarshilik



15.6-rasm.

$$U_R(p) = RI_R(p)$$

$$u_R = Ri_R$$


$$Z_R(p) = R$$

$$I_R(p) = GU_R(p)$$

$$i_R = Gu_R$$

$$Y_R(p) = G = \frac{1}{R}$$

## 2. Sig'im



15.7-rasm.

$$i_C = C \frac{du_C}{dt}$$

$$u_C = u_C(0) + \frac{1}{C} \int_0^t i_C dt$$

Operator TOK va KUCHLANISHlar:

$$I_C(p) = pCU_C(p) - Cu_C(0)$$

$$U_C(p) = \frac{u_C(0)}{p} + \frac{1}{pC} I_C(p)$$


$$I_C(p) = pCU_C(p)$$

$$U_C(p) = \frac{I_C(p)}{(pC)}$$

$$Z_C(p) = \frac{1}{(pC)}$$

$$Y_C(p) = pC$$

## 3. Induktivlik



15.8-rasm.

$$u_L = L \frac{di}{dt}$$

$$i_L = i_L(0) + \frac{1}{L} \int_0^t u_L dt$$

Operator TOK va KUCHLANISH ifodalari:

$$U_L(p) = pLI_L(p) - Li_L(0)$$

$$I_L(p) = \frac{i_L(0)}{p} + \frac{U_L(p)}{pL}$$

$$Z_L(p) = pL$$

$$Y_L(p) = \frac{1}{pL}$$

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Laplas integral formulasi, ma'nosi.
2. Funksiya tasviri va originali, ma'nosi, formulasi.
3. Operator usulining ma'nosi.
4. Operator usulini ifodalovchi jadvalni yozing.
5. Operator usulidan foydalangan holda elektr sxemalarni chizing.
6. Qarshilik elementining operator TOK, kuchlanish, o'tkazuvchanlik formulalari.
7. Sig'im elementining operator TOK, kuchlanish, o'tkazuvchanlik formulalari.
8. Induktivlik elementining operator TOK, kuchlanish, o'tkazuvchanlik formulalari.

**XVI bob. SPEKTRAL (CHASTOTAVIY) USUL YORDAMI  
BILAN CHIZIQLI ELEKTR ZANJIRLARNI TAHLIL QILISH.  
TO'RTQUTBLIKLAR (TQ)**

**Spektral (chastotaviy) usul yordami bilan CHEZlarni tahlil qilish.**

Elektr zanjirlarini CHASTOTAVIY usulda tahlil qilishda zanjir orqali o'tayotgan signallarning chastotaviy xarakteristikalarini hisoblashda qo'llaniladi. Signal energiyasini spektr bo'yicha taqsimlanishini kuzatish mumkin. Shu xususiyatlari tufayli elektr zanjirlardagi o'tish jarayolarini tahlil qilishga imkon beradi.

Shuning uchun ham CHASTOTAVIY usulda elektr zanjirlari orqali o'tayotgan signallarni matematik usulda ifodalash mumkin bo'ladi. Signallar spektrlarini vaqt funksiyasi orqali topish garmonik TAHYLIL, berilgan spektr orqali vaqt funksiyasini topish garmonik SINTEZ deb ataladi.


Yuqoridagi fikrlarni e'tiborga olgan holda elektr zanjirlar parametrlarini CHASTOTAVIY USULDA hisoblash tartibini ko'rib chiqamiz.

**Chastotaviy usul:**

- 1). O'tkinchi jarayonni turg'unlashgan rejimlar yechimlarining yig'indisi ko'rinishida bajarish imkonini beradi.
- 2). Nodavriy yakka funksiyani (tok yoki kuchlanishni) sinusoidal tashkil etuvchilar yordamida tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Zanjir orqali o'tayotgan signallarga chastotaviy usulni qo'llash uchun quyidagi keltirilgan nosinusoidal signalni sinusoiddal signalga aylantiramiz:

- a) signal spektri  $(-\frac{T}{2}, \frac{T}{2})$  vaqt oralig'ida;
- b) signal spektri (sinusoidal) shakliga mos keladi.



16.1-rasm.

Shu sababli bu signal spektri FURE qatorlari orqali ifodalanishi mumkin. Keltirilgan vaqt INTERVALidan katta intervallarda signal spektrini FURE qatori orqali ifodalab bo'lmaydi.

Fure qatorining kompleks shaklidagi ifodasi quyidagicha yoziladi,

$$f(t) = \frac{1}{2} \sum_{n=-\infty}^{\infty} A_n e^{jn\omega_1 t}. \quad (16.1)$$

Bu formulani quyidagi shaklda yozib olamiz:

$$f(t) = \frac{1}{2\pi} \sum_{n=-\infty}^{\infty} \frac{\pi}{\omega_1} A_n e^{jn\omega_1 t} \cdot [n\omega_1 - (n-1)\omega_1] = \frac{1}{2\pi} \sum_{n=-\infty}^{\infty} \frac{T}{2} A_n e^{jn\omega_1 t} (n\omega_1) \quad (16.2)$$

Bu ifodada:

$$\Delta(n\omega_1) = n\omega_1 - (n-1)\omega_1 \quad (16.3)$$

Fure qatoridagi chastota intervali:

$$\omega_1 = \frac{2\pi}{T} \quad (16.4)$$

Agar,  $A_n = \frac{2}{T} \int_{-\frac{T}{2}}^{\frac{T}{2}} f(t) e^{-jn\omega_1 t} dt$  teng bo'lsa,

u holda:

$$\Delta = \frac{1}{2\pi} \sum_{n=-\infty}^{\infty} e^{jn\omega_1 t} (n\omega_1) \int_{-\frac{T}{2}}^{\frac{T}{2}} f(t) e^{-jn\omega_1 t} dt \quad (16.5)$$

Keltirilgan formulada, agar,  
 $T \rightarrow \infty$        $n\omega_1 \rightarrow \omega$        $\Delta(n\omega_1) \rightarrow d\omega_1$

bo'lsa, u holda INTEGRAL chegaralaridagi

$T \rightarrow \infty$  intilgan bo'lsa, NODAVRIY FUNKSIYANING SPEKTRI deb ataladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$F(j\omega) = \int_{-\infty}^{\infty} f(t)e^{-j\omega t} dt \quad (16.6)$$

Agar, "T" ni cheksiz ravishda oshirib borsak, u holda ifoda quyidagi funksiya holatiga keladi:

$$f(t) = \frac{1}{2\pi} \int_{-\infty}^{\infty} F(j\omega)e^{j\omega t} d\omega \quad (16.7)$$

Yuqorida keltirilgan formula FURE funksiyasining IKKI tomonlama almashtirish funksiyasi, formula esa EURE funksiyasining TESKARI almashtirish funksiyasi deb yuritiladi. Fure INTEGRALI bo'yicha quyidagi ifodalar va almashtirishlar o'rinni bo'ldi:

$$\begin{aligned} F(j\omega) &= f(t) e^{-j\omega t} dt \\ f(t) &= F(j\omega) \\ F(j\omega) &= F(p)/p = j\omega \end{aligned} \quad (16.8)$$

### Chastotaviy (spektr) usuli uchun Om va Kirxgof qonunlari

Om va Kirxgof qonunlari

$$\begin{aligned} I(p) &= \frac{E(p)}{Z(p)} \rightarrow I(j\omega) = \frac{E(j\omega)}{Z(j\omega)} \\ \sum I_k(p) &= 0 \rightarrow \sum I_k(j\omega) = 0 \\ \sum E_k(j\omega) &= \sum I_k(j\omega) \cdot Z_k(j\omega) \end{aligned} \quad (16.9)$$

$I(j\omega)$ ,  $E(j\omega)$  – spektrlar;  
 $Z(j\omega)$  – kompleks qarshilik.

#### 16.1. To'rtqutbliklar (TQ)

Elektr zanjirining istalgan ikki juft ikki klemmalariga nisbatan ko'rildigani elektr zanjir qismi to'rtqutblik deb ataladi.

To'rtqutblik zanjir klemmalariga elektr energiya manbasi ulansa, klemmalar KIRISH, agar biron bir YUKLAMA ulansa, CHIQISH klemmalari deb ataladi.

Yoki "KIRISH" va "CHIQISH" deb ham yuritiladi.

To'rtqutblik zanjirlar klemmalariga ulangan uzun liniya, elektr filtrlari, transformatorlar misol bo'la oladi.

TQning kirishdagi va chiqishdagi kompleks toklar va kuchlanishlarni bog'lovchi munosabatlar TQning uzatish tenglamalari deyiladi. Ular 6 ta shaklda ifodalanadi.

1) Z-shakl:

$$\begin{aligned} \dot{U}_1 &= Z_{11}\dot{I}_1 + Z_{12}\dot{I}_2' \\ \dot{U}_2 &= Z_{21}\dot{I}_1 + Z_{22}\dot{I}_2' \end{aligned}$$

2) Y- shakl:

$$\begin{aligned} \dot{I}_1 &= Y_{11}\dot{U}_1 + Y_{12}\dot{U}_2 \\ \dot{I}_2' &= Y_{21}\dot{U}_1 + Y_{22}\dot{U}_2 \end{aligned}$$

3) A- shakl:

$$\begin{aligned} \dot{U}_1 &= A_{11}\dot{U}_2 + A_{12}\dot{I}_2 \\ \dot{I}_1 &= A_{21}\dot{U}_2 + A_{22}\dot{I}_2 \\ (\text{to'g'ri uzatish}) \end{aligned}$$

4) B- shakl:

$$\begin{aligned} \dot{U}_2 &= B_{11}\dot{U}_1 + B_{12}\dot{I}_1 \\ \dot{I}_1 &= B_{21}\dot{U}_1 + B_{22}\dot{I}_1 \\ (\text{teskari uzatish}) \end{aligned}$$

5) H- shakl:


$$\begin{aligned} \dot{U}_1 &= H_{11}\dot{I}_1 + H_{12}\dot{U}_2 \\ \dot{I}_2' &= H_{21}\dot{I}_1 + H_{22}\dot{U}_2 \end{aligned}$$

6) F- shakl:

$$\begin{aligned} \dot{I}_1 &= F_{11}\dot{U}_1 + F_{12}\dot{I}_2 \\ \dot{U}_2 &= F_{21}\dot{U}_1 + F_{22}\dot{I}_2 \end{aligned}$$


Bu tenglamalardagi kompleks koeffitsyentlar TQning parametrlari deyiladi. Ular hammasi o'zaro bog'langan.

### TQ ulanish turlari




16.2-rasm.

### Kaskadli (Zanjirli) ulanish




16.3-rasm.

### Ketma-ket ulanish



16.4-rasm.

### Parallel ulanish



16.5-rasm.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Chastotaviy usul ma'nosi.
2. Fure qatorining kompleks shaklidagi ifodasi.
3. Nodavriy funksiyaning spektr formulasi.
4. FURE funksiyasining IKKI tomonloma almashtirish funksiyasi.
5. FURE funksiyasining TESKARI almashtirish funksiyasi.
6. Chastotaviy usul uchun Om va Kirxgof qonunlari.
7. To'rtqubli elektr zanjirlari.
8. To'rtqutbli elektr zanjirlarning uzatish tenglamalari.
9. To'rtqutbli elektr zanjirlarning ularish sxemalari (ketma-ket, paralel, kaskadli).

## XVII bob. BATTERVORD, CHEBISHEV VA ZOLOTARYOV FILTRLARI


Filtrlar asosan induktivlik va sig' im elementlаридан ташкил топган занжирине синосида ташкил топади. Шундай екан бизга мәлүмкі индуктив жаршилигі честотага тоғ'ри пропорционал, sig' im qashiligiga esa teskari proropsonal. Bundan tashqari, induktivlikdagi tok  $\frac{\pi}{2}$  miqdordagi burchakka kuchlanishdan orqada qoladi. Sig' imda esa tok kuchlanishdan  $\frac{\pi}{2}$  burchakka ilgarilab ketadi. Keltirilgan ma'lumotlar asosida va INDUKTIVLIK va SIG'IM elementlариниг bir-biri bilan bog'lanish kombinatsiyалари hisobiga elektr filtrlari tuziladi va bir nechta turlarga bo'linadi.

Ideal filtlar faqat reaktiv elementlардан tuzilgan bo'ladi.

Quyida elektr filtrlarining bir nechta turlarini ko'rib chiqamiz. Elektr filtrlarini sintez qilishda S. BATTERVORD (elektrik-muhandis), P. L. CHEBISHEV va Ye. I. ZOLOTARYOV (yirik matematik olimlar) nomlari bilan ataladigan elektr filtrlari keng tarqalgan.

Yuqoridaq filtrlarni ko'rib chiqishdan oldin quyidagi tushunchalarni keltiramiz:

Quyi va yuqori chastotali filtrlardagi reaktiv elementlar soniga filtr tartibi ( $n$ ) deb ataladi. Masalan, ushbu sxemalarda: 2- va 7- tartibli filtlar keltirilgan.




17.1-rasm.

Demak, filtr nechanchi tartibli bo'lsa filtr parametrlarini hisoblashda operator, kompleks va differensial tenglamalar ham 2-, 3- va 7-tartibli holatda tuziladi.

Elektr filtrlarining gorizontallыk yelkalaridagi qarshiliklarini perpendicular yelkalaridagi qarshilik qiymatlariga ko'paytmasi FILTERNING XARAKTERISTIK QARSHILIGI deb ataladi:

$$j\omega \left( \frac{L}{2} \right) \left( \frac{2}{j} \omega C \right) = \frac{L}{C} = k^2 \quad (17.1)$$



17.3-rasm.


Elektr filtrlari rasmda ko'rsatilgандек то'rtqutbli elektr занжирлари таркебига кирди ва quyи chastotali filtrlar  $K = \sqrt{(L/C)(QCHF)}$  deb ataladi.

Bunday filtrlarda induktiv elementlарда qarshilik juda kam bo'ladi, chastota oshgan sari gorizontal shoxobchadagi qarshilik osha boradi, perpendicular shoxobchada esa uzatish koeffitsiyenti kamayadi.


Bu turdagи filtrlada REZONANS CHASTOTASI QIRQISH CHASTOTASI  $\omega_{cp}$  deb ataladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$\omega = \frac{1}{\sqrt{\frac{L}{2} \cdot \frac{C}{2}}} = \frac{2}{\sqrt{LC}}$$

$$f_{cp} = \frac{1}{\pi} \sqrt{LC}$$



17.4-rasm.




17.5-rasm.

Elektr filtrlarida NORMALLASHTIRILGAN kattalik bu o'lichov birliksiz kattalik bo'lib quyidagicha ifodalanadi: masalan, normal-lashtirilgan chastota, chastotaning qirqish chastotasi nisbatiga aytildi.

$$\omega = \frac{\omega}{\omega_{cp}} \quad \text{yoki} \quad f = \frac{f}{f_{cp}} .$$


Battervord xarakteristikalariga ega bo'lgan filtrlar shunday filtrlarki, QCHF larda chastotata NOLGA teng bo'lganda signal so'nishi ham NOLGA teng bo'ladi, o'tkazish yo'lakchasida esa signal so'nishi monoton ravishda o'sadi va chegaraviy 3 dB chastotaga teng bo'ladi. Keyinchalik ushlab qolish yo'lakchasida esa monoton ravishda keskin oshadi.




17.6-rasm.

Bunday filtrlarda filtr tartibi qanchalik katta bo'lsa, ushlab qolish yo'lakchasida signal xarakteristikasi keskinlashadi, o'tkazish yo'lakchasida esa kuchsizlanadi. E'tiborga olish kerakki filtr elementlari faqat reaktiv elementlar bo'lganda shunday holat yuz beradi.

Chebishev filtrlarida signalning so'nish xarakteristikasi o'tkazish yo'lakchasida amplitudasi 3 dB dan oshmaydigan tebranma ko'rinishda bo'ladi, ushlanib qolish yo'lakchasida esa xuddi shunday tartibga ega bo'lgan BATTERVORD filtrlaridan katta bo'lgan monoton ravishda o'sib boruvchi xarakteristikaga ega bo'ladi.



17.7-rasm.




17.8-rasm.


O'tkazish yo'lakchasida signalning tebranish amplitudasi qanchalik katta bo'lsa, filtrning ushlanib qolish yo'lakchasida signal xarakteristikasining keskin oshib ketishi kuzatiladi yoki uning teskarisi, signal amplitudasi qanchalik kichik bo'lsa, signal xarakteristikasining o'sishi ham ancha past darajada ekanligi kuzatiladi. Agar signal parametrlarini shunday tanlansaki o'tish yo'lakchasida signal amplitudasi nolga teng bo'lsa, (tugatilsa) CHEBISHEV filtri BATTERVORT filtrliga aylanadi.

### 17.1. Zolotaryov filtrlari

Bu turdagilarda o'tkazish yo'lakchasida signallar tebranma xarakterga ega bo'ladi, ushlanib qolish yo'lakchasida esa monoton bo'lmagan, keskin o'zgaruvchan xarakterga ega bo'ladi. Quyidagi rasmlarda Zolotaryov filtrlari keltirilgan:



17.9-rasm.



17.10-rasm.


Bu turdag'i filtrlar shunday tuziladiki, elektr sxemalarda bir nechta chastota rezonansi hosil bo'luchchi zanjirlardan tuziladi (rasmga qarang), chunki kam chastotalarda gorizontall shoxobchalarda qarshilik kam bo'lishi, perpendikulyar shoxobchalarda esa katta bo'lishi kuzatiladi.

Endi katta miqdordagi chastotalarda buning teskarisi kuzatiladi.

## 17.2. Filtrlarda o'tkinchi jarayon

Filtrlarda o'tkinchi jarayonlarni kuzatish uchun ularning kirish qismiga BIRLIK funksiyasi uzatiladi va filtrning CHIQISH qismidagi signal shakliga qarab tahlil qilinadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan filtrlarda o'tkinchi jarayonlar quyidagi ko'rinishda bo'ladi:



17.11-rasm.

rasmdan ko'rindiki, signal shaklining eng kam buzilishi BESSEL filtrida kuzatigan, signal shaklining eng ko'p buzilishi CHEBISHEV filtrida kuzatilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, BESSEL filtrlari o'tkinchi jarayonlarda signal xarakteristikalari yomon ko'rsatgichlarga erishadi, CHEBISHEV filtrlari esa buning teskarisi buqlgan xarakteristikalarga ega bo'ladi.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, filtrlar tartibi ( $n$ ) oshgan sari BESSEL filtrlari xarakteristikalari yaxshilanib boradi, BATTERVORD filtrlarida esa yomonlashadi.

Shunday qilib, ko'rib chiqilgan variantlardan BATTERVORD filtrlari eng optimal deb topilgan va shu filtrlar elektrotexnikada ishlatalib kelinmoqda.

## Filtr parametrlarini hisoblash tartibi

Filtrlar parametrlarini hisoblashda QCHF lar asos qilib olinadi va qolgan filtrlarga tatbiq etiladi.

Filtr parametrlarini hisoblashda quyidagilar asos qilib olinadi:

1. Filtr turkumi (YuCHF, QCHF, YF, UQF va h.)
2. O'tkazish yo'lakchasi uchun chastotalar diapazoni (qiymati).
3. Ushlanib qolish yo'lakchasida chastotalar diapazoni (qiymati).
4. Ushlanib qolish yo'lakchasida, ma'lum bir chastotalar uchun, ruxsat etilgan signalning so'nish qiymati.
5. Generator va sxemadagi yuklamalar uchun qarshiliklar qiymati.


## NAZORAT SAVOLLARI

1. Elektr filtr turlari.
2. Filtrlarni tashkil etuvchi elementlar.
3. Filtr tartibi qanday aniqlanadi?
4. Filtrning xarakteristik qarshiligi nima?
5. Qirqish chastotasi, formulasi, grafiki.
6. Battervord filtrlari.
7. Chebishev filtrlari.
8. Zolotaryov filtrlari.
9. Filtrlarda o'tkinchi jarayonlar.
10. Filtr parametrlarini hisoblash tartibi.

## XVIII bob. NOCHIZIQLI ELEKTR ZANJIRLAR


CHIZIQLI zanjirlarning parametrlari, ya'ni qarshiliklari, induktivliklari, boshqaruvchi manbalarning sig'implari-ularga ulangan kuchlanishlar yoki ulardan oqib o'tayotgan toklarning qiymatlariga bog'liq emas edi.

Element qarshiligi shu qarshilik qutblaridagi kuchlanish  $U$  ning miqdori va shu qarshilikdan oqib o'tayotgan tok  $I$  ning miqdori qandayligidan qat'i nazar, unga nisbati doimo bir-xil miqdorga teng bo'lgan, ya'ni qarshilikning kuchlanishi va toki orasidagi bog'lanish  $U(I)=\Omega \cdot I = \text{const}$  doimo o'zgarmas bo'lgan elektr zanjirlari CHIZIQLI elektr zanjirlari deb ataladi va TOK va KUCHLANISH shakllari quyidagicha bo'ladi.



18.1-rasm.

Elektr zanjirining qarshiligi tok kuchiga va kuchlanishiga bog'liq bo'lgan zanjir *nochiziqli zanjir* deb ataladi.



18.2-rasm.

Nochiziqli elektr zanjirlari o'zlarining xarakteristikalariga, asosan, ikki turga bo'linadi: SIMMETRIK va SIMMETRIK BO'LMAGAN.

Zanjir qutblaridagi tok va kuchlanishlar yo'nalishlari volt-amper xarakteristikalariga bog'liq bo'lмаган nochiziqli elementlarga SIM-METRIK NOCHIZIQLI ELEKTR ZANJIRLARI deb ataladi.

Bu turdag'i elektr zanjirlariga elektr lampalari, baretterlar (tokni stabil holatga keltiruvchi qurilma) termorezistorlar kiradi.

Zanjir qutblaridagi tok va kuchlanishlar yo'nalishlari har xil bo'lган volt amper xarakteristikali nochiziqli elementlarga SIM-METRIK bo'lмаган elektr zanjirlari deb ataladi.

Bunday turdag'i elektr zanjirlariga triodlar (lampali, yarim-o'tkazgichli) kiradi.

Nochiziqli zanjirlarga cho'g'lanma lampalar, elektron lampalar, ion va yarim o'tkazgichli asboblar misol bo'la oladi.


Bunday zanjirlarning qarshiligi doimiy bo'lмагани uchun zanjirdagi tok kuchi uning qutblaridagi kuchlanishga proporsional bo'lmaydi.

Nochiziqli xarakteristikali elementlarga aktiv nochiziqli qarshiliklar; termistorlar, yarim o'tkazgichli diod, stabilizator, yarimo'tkazgichli termoqarshiliklar va reaktiv nochiziqli qarshiliklar, to'yingan ferromagnit o'zakli drossellar hamda nochiziq dielektrikli kondensatorlar kiradi.

### Nochiziqli elektr zanjirlar parametrlari

Rezistiv qarshilik, induktivlik va sig'im ularning parametrlari mos ravishda  $R$ ,  $L$  va  $C$  o'z qiymatlarini saqlashmasa va tokka yoki kuchlanishga bog'liq bo'lsa, ular nochiziqli deyiladi.


Ularning xarakteristikasi: (volt-amper  $u=iR$ , veber-amper  $\Psi=Li$  va volt-kulon  $q=Cu$ ) egri chiziqli liniya orqali ifodalanadi.



18.3-rasm.

Har bir element uchun qutblarida (klemmalarida) hosil bo'ladigan kuchlanish va shu element orqali o'tayotgan TOKlarni bir-biriga bog'liqliklarini ko'rsatuvchi VOLT-AMPER XARAKTERISTIKALARI (VAX) mavjud bo'ladi.


Ushbu grafikda CHIZIQLI va NOCHIZIQLI elementlarning TOK va KUCHLANISHLARGA bog'liqlik grafigi keltirilgan. Chiziqli elementlarda KUCHLANISH oshgan sari TOK ham oshib boradi, nochiziqli elementlarda esa har bir nuqtada tok va kuchlanish qiymatlari har xil bo'ladi va o'zgarishlar ham har xil bo'ladi.



18.4-rasm.

BARETTERning VAX keltirilgan. Kuchlanishning  $U_n$  va  $U_k$  oraliq'sida baretterdagi TOK miqdori o'zgarmaydi, qarshilik esa  $R_b$  tok oshgan sari oshib boradi

TERMOREZISTOR (kuchlanishni normal holatga keltiruvchi qurilma)ning VAX keltirilgan. Harorat oshgan sari qarshilik kamayib boradi. Bu qurilma elektr zanjirlarda haroratni o'lchash va normallashtirish uchun ishlataladi.



18.5-rasm.

Nochiziqli ikkita paralel ulangan elementlar va ularning VAX quyidagicha berilgan bo'lsa:

$$r_1(I_1) \text{ va } r_2(I_2) \quad I_1(U_1) \text{ va } I_2(U_2)$$


Berilgan zanjir uchun kuchlanishning toklar yig'indisiga ( $I_1 + I_2$ ) bog'liqlik grafigini chizish kerak bo'ladi.

Paralel ulangan elektr zanjirlarida shoxobchalardagi kuchlanishlar bir-biriga teng bo'lganligini  $U_1 + U_2 = U$  va  $I = I_1 + I_2$  e'tiborga olgan holda, ordinata o'qiga toklar qiymatini qo'yamiz (OS nuqta), S nuqtadan to'g'ri chiziq (sd nuqta). Shu nuqtadan ordinata o'qiga paralel bo'lgan (da kesimini tushuramiz), natijada ad va af mashtabga teng bo'lgan kesma olamiz.

Xuddi shunday yo'l bilan parallel ulangan har qanday nochiziqli elektr zanjir parametrlarini grafik usulda hisoblash mumkin.

### 18.1. Ketma-ket ulangan nochiziqli elementlar ulangan elektr zanjirni grafik usulda hisoblash

Ketma-ket ulangan nochiziqli elektr zanjirlarda tok  $I=I_1+I_2$ ,  $U=U_1+U_2$  ga teng bo'ladi. Shu ifodalarni e'tiborga olgan holda, bir xil kuchlanishlar qiymatida toklar yig'indisi topiladi (grafikda keltirilgan).




18.6-rasm.

### 18.2. Nochiziqli rezistiv elementti

Tarkibida sig'im va induktivliklari, ya'ni energiyani zahiralovchi reaktiv elementlari bo'lman elektr zanjirlari rezistiv zanjirlar deyiladi. Rezistiv elementning sxemadagi shartli belgisi yuqorida keltirilgan.

NCH rezistiv elementni aniqlashda albatta, uning Volt-Amper xarakteristikalari keltiriladi:



$$R = \frac{U}{I} \quad G = \frac{I}{U} = \frac{1}{R}; \quad G_d = S = \frac{di}{du} = \frac{1}{R}. \quad (18.1)$$


### 18.3. Nochiziqli sig'im.

Nochiziqli sig'imning sxemadagi shartli belgilanishi quyida keltirilgan:

Undagi to'plangan zaryad  $q=q(u)$  kuchlanishga  $u(t)$  nochiziqli bog'lanishda bo'ladi.



$$C = \frac{q}{u_C}; \quad C_d = \frac{dq}{du_C}. \quad (18.2)$$



18.7-rasm.

$$i = C(u) \frac{du}{dt}. \quad (18.3)$$


### 18.4. Nochiziqli induktivlik

Nochiziqli induktivlikning elektr sxemadagi shartli belgisi quyida rasmda keltirilgan. Magnit ilashuvning tokka nochiziqli bog'langanligi quyidagicha ifodalanadi:



$$L = \frac{\psi}{i} ; \quad L_d = \frac{d\psi}{di} . \quad (18.4)$$

Real elementlarning NCH rezistiv elementlar modellari shaklidagi tavsiflanishiga diod, tiristor, dinistor misol bo'la oladi.



18.8-rasm.

Chiziqli elektr zanjir parametrlari Om qonuni orqali hisoblansa, nochiziqli VAX katta tartibdagisi ko'phadlar orqali hisoblanadi:

$$i = a_0 + a_1 u + a_2 u^2 + a_3 u^3 + a_4 u^4 + a_5 u^5 + \dots \quad (18.5)$$

Bu formulada:  $a_0$  – tokning doimiy tashkil etuvchisi;

$a_1 \dots a_5$  – VAX turiga bog'liq bo'lgan va o'tkazuvchanlik o'lchov birligiga ega bo'lgan doimiy koeffitsiyentlar.

Nochiziqli elektr zanjirlar VAXlari qanchalik chiziqli elektr zanjirlar VAX laridan farq qilsa ko'phadli formuladagi daraja ko'rsatgichlari shunchalik katta tartibga ega bo'lib boraveradi va zanjir qutblariga (klemmalariga) qo'yilgan kuchlanish o'zgarib borgan sari TOK ham shunchalik o'zgarib bóraveradi.

### Misol uchun

Agar, kirish signali quyidagi garmonik funksiya ko'rinishiga ega bo'lsa:

$$u = U_m \sin \omega_l t . \quad (18.6)$$

Nochiziqli elektr zanjirining VAXsi 2 tartibdagisi ko'phaddan tashkil topgan bo'lsa va quyidagi tenglama bilan ifodalansa:

$$i = a_1 u + a_2 u^2 \quad (18.7)$$

U kuchlanish o'rniga  $U_m \sin \omega_l t$  ifodani qo'yamiz va quyidagi tenglamani olamiz:

$$i = a_1 U_m \sin \omega_l t + a_2 U_m \sin^2 \omega_l t . \quad (18.8)$$

Va quyidagi ifodani e'tiborga olsak,

$$\sin^2 \omega_l t = \frac{1 - \cos 2\omega_l t}{2} . \quad (18.9)$$

U holda nochiziqli elektr zanjirida TOK quyidagi ifodaga teng bo'ladi:

$$i = a_1 U_m \sin \omega_l t + \frac{1}{2} a_2 U_m - \frac{1}{2} a_2 U_m \sin 2\omega_l t . \quad (18.10)$$

DEMAK, NOCHIZIQLI ELEKTR ZANJIRI: kirish qismiga uzatilgan KUCHLANISH  $\omega_l$  chastotali sinusoidal signaldan tashkil topgan bo'ladi, TOK esa doimiy kattalikdan

$$-\frac{1}{2} a_2 U_m \quad (18.11)$$

va ikkilangan chastotali garmonik signaldan tashkil topgan

$$\frac{1}{2} a_2 U_m \sin 2\omega_l t . \quad (18.12)$$

### NAZORAT SAVOLLARI


1. Nochiziqli qarshilik.
2. Nochiziqli sig'im.
3. Nochiziqli induktivlik.

## XIX bob. MAGNITLI ZANJIRLAR

MAGNIT OQIMI BOG'LANGAN FERROMAGNIT MATERIALLAR VA MAGNIT YURITUVCHI KUCHLAR YIG'INDISIGA MAGNIT ZANJIRLAR DEB ATALADI.

Magnit zanjirlar tarmoqlanmagan va tarmoqlangan turlariga bo'linadi.

- Magnit kesim yuzalarida magnit oqimi bir xil bo'lgan magnit zanjiriga TARMOQLANMAGAN magnit zanjiri deb ataladi. TARMOQLANMAGAN magnit zanjiriga quyidagi rasmdagi zanjir misol bo'la oladi. Tarmoqlanmagan magnit zanjirida magnit OQIMI bir xil bo'ladi, ya'ni:




19.1-rasm.

$$\Phi = \int BdS = 0$$

(19.1)

Magnit oqimi magnit kesim yuzalarida HAR XIL bo'lgan magnit zanjirlari TARMOQLANGAN magnit zanjiri deb ataladi.

Tarmoqlangan magnit zanjirlari SIMMETRIK va NOSIMMETRIK magnit zanjirlariga bo'linadi. SIMMETRIK magnit zanjiriga quyidagi rasmdagi zanjir misol bo'ladi:



19.2-rasm.

Agar, rasmda ko'rsatilgan magnit zanjirining ikki tomonidagi magnit yurituvchi kuchlari:

$$I_1 \omega_1 = I_2 \omega_2$$

(19.2)

va MAGNIT OQIMLARI

$$\Phi_1 = \Phi_2$$

(19.3)

bir-biriga teng bo'lsa, bunday zanjir SIMMETRIK deb yuritiladi.

Agar, MAGNIT oqimi va magnit yurituvchi kuchlar bir-biriga teng bo'lmasa, ya'ni:

$$\begin{aligned} I_1 \omega_1 &\neq I_2 \omega_2 \\ \Phi_1 &\neq \Phi_2, \end{aligned}$$

(19.4)

bunday magnit zanjiri NOSIMMETRIK magnit zanjiri deb yuritiladi.

Magnit zanjirlarida asosiy kattaliklar quyidagilar hisoblanadi: MAGNIT INDUKSIYASI, MAGNITLANISH va MAGNIT MAYDON KUCHLANGANLIGI.

MAGNIT INDUKSIYASI:

$$B = \mu_0(H+J) \quad 1T = 1 \text{ A} \cdot \text{c/m}^2 = 1 \text{ A} / 6 \text{ m}^2$$

$$\begin{aligned} B &= \mu_0 \mu H = \mu_a H \\ H &= B / \mu_0 \approx 0,8 \cdot 10^6 B \end{aligned}$$

(19.5)

MAGNITLANISH:

$$J = \chi H \quad 1 + \chi = \mu$$

(19.6)

Magnitlanish va magnit maydon kuchlanganligi o'lchov birliklari: (A/m) o'lchov birligi bilan o'lchanadi.

MAGNIT OQIMI: o'lchov birligi (Weber - Vb)

$$\Phi = \int BdS$$

(19.7)

Magnit zanjirlar parametrlarini hisoblashda asosiy qonunlardan biri bu TO'LIQ TOK QONUNI hisoblanadi va quyidagicha ifodalanadi:

YOPIQ MAGNIT KONTURI ORQALI AYLANAYOTGAN MAGNIT MAYDON KUCHLANGANLIK VEKTORI SHU KONTUR ORQALI OQAYOTGAN TOKLARNING ALGEBRAIK YIG'INDISIGA TENG BO'LADI:

$$\oint H dl = \Sigma I .$$

(19.8)

Agar magnit katushkasidagi cho'lg'amlar sonini e'tiborga olsak, u holda to'liq tok qonuni quyidagi ifodaga teng bo'ladi:

$$\int H dl = I \omega = F. \quad (19.9)$$

Bu yerda,  $F$ —magnitlanish kuchi, yoki magnit yurituvchi kuch deb yuritiladi, o'lchov birligi (amper-vitkax).

Yuqoridaq formulani e'tiborga oladigan bo'lsak, MAGNIT ZANJIR QONUNI quyidagicha ifodalanadi:

$$\sum_{k=1}^n H_k l_k = \sum_{k=1}^n \frac{B_k}{\mu_{ak}} l_k = F. \quad (19.10)$$

Bu ifodada:  $l$  — magnit induksiyasi liniyasining o'rtacha uzunligi.

### 19.1. Magnit zanjirlari uchun Kirxgof qonunlari

KIRXGOFNING BIRINCHI QONUNI;

Magnit zanjirining har qanday tugunlaridagi magnit oqimlarning algebraik yig'indisi nolga teng.

$$\sum \Phi = 0 \quad (19.11)$$

KIRXGOFNING IKKINCHI QONUNI:

Har qanday yopiq konturdagi magnit kuchlanganliklar tushumining algebraik yig'indisi shu konturning magnit yurituvchi kuchlarining algebraik yig'indisiga teng:

$$\sum U = \sum I \omega. \quad (19.12)$$

MAGNIT QARSHILIGI, MAGNIT ZANJIR UCHAST-KASINING MAGNIT O'TKAZUVCHANLIGI. MAGNIT ZANJIRI UCHUN OM qonuni.

Qoidaga ko'ra magnit kuchlanlanganlik quyidagicha ifodalanadi:

$$U = Hl. \quad (19.13)$$

Bu ifodada:

$$H = B / (\mu \mu_0) = \Phi / (\mu \mu_0 S), \quad (19.14)$$

$\Phi$  — magnit oqimi;

$S$  — magnit uchastkasining ko'ndalang kesim yuzasi.

Yuqoridaq formulalarni inobatga olgan holda, MAGNIT ZANJIRI UCHUN OM qonuni quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{aligned} U &= \Phi l / (\mu \mu_0 S) = \Phi R \\ R &= l / (\mu \mu_0 S). \end{aligned} \quad (19.15)$$

Magnit zanjiri uchun OM qonuni magnit oqimi bilan magnit kuchlanganlik o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi.


Bu ifodalarda quyidagi formula MAGNIT ZANJIR UCHAST-KASINING MAGNIT QARSHILIGI deb yuritiladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$R = l / (\mu \mu_0 S). \quad (19.16)$$

Magnit uchastkasining magnit qarshiligi miqdoriga teskari bo'lgan ifoda MAGNIT O'TKAZUVCHANLIK deb ataladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$G = I / R = \mu \mu_0 S / l. \quad (19.17)$$

Magnit zanjirlar ko'pchilik mashinalar, apparatlar, elektromagnit asboblar va o'lchash texnikasi hamda avtomatika qurilmalarining asosini tashkil qiladi. Masalan, quyidagi rasmida kuchli magnitaviy maydon manbayi hisoblangan va tez-tez uchrab turadigan o'zgarmas tok elektromagniti ko'rsatilgan:



19.3-rasm.

Bunda elektromagnit energiya mexanik energiyaga va energiya yanaq boshqa ko'rinishlariga hamda teskarisiga almashinadi.

Masalan, o'zgarmas tok sinxron mashinasining rotori chulg'a-midan tok o'tganda o'zgarmas "N-S" qutbli magnit maydoni hosil bo'ladi.

Bu magnit maydonning kuch chiziqlari rotor va statorning (A.V.S. chulg'amlarini ham kesib o'tib) po'lat o'zaklari orqali tutashadi. Rotor ma'lum  $\omega$  burchak tezlik bilan aylanganda statorning chulg'amlarida  $\omega$  chastotali o'zgaruvchan EYuK induksiyalaradi.

O'zgarmas tokning elektromagnit maydonidan po'lat buyum va metall siniqlarini tashishda ishlatalidigan ko'targich elektromagnitlar qurishda foydalanilishini misol tariqasida ko'rsatish mumkin.

Magnit materiallar yordamida magnit oqimi keskin kuchaytiriladi.

Magnit oqimidan past kuchlanishli toklarni yuqori kuchlanishli toklarga yoki elektr energiyasini mexanik energiyaga aylantirishda va elektr energiyasini shunga o'xshash tarzda generatsiyalashda foydalaniladi.

Tashqi magnit maydoni ta'sirida magnitlanish xossasiga ega materiallar *magnit materiallari* deb ataladi.

Asosiy magnit materiallarga nikel, kobalt va toza temir asosidagi turli qotishmalar misol bo'ladi.

Texnika ahamiyatga ega magnit materiallariga ferromagnit materiallar va ferromagnit kimyoviy birikmalar (ferritlar) kiradi.


Materialarning magnit xossalari elektr zaryadlarining ichki harakatiga asoslangan bo'lib, bunda zaryadlar elementar aylanma tok ko'rinishida ifodalanadi. Bunday aylanma toklar elektronlarning o'z o'qi atrofida aylanishi (elektron spinlar) hamda ularning atom ichida orbita bo'ylab aylanishidan hosil bo'ladi.

Ferromagnit hodisasi ba'zi materiallarning ichki mikroskopik qismida kristall strukturalar tashkil qilishi bilan bog'liq bo'lib, bunday strukturalar **MAGNIT DOMENLARI** deyiladi.

Bunda elektron spinlar o'zaro parallel ravishda bir tomoniga yo'nalan bo'ladi.

Ba'zi materiallar (qatlama chegaralari orasidagi qalinlik bir necha o'n-yuz atom masofasiga teng bo'lgan)da domenlarning o'chami taxminan  $0,001\text{-}10 \text{ mm}^3$  oralig'iда bo'ladi. O'ta toza materiallarda esa domenlarning o'chami yuqorida keltirilgan qiymatdan ham kattaroq bo'ladi.

Ferromagnitning magnitlanishida domenlarda sponlarning yo'nali sh olishi.



19.4-rasm.

Polikristall magnetiklarda anizotropiya keskin ifodalangan hollarda ferromagnetik magnit teksturaga ega bo'ladi.

Kerakli magnit tekstura olish orqali materialda ma'lum yo'nalishda yuqori magnit xarakteristikaga erishish mumkin.

Tashqi magnit maydoni ta'sirida ferromagnit materialning magnitlanish jarayoni quyidagicha kechadi:

1) magnit momenti maydon yo'nalishi bilan kichik burchak hosil qilgan domenlar kattalashadi va boshqa domenlar o'chami kichrayadi;

2) magnit momentlari maydon yo'nalishi uzra buriladi va bir xil yo'nalishga ega bo'ladi.

Magnit to'ynishi domenning kattalishishi to'xtaganda va o'z-o'zidan magnitlangan barcha monokristall qismlarning magnit momenti maydon uzra yo'nalanida sodir bo'ladi. Domenlardagi spinlar yo'nalishining o'zgarishi rasmida keltirilgan.

Ferromagnit monokristallari magnitlanayotganda ularning chiziqli o'chamlari o'zgaradi. Bu hodisa *magnit-striksiya* deyiladi. Temir monokristalining magnit-striksiyasi kristallning har xil yo'nalishlarida turlicha bo'ladi.

Materialarning nisbiy magnit singdiruvchanligi magnit induksiyasi ( $V$ ) ning magnit maydoni kuchlanganligiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$\rho_p = B/\mu_0 H. \quad (19.18)$$

Magnit materialning magnit singdiruvchanligi birdan yuqori  $\mu \gg 1$  ( $\mu_p = \mu_0 \cdot \mu$ ,  $\mu = 1,2566 \cdot 10^{-6} \text{ Hn/m}$ ) bo'ladi.

*Magnit singdiruvchanlik chulg‘amga magnit o‘zak kiritilganda magnit oqimining ko‘payishini bildiradi. Bu yuksalish bir necha o‘n ming martagacha ortadi.*

Uzunligi L, kesim yuzasi S bo‘lgan o‘zakning magnit qarshiligi quyidagicha aniqlanadi:

$$P_{\mu} = L/\mu S = L/\mu \mu_0 S. \quad (19.19)$$


Shunday qilib, g‘altakka o‘zak kiritilishi natijasida magnit qarshiligi  $\mu$  ga bog‘liq ravishda kamayadi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Magnit zanjirlar ta’rifi.
2. Magnit zanjir turlari (tarmoqlangan va tarmoqlanmagan MZ).
3. Simmetrik va nosimmetrik MZ.
4. Magnit zanjirlar uchun KIRXGOF qonunlari.
5. MZ to‘liq tok qonuni.
6. MZ to‘liq mangnit qonuni.
7. MZ uchun OM qonuni.
8. MZ to‘liq magnit qarshiligi, magnit o‘tkazuchanlik.

### XX bob. TESKARI BOG‘LANGAN ELEKTR ZANJIRLARI. AVTOGENERATORLAR

CHIQISHIDAGI SIGNAL QAYTADAN KIRISHIGA UZATILADIGAN ZANJIR TESKARI BOG‘LANISHLI (TB) ZANJIR DEB ATALADI.



20.1-rasm.

Zanjirga teskari bog‘lanishni kiritish zanjirning ishchi xarakteristikalarini o‘zgartiradi.

Masalan, chiqishidagi signaling bir qismi TB orqali kirishga uzatilsa hamda u kirishdagi signaldan ayirib tashlansa bunday TB manfiy teskari bog‘lanish deb ataladi (manfiy TB).

Agar, chiqishdagi signaling bir qismi kirishga uzatilsa hamda u kirishdagi signalga qo‘silsa, bunday teskari bog‘lanish musbat teskari bog‘lanish (Musbat TB) yoki regenerativ teskari bog‘lanish deyiladi.

Manfiy teskari bog‘lanish kuchaytirish koeffitsientini kamaytiradi va tekislaydi, uning o‘tkazish oralig‘ini kengaytiradi, shovqin va bo‘zilishlarni kamaytiradi. Kuchaytirgichlarda ko‘proq manfiy TB qo‘llanadi.


Musbat teskari bog‘lanish kuchaytirish koeffitsientini orttiradi, o‘tkazish oralig‘ini kichraytiradi va kuchaytirish barqarorligini kamaytiradi. Musbat TB ko‘pincha generatorlarda qo‘llanadi.

Aktiv nochiziqli elementlardan tashkil topgan elektr zanjirlarda elektr tebranishlar davriy ta’sirsiz o‘z ichidan hosil bo‘lishi mumkin.

O‘zgarmas manbalar energiyasining tebranishlar energiyasiga almashish jarayoni zanjirdagi avtotebranishlar deb ataladi.

Avtotebranishlar hosil bo‘ladigan zanjir teskari bog‘lanishli zanjirlar hisoblanadi.

Operator uzatish funksiyalarini  $K(R)$  va  $\beta(R)$  bo'lgan ikkita tizim quyidagicha bog'langan bo'lsin:



20.2-rasm.

### Teskari tizim

Bunday tizim teskari bog'lanishli tizim deb yuritiladi.

Agar,  $X(R)$  va  $Y(R)$  mos ravishda kirishdagi va chiqishdagi operator signallari bo'lsa, u holda:

Teskari bog'langan tizimning uzatish funksiyasi  $N(R)$ ni aniqlaymiz:

$$Y(p) = E(p)K(p), \quad E(p) = X(p) + \beta(p)Y(p)$$

va  $X(p) = E(p) - \beta(p)Y(p)$  ga teng bo'lsa, u holda:

Demak,

$$H(p) = \frac{Y(p)}{E(p)} = \frac{E(p)K(p)}{E(p) - \beta(p)Y(p)} = \frac{K(p)}{1 - \beta(p)\frac{Y(p)}{E(p)}} = \frac{K(p)}{1 - \beta(p)K(p)} \quad (20.1)$$

Agar,  $P = j\omega$  bo'lsa, u holda, bu ifoda quyidagi shaklda bo'ladi:

$$H(j\omega) = \frac{K(j\omega)}{1 - \beta(j\omega)K(j\omega)} = \frac{K(j\omega)}{F(j\omega)} \quad (20.2)$$

Bu formulada ushbu ifoda

$F(j\omega) = 1 - \beta(j\omega) \cdot K(j\omega)$  – teskari bog'lanishning kompleks chuqurligi deb yuritiladi.

Agar,  $|1 - \beta(j\omega) \cdot K(j\omega)| > 1$  bo'lsa, tizimning uzatish koeffitsiyenti moduli va unga mos ravishda chiqishdagi signal amplitudasi kamaygani sababli teskari bog'lanish manfiy TB bo'ladi.

Agar,  $|1 - \beta(j\omega) \cdot K(j\omega)| < 1$  bo'lsa, teskari bog'lanish musbat TB bo'ladi. **Masalan**, kuchaytirish koeffitsiyenti  $K(j\omega) = 1000$  bo'lsa, teskari bog'lanishning uzatish koeffitsienti  $v(j\omega) = -0,099$  bo'lsa, u holda teskari bog'lanishni o'z ichiga olgan kuchaytirgichning umumiy kuchaytirish koeffitsiyenti quyidagiga teng bo'ladi:


$$H(j\omega) = \frac{K(j\omega)}{1 - \beta(j\omega)K(j\omega)} = \frac{1000}{1 - (-0,099) \cdot 1000} = 10. \quad (20.3)$$

Manfiy teskari bog'lanish uzatish funksiyasining barqarorligini (kuchaytirgich ishining barqarorligini) ko'paytiradi.

Manfiy teskari bog'lanish deyarli barcha kuchaytirgichlarda ishlataladi. Musbat teskari bog'lanish esa avtogeneneratorlarda ishlataladi.

### 20.1. Avtogeneneratorlar

Tashqi ta'sirsiz hosil bo'ladigan tebranishlar–avtotebranishlar deyiladi.



20.3-rasm.

Bu sxemada:

$K$  – kuchaytirgich elementi;

$\beta(j\omega)$  – teskari bog'langan to'rqtibli elementi .

Ichida avtotebranishlar hosil bo'ladigan maxsus qurilma avtogenenerator deb ataladi. (masalan, soat, yurak, o'pkaning harakati va h.k.)


### Avtotebranishlarning xususiyatlari:

- 1) tashqi ta'sirlardan hosil bo'lmaydi, sistema o'zining tebranish xususiyatidan hosil bo'ladi;
- 2) tebranish shakli, ularning amplitudasi va chastotasi sistemaning o'z xususiyatidan aniqlanadi;
- 3) hosil bo'layotgan avtotebranishlar maxsus energiyaga ega (sistemada o'z manbai bor).

Avtogeneratorning umumiy sxemasiga kuchaytirgich va TB to'rtqutbligi kiradi; ularning uzatish koefitsiyentlari shartini bajariladigan qilib tanlanadi.


### LC-avtogenerator

Parallel tebranish konturiga asosan, LC – avtogeneratorni tashkil etish mumkin. Misol uchun, quyidagi elektr zanjirlari buning isbotidir.




20.4-rasm.

Odatda, tebranish konturi ta'sir bo'lмаган holda faqat so'nuvchi tebranishlar hosil bo'ladi:



20.5-rasm.

Agar, konturga tebranish hosil qiluvchi elementlar ulansa, u holda tebranishlar o'suvchi bo'lib qoladi




$$C \frac{d^2 u_c}{dt^2} + G \frac{du_c}{dt} + \frac{1}{L} u_c = G_{\text{out}} \frac{du_c}{dt} \Rightarrow u_c = U_0 e^{\alpha t} \cos(\omega_c t + \psi)$$

20.6-rasm.

### Avtogenerator differential tenglamalari

Agar, quyidagi ko'rinishdagi avtogenerator berilgan bo'lsa, u holda:

$$L = \frac{1}{C} = -\varepsilon \quad (20.4)$$



20.7-rasm.

Quyidagi tenglamalar o'rinnli bo'ladi:

$$R = 1 \quad i_4 = -\frac{1}{3} u^3 \quad (20.5)$$

Kirxgofning birinchi qonuni bo'yicha:

$$i_1 + i_2 + i_3 + i_4 = 0. \quad (20.6)$$

Yuqoridagi zanjir uchun toklar quyidagicha ifodalanadi:

$$i_1 = C \frac{du}{dt}, \quad i_3 = \frac{U}{R}, \quad i_2 = \frac{1}{L} \int u dt, \quad i_4 = -\frac{1}{3} u^3. \quad (20.7)$$

Agar, bir-birini o'rniga qo'ysak, quyidagi ifodani olamiz:

$$C \frac{du}{dt} + \frac{1}{L} \int u dt + \frac{U}{R} - \frac{1}{3} u^3 = 0. \quad (20.8)$$

Vaqt bo'yicha differensiallab quyidagini olamiz:

$$C \frac{d^2u}{dt^2} + \frac{1}{L} u + \frac{1}{R} \frac{du}{dt} - u^2 \frac{du}{dt} = 0; \quad \frac{d^2u}{dt^2} + \frac{1}{CR} \left( \frac{1}{L} - u^2 \right) \frac{du}{dt} + \frac{1}{CL} = 0. \quad (20.9)$$


Yuqoridagi formulalarni bir-biriga qo'ysak,

Van - der - Polning nochiziqli differensial tenglamasini olamiz:

$$u'' - \varepsilon(1-u^2)u' + u = 0. \quad (20.10)$$

Tebranish konturi bo'lgan avtogenatorlarning ko'plab tenglamalari Van-der-Pol tenglamalariga keltiriladi.

Avtogenatorlar parametrlarini hisoblaganda quyidagi xarakteristikalarini olishimiz mumkin:



20.8-rasm.

Keltirilgan grafiklar avtogenatorlar parametrlarini hisoblashda kuchlanishning vaqt bo'yicha o'zgarishini  $\varepsilon = 0,01$  har xil qiymatlari orqali ifodalaydi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Teskari bog'langan zanjirlar, ta'rifi, sxemasi.
2. Manfiy va musbat teskari bog'lanish zanjirlari.
3. Teskari bog'lanishning uzatish funksiyasi.
4. Avtotebranishlar, ta'rifi.
5. LC- avtogenator, sxemasi.
6. So'nuvchi tebranishlar.
7. O'suvchi tebranishlar.
8. Avtogenatorlar differensial tenglamalari.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sen farmoni. Toshkent, 2017-yil 7-fevral.
2. V.A.Tulyaganova, A.A.Yadgarova. Elektr Zanjirlar Nazariyasi fani bo'yicha talabalarning mustaqil tayyorlanishlari uchun uslubiy ko'rsatma. TATU. Toshkent, 2015.
3. Fundamentals of Electric Circuits/ Charles K/ Alexander, 2013.
4. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Ishmukamedov R., Abdugodirov A., Pardayev A. Toshkent, 2008.
5. Бакалов В.П., Воробьев П.П., Крук Б.И. Теория электрических цепей.: Учебник для ВУЗов; Под ред. В.П. Бакалова, -М.: Радио и связь, 1998.
6. Белецкий А.Ф. Теория электрических цепей: Учебник для ВУЗов. -М.: Радио и связь, 1986. -544 с.
7. Матханов П.Н. Основы анализа электрических цепей. Линейные цепи: Учебник для ВУЗов. -3-е изд., -М.: Высш. Шк., 1990. -400 с.
8. Крылов В.В., Корсаков С.Я. Основы теории цепей для системотехников: Учеб. Пособие для ВУЗов. -М.: Высш. Шк., 1990. -224 с.
9. Шебес М.Р., Каблукова М.В. Задачник по теории линейных электрических цепей - М: Вышая школа 1990. - 544 с.
10. Основы теории цепей: Учебник для ВУЗов. Г.В. Зевеке, П.А. Ионкин, А.Н. Нетушил, С.В. Страхов - М: Энергоатомиздат, 1989. - 528 с.
11. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017.
12. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. 2017.
13. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2017.
14. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, № 11.
15. Теория электрической связи: Учебник для вузов / А.Г. Зюко, Д.Д. Кловский, В.И. Коржик, М.В. Назаров; Под ред. Д.Д. Кловского. - М.: Радио и связь, 1999. - 432 с.
16. Теория электрической связи: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений / Р.Р. Биккенин, М.Н. Чесноков. - М.: «Академия», 2010. - 336 с.
17. Склар Б. Цифровая связь. Теоретические основы и практическое применение. - М.: Изд. Дом «Вильямс», 2003. - 1104 с.
18. Прокс Дж. Цифровая связь.- М: Радио и связь, 2000.
19. Ю.П. Акуличев. Теория электрической связи: Учебное пособие. - СПб.: Издательство «Лань», 2010.

A.A.TULYAGANOV, S.S.PARSIYEV,  
V.A.TULYAGANOVA, U.M.ABDULLAYEV

## ELEKTR ZANJIRLAR NAZARIYASI

Maxsus fakultet talabalari uchun

(O‘quv qo‘llanma)

Toshkent – «Aloqachi» – 2018

Muharrir: M.Mirkomilov  
Tex. muharrir: A.Tog‘ayev  
Musavvir: B.Esanov  
Musahhiha: N.Hasanova  
Kompyuterda  
sahifalovchi: F.Tog‘ayeva

Nashr.lits. AIN №176, 11.06.11.

Bosishga ruxsat etildi: 6.09.2018. Bichimi 60x841 /16.  
«Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i 9,75. Nashr bosma tabog‘i 9,0.

Adadi 200. Buyurtma № 24.

«Nihol print» Ok da chop etildi.  
Toshkent sh., M. Ashrafiy ko‘chasi, 99/101.